



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023, № 2

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 ***I.T.Azimov, N.I.Mirzayeva***
Uzluksiz ta'lim tizimida tadbirkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishning ta'lim va tarbiyaviy roli
- 9 ***A.M.Jumanov, M.N.Yigitaliyev***
Uzluksiz ta'limda kimyodan murakkablik darajasi yoqori bo'lgan masalalarni yechish usullari
- 13 ***R.Musurmonov, M.Keldiyorov, M.Halimova***
Uzluksiz ta'lim muassasalarida o'rta o'rta osiyo mashhur allomalarning boy ijtimoiy-pedagogik, milliy ma'naviy-ma'rifiy meroslarini o'rganish istiqbollari
- 18 ***R.Sh.Berdigulov***
Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonining uzviyligi
- 23 ***G.S.Omarova***
Uzluksiz ta'lim tizimida huquqiy fanlarni o'qirishda tabaqalashgan yondashuv
- 27 ***S.I.Zayniyev***
Fan olimpiadalarida foydalaniladigan masalalar yechish jarayonida zamonaviy yondashuvlar
- 32 ***I.To'ychiyeva***
Uzluksiz ta'lim tizimida didaktik qadriyatlar va ulardan foydalanish
- 37 ***P.X.Djuraev, III.K.Mardonov***
Формирование системного мышления студентов

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 43 ***M.P.Djumaniyazova***
Zamonaviy biologiyadan darslarini tashkil etishda raqamli ta'lim texnologiyadan foydalanish
- 46 ***D.U.Djurayev***
Ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashda OTM professor-o'qituvchilarini kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi ahamiyati

MA'NAViy TARBIYA

- 51 ***N.X.Djuxonova***
O'zbek va qirg'iz qizlarini oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalari
- 54 ***R.G'.Jumayev***
Uzluksiz ta'limda integratsiyalash siyosiy ta'lim vositasi va didaktik tamoyillar uyg'unligi

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 59 ***S.Yu.Ashurova***
Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida evristik usullarni ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni
- 64 ***A.S.Djurayev***
Ijtimoiy fan sohasi bitiruvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlantirishida innovatsion moslashuvchan boshqaruvning o'rni va ahamiyati (davomi)
- 69 ***M.A.Xikmatova***
Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'llari
- 73 ***C.C.Igamov***
O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni takomillashtirishda xalq hunarmandchiligidan foydalanishning pedagogik sharoitlari
- 78 ***O.O.Baqoyev, A.K.Avliyakov***
Professional ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining malakaviy amaliyotlarini tasjkil etish samaradorligi
- 83 ***C.Purmatov***
Дизайн как специфическая область проектной деятельности

XORIJiy TILLARNI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI

- 87 ***S.T.Shirmatov***
Bo'lajak mutaxassislarining xorijiy tillarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning ta'lim jarayonida uzluksizligini ta'minlash masalalari
- 92 ***Z.Karumova***
Развитие языковой активности студентов в процессе изучения иностранного языка
- 97 ***H.Y.Axmedova***
Обучение профессионально-ориентированной лексике на занятиях по русскому языку в непрерывном образовании

XORIJiy TA'LIM

- 103 ***G.R.Sobirova***
Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribalari
- 107 ***A.A.Radjabov***
Jahon mamlakatlarida stress muammosining uzluksiz o'rganilishi



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING TA'LIM VA TARBIVAVIY ROLI

I. T. AZIMOV,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

N. I. MIRZAYEVA,

Toshkent shaxar 277-maktab o'qituvchisi

Ushbu maqolada o'quvchilarning biologiya darslarida tadbirkorlik elementlarini takomillashtirishga qaratilgan ma'lumotlar o'z aksini topgan. Maqolada tadbirkorlikni amalga oshirishning metodologik asoslari va o'quvchilarning bilish faoliyati rivojlantirishdagi ta'lim - tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek o'quvchilar uchun tadbirkorlik elementlarni o'zida aks ettirgan biznes loyiha ishlari hamda insektariy va unda organizmlarni parvarish qilish, ulardan biznes faoliyatida foydalanish tadbirlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: yosh tadbirkor, milliy tarbiya, tadbirkorlik sifati va qobiliyati, ta'lim tarbiya, iqtisodiy kompetensiya, loyiha, kasbga yo'llash, hankorlik, insektariy, kapalaklar bog'i.

В данной статье приводятся сведения по совершенствованию элементов предпринимательства у учащихся на уроках биологии. В статье рассматриваются методологические основы реализации предпринимательства и учебно-воспитательного значения в развитии познавательной деятельности у учащихся. В нем также представлена информация о работе над бизнес-проектами, которая отражает элементы предпринимательства для учащихся, а также о деятельности инсектария и уходе за организмами в нем, их использовании в предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: молодой предприниматель, национальное образование, предпринимательские качества и способности, образовательное воспитание, экономическая компетентность, проект, профессиональная ориентация, сотрудничество, инсектарий, сад бабочек.

This article provides information on improving the elements of entrepreneurship among learners in biology class. The article discusses the methodological foundations of the implementation of entrepreneurship and educational significance in the development of cognitive activity in learners. It also provides information about working on business projects, which reflects the elements of entrepreneurship for learners, as well as about the activities of the insectarium and the care of organisms in it, their use in entrepreneurial activities.

Key words: young entrepreneur, national education, entrepreneurial qualities and abilities, educational upbringing, economic competence, project, professional orientation, cooperation, insectarium, butterfly garden.

Milliy tarbiya tizimida sinovdan o'tgan o'g'itlar, chin insoniy fazilatlar yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashning asosi – halollik, rostgo'ylik, o'zaro hurmat, mehnat qilish, hunar egallash, mehnatni qadrlash, mas'uliyatli,



tashabbuskor bo‘lish kabilarda aks etadi hamda hunar o‘rganish, halol ishlab qo‘shimcha daromad topish ustuvor hisoblanadi. Uzluksiz ta‘lim tizimi maktabgacha va maktab ta‘limi, kasb xunar kollejlari, texnikum va oliy o‘quv yurtlarida tahsil oladigan yoshlarimizda bu kabi xislatlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Shu sababli mazkur vazifa davlat siyosati darajasida ko‘rib chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi «Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-423 I-son Qarorida hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotinqizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalari ro‘yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta‘minlanishiga zamin yaratish dolzarbligi qayd etilgan.[1]

Tahlil natijalari yoshlar tadbirkorligi rivojlanishini yanada rag‘batlantirish bo‘yicha davlat organlari tomonidan yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni tashkil etilishiga ko‘maklashish, ushbu faoliyatga yoshlarni keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar berish, yoshlarga tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish, ta‘lim muassasalari bilan ish beruvchilar o‘rtasida shartnoma asosidagi hamkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkam ishlab chiqilganligini, biroq tadbirkorlik ta‘limining pedagogik-psixologik mexanizmlari, didaktik ta‘minoti zamonaviy shart-sharoitlarga to‘liq javob bermasligini ko‘rsatdi. [3;11-12-b]

Uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish iqtisodiy kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biridir. Ana shu sababli o‘quvchi-yoshlarda tadbirkorlikni rivojlantirishni ta‘lim-tarbiya jarayonining tarkibiy asosi sifatida qarash lozim. [2; 90-91-b.]

Shu sababli uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy qismi hisoblangan umumta‘lim maktablarida o‘qitiladigan biologiya darslarida ham o‘quvchilarda rivojlantirilishi lozim bo‘lgan tadbirkorlik ko‘nikmalari tavsifini aniqlashtirish uchun «tadbirkorlik» tushunchasi, tadbirkorlik sifatleri va qobiliyatlari bilan aloqadorlikda zamonaviy jamiyatda tadbirkorlikning tutgan o‘rnini aniqlashtirib olishni taqozo etiladi.

Uzluksiz ta‘lim tizimida asosiy e‘tibor o‘quvchilarning kichik ishlab chiqarish korxonalariga jalb etishga qaratiladi. Mazkur kichik ishlab chiqarish korxonalari o‘quvchi – yoshlarni biznes olamiga olib kirish orqali ularda amaliy ko‘nikma va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, tashabbuskorlik va ijodkorlik qobiliyatlarini ochilishini ta‘minlaydi, ularda mustaqil o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlash imkoniyati



mavjudligiga ishonchni qaror toptiradi va kasbga yo‘naltirishga yordam beradi. [3;41-42-b]

Biologiya darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yuqori. Chunki, o‘quvchilar asosiy biologik obyektlar hisoblangan o‘simliklar, hayvonlar, zamburug‘larni ilmiy jihatdan o‘rganish bilan birga ularning inson hayotidagi iqtisodiy ahamiyatini mazmun va mohiyatini to‘liq tushunib boradilar. Aynan shu ob‘ektlar ustida tadbirkorlik ishlarini tashkil etish osonroq hisoblanadi, boisi, o‘quvchilarning aksariyati oilaviy tadbirkorlikka jalb etilgan bo‘lib, o‘simlik va hayvonlar ustidagi tadbirkorlikda ishtirok etishadi. [4;36-44-b]

Umumta‘lim maktablari Tabiiy fanlar va biologiya darslarida ayniqsa, zoologiyaning umurtqasizlar kursi mavzularini o‘qitishda turli xil loyiha ishlari va biznes rejalarini shakllantirish to‘g‘risida ma‘lumotlarni berib borish o‘zining ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi[5;14-b]. Misol uchun o‘quvchilarga tangachaqanotlilar turkumini o‘qitishda «Kapalaklar bog‘i» deb nomlangan loyihani tavsiya etish mumkin. Albatta bu loyiha o‘quvchilarning bilish darajasi va yosh xususiyatlariga mos keladi. Bu loyiha albatta nafaqat o‘quvchilarni balki yoshi kattalarni ham qiziqtirishi mumkin.

Har qanday ilgari surilgan loyiha o‘z maqsadi va yo‘nalishi jihatidan takrorlanmas va o‘ziga xos hisoblanadi. Albatta har qanday biznes reja va loyihani amalga oshirish uchun joy va mablag‘ masalasi turadi. Kattalar tomonidan «Kapalaklar bog‘i»ni tashkil etish uchun alohida joy, teplitsa, oranjereya, savdo markazlari yoki ofis xonalari talab etiladi. Bu loyihani amalga oshirishda juda katta e‘tibor talab etiladi ya‘ni joyni jixozlash, dizayn uchun maxsus smeta tuzish kerak bo‘ladi. Lekin o‘quvchilar bu loyihani uyida yoki umuta‘lim maktablaridagi tirik tabiat burchagida biologiya o‘qituvchisi bilan hamkorlikda yaratishlari mumkin.

«Kapalaklar bog‘i»ni tashkil etish uchun kapalaklarda qulay sharoitlarni yaratish, shu bilan birga bog‘ga ekskursiyaga keluvchilar hamda mehmonlar uchun barcha sharoitlarni yaratish talab etiladi. «Kapalaklar bog‘i» bo‘yicha ko‘rgazmani tashkil etish faqat bir martalik sarf harajatlar yetarli emas, uning davomiyligini ta‘minlash uchun kapalak g‘umbaklarini turli xil o‘simliklar va zarur jihozlar doimiy sotib olinadi. Kapalaklar bog‘i bazasida turli xil tadbirlar ya‘ni sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, kechalar, fotosessiyalar va o‘quvchilar tomonidan tashkil etiladigan tadbirlari amalga oshiriladi. Bir vaqtning o‘zida tadbirkorlik bilan shug‘ullaniladi turli xil suvenirlar ya‘ni oyna ostiga joylashtirilgan kapalaklar, xattoki turli xil bayramlar va to‘ylarda «Salyut» sifatida foydalanish uchun tirik kapalaklar sotish yo‘lga qo‘yiladi.



Kapalak salyutlari har qanday odamni e'tiborini tortadi va estetik zavq beradi. Bu loyiha faqat insonlarni dam olishlari uchun chiroyli joy balki tabiatni sevuvchilar hamda o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantiradigan markaz vazifasini ham bajarishi kerak.

«Kapalaklar bog'i»da tashkil etiladigan tadbir mehmonlari bu joyga keluvchilar uchun juda qiziqarli va chiroyli bo'lishi bilan bir qatorda ular kapalaklarning uchishinigina kuzatib qolmay balki ular kapalaklarni qo'llarida ushlab ko'rishlari, rasmga tushishlari hamda hasharotlarning rivojlanish sikli bo'yicha ko'pgina qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Kapalaklarning ko'paytirishning eng qulay varianti ularning g'umbagini sotib olishdir. Hozirgi vaqtda ko'plab internet saytlarida kapalak g'umbagini sotish va yetkazib berish bo'yicha o'z takliflarini bildirishmoqda. Voyaga yetgan hasharotdan ko'ra, kapalak g'umbagini topish va undan kapalakni rivojlantirib olish mumkin.

Kapalak g'umbagi uchun buyurtma berish uni tabiatdan qidirib topishdan oldin kapalak uchun yashash joyi tayyorlash lozim. Bunday joyni fanda insektariya deb yuritiladi. Uni isituvchi va namlikni saqlab turuvchi qurilmalar bilan jihozlash lozim. Harorat +25 gradusdan past bo'lmasligi, namlik esa 70% atrofida bo'lish kerak. Uycha kapalaklar yashashi uchun qulay bo'lishi kerak, 10 ta kapalakni saqlash uchun insektariy balandligi kamida 1 metr, eni yarim metrdan baland bo'lmasligi kerak. Tashqi devorlarni imkon darajada oynadan qilish kerak yoki shaffof plastik maxsulotlardan ham foydalanish mumkin. Devorning qolgan qismlarini boshqa maxsulotlardan faner yoki alyuminli maxsulotlardan tayyorlash mumkin. Insektariyada bir biridan uzoqligi 20 sm bo'lgan kapalaklar qo'nishi uchun maxsus moslamalar joylashtiriladi. Insektariyaning burchagiga shoxchalarni qo'yish kerak, bu shoxchalarga g'umbakdan yangi chiqqan kapalaklar qo'nib qanotini quritadi.

Kapalaklar uchun qulay shaorit ular ko'paya olsagina yaratilgan bo'ladi.

Kapalaklar o'simlik nektari, shirin mevalar, shakar eritmaları bilan oziqlanishi mumkin. Agar kapalaklar ko'paya boshlasa ularning lichinkasi uchun zarur bo'lgan yashil o'simliklarni zahira qilish kerak bo'ladi.

Kapalaklar biznes-ideya sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tirik kapalaklarni bolalar va kattalar uchun bayramlarda salyutlar sifatida va konvertlarga bitta yoki bir nechtasini solib yaqin kishilariga sovg'a sifatida taqdim etishlari mumkin. Kapalaklarning narxi turli diapazonlarda yevropa davlatlarida bitta chiroyli kapalakning narxini 20 dollardan deb baholashadi. Agar kapalaklarni to'g'ri va yaxshi pararish qilinsa o'rtacha uch haftagacha yashaydi.



Kapalak nobud bo'lgandan so'ng ham yaxshigina foyda keltirishi mumkin. Nobud bo'lgan kapalakni to'g'ri quritilib chiroyli ramkali oyna ostiga joylashtirib sotish mumkin. Bunday ramka ichidagi kapalakni qiziquvchilar kelishilgan narhda sotib olishlari mumkin. Shuningdek, o'quvchilar texnologik ta'lim o'qituvchilar bilan hamkorlikda chiroyli ramka va panolar yasashni o'rganib olishib, kapalaklarning qurigan qanotlaridan chiroyli qilib panno yoki ramkalarga joylashtirib o'z bizneslarini amalga oshirishlari mumkin, albatta bunday pannolar nihoyatda qimmat turadi.

Shuning uchun bunday biznes loyihalar asosida maktabgacha ta'lim va kichik maktab yoshidayoq bolalarni «tabiiy fanlar» kursini o'qitish jarayonida iqtisodiy bilimlar bilan maqsadga yo'naltirilgan tarzda tanishtirib boriladi, zamonaviy ishlab chiqarish va asosiy kasblar haqida umumiy tushunchalar berib boriladi. Mehnat stajirovkasi jarayoni, dasturi va o'tkazish joyi ota-onalar bilan kelishiladi, o'quvchilar oilaviy daromadga naf keltiradigan pul mukofoti olishadi. Bunday loyiha ishlarida o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash birga o'z sog'asini ustasi bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdan bevosita manfaatdor kompaniya va korxonalar faol ishtirok etishadi. Bu esa o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish bilan birga tadbirkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Albatta bunday tadbirkorlikni o'z ichiga olgan darslarni uzluksiz ta'lim tizimida uzviy ravishda amalga oshirish o'quvchilarning biologiya darslarini ko'proq ishtirok etish xoxish-istaklarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi «Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» ga PQ-4231-sonli Qarori / «Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi», 09.03.2019 y.

2. B.Xodjaev B. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari / -T.: TDPU, 2008. - B.90.

3. O.Hasanboeva, M.Artikova, M.Mamajonov. Oilada o'smirlarni tadbirkorlikka tayyorlashda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi / -T.: «Fan va texnologiya», 2011. - B.80.

4. G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. 2017. Toshkent -B147.

5. G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (zoologiya). 2016. Toshkent -B 82.



UZLUKSIZ TA'LIMDA KIMYODAN MURAKKABLIK DARAJASI YUQORI BO'LGAN MASALALARNI YECHISH USULLARI

A.M. JUMANOV,

QDPI kimyo kafedrası dosenti, p.f.f.d.(PhD).

M.N. YIGITALIYEV,

QDPI Kimyo yo'nalishi III bosqich talabasi

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida kimyodan murakkablik darajasi bir buncha yuqori bo'lgan «Metallar aralashmasi», «Gazlar aralashmasi», «Eritmalar» mavzusi va «Organik moddalarning aralashmalari» bo'yicha masalalar yechish usullari kiritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: uzluksiz talim jarayoni, kimyodan masala yechishning ta'limiy ahamiyati, kimyodan murakkablik darasi yuqori bo'lgan masalalar, aralashmalarga doir masalalar yechish usullari.

В данной статье представлены методы решения задач на «Смесь металлов», «Смесь газов», «Растворы» и "Смеси органических веществ» в процессе непрерывного образования.

Ключевые слова: непрерывный процесс обучения, воспитательное значение решения задач по химии, задачи по химии повышенной сложности, методы решения задач, связанных со смесями.

This article presents methods for solving problems for «Mixture of metals», «Mixture of gases», «Solutions» and «Mixtures of organic substances» in the process of continuous education.

Key words: continuous learning process, educational value of solving problems in chemistry, tasks in chemistry of increased complexity, methods for solving problems related to mixtures.

Uzluksiz ta'lim jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktab va akademik litseylarda o'quvchilarning kimyodan olgan nazariy bilimlari asosida murakkablik darajasi yuqori bo'lgan masalalar yechishga o'rgatish kimyo fani o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlash joiz. Shu tufayli, kimyoni o'qitishda masala yechishning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, masalalar yechish jarayonida moddalar va jarayonlar to'g'risidagi kimyoviy tushunchalar mustahkamlanadi va takomillashadi, bilimlarning mustahkam egallashi vujudga keladi [1;64].

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarning kimyo chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflarida kimyodan murakkablik darajasi birmuncha yuqori bo'lgan masalalarni yechishga to'g'ri kelib qoladi. Ayniqsa, kimyo ixtisosligini tanlagan o'quvchilarni Oliy ta'lim muassasalariga kiruvchilarni tayyorlashda, umumta'lim maktablarda kimyodan darsdan tashqari bo'lgan to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishda, o'quvchilarni tuman, shahar, viloyat va Respublika fan olimpiadalariga tayyorlashda murakkablik darajasi yuqori bo'lgan masalalarni yechish usullarni o'rganish zaruriyati paydo bo'ladi.



Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan hal qilinishi mumkin bo'lgan, murakkablik darajasi birmuncha yuqori bo'lgan bir necha mavzular bo'yicha «Aralashmalarga doir masalalar yechishning algebraik usullari»ni taklif qilmoqchimiz.

Metallarning aralashmalariga oid masala

1-Masala. 2,33 g temir bilan ruxdan iborat aralashma kislotada eritilganda 896 ml vododrod ajralib chiqdi. Aralashma tarkibini aniqlang.

Berilgan: $m(\text{Fe}+\text{Zn})=2,33\text{g}$;

$V(\text{H}_2)=896\text{ml}=0,896\text{l}$; $n(\text{H}_2)=0,896/22,4=0,04\text{ mol}$; $A_r(\text{Fe})=56$; $A_r(\text{Zn})=65$;

Topish kerak: $m(\text{Fe})=?$; $m(\text{Zn})=?$

Bir noma'lumli algebraik tenglama tuzish:


1) $m(\text{Fe})=x$; $m(\text{Zn})=2,33-x$ bilan belgilaymiz;

2) x V_1



56 g $22,4\text{l}$

3) $2,33-x$ V_2



65 g $22,4\text{l}$

4) Bir noma'lumli tenglama tuzamiz:

$$0,4x + \frac{(2,33-x)22,4}{65} = 0,896 \text{ va uni yechamiz: } 0,4x + (2,33-x)0,345 = 0,896;$$

$$0,4x + 0,8038 - 0,345x = 0,896;$$

$$0,055x = 0,0922; x = 1,676 \approx 1,68 \text{ g Fe}; m(\text{Zn}) = 2,33 - 1,68 = 0,65 \text{ g}.$$

Javob: aralashma tarkibida 1,68 g temir vaq 0.65 g rux bo'lgan.

$$\text{Agar massa ulushlari so'ralgan bo'lsa } \varphi(\text{Fe}) = \frac{1,68}{2,33} 100 = 72,1\%; \varphi(\text{Zn}) =$$

$$\frac{0,65}{2,33} 100 = 27,89\%. [4; 128-129].$$

Gazlarning aralashmalariga doir masalalar

1-Masala. Kislorod va ozondan iborat gazlar aralashmasining vododrodga nisbatan zichligi 16,4 ga teng. Aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushlarini hisoblang.

Berilgan: $D(\text{H}_2)=16,4$; $M(\text{O}_2)=32\text{g/mol}$; $M(\text{O}_3)=48\text{g/mol}$;

Topish kerak:



$$\varphi(O_2)=?$$

$$\varphi(O_3)=?$$

Yechimi: 1. Aralashmaning o'rtacha molekulyar massasini hisoblaymiz:
 $M(o'rt)=2 \cdot D(H_2)=2 \cdot 16,4=32,8$;

2. Tenglama tuzamiz va uni yechamiz: $32x+48(1-x)=32,8$; $32x+48-48x=32,8$;
 $16x=15,2$; $x=0,95$ yoki 95 % kislorod.

3. $\varphi(O_2)=0,95$ yoki 95 %; $\varphi(O_3)=0,05$ yoki 5 %.

Demak, aralashma tarkibida 95 % kislorod va 5 % ozon bo'lgan.

2-masala. Vodородga nisbatan zichligi 25 ga teng bo'lgan 8 l CO_2 va SO_2 gazlari aralashmasidagi har bir gazning hajmini (l) toping.

Berilgan: $D(H_2)=25$; $M(CO_2)=44$ g/mol; $(SO_2)=64$ g/mol; $V(\text{aralashma})=8$ l;

Topish kerak: $V(CO_2)=?$ $V(SO_2)=?$

Yechimi: 1. Aralashmaning o'rtacha molekulyar massasini hisoblaymiz:
 $M(o'rt)=2 \cdot D(H_2)=2 \cdot 25=50$;

2. Tenglama tuzamiz va uni yechamiz: $44x+64(1-x)=50$; $44x+64-64x=50$;

$20x=14$; $x=0,7$ - bu CO_2 ning hajmiy ulushi, SO_2 ning hajmiy ulushi esa 0,3

bo'ladi. Demak, aralashma tarkibida $V(CO_2)=\varphi(CO_2) \cdot V(\text{aralashma})=0,7 \cdot 8=5,6$ l;

$V(SO_2)=\varphi(SO_2) \cdot V(\text{aralashma})=0,3 \cdot 8=2,4$ l.

Agar gazlarning massalari so'ralsa, $m(SO_2)=\varphi(SO_2) \cdot M(SO_2)=0,3 \cdot 64=19,2$;

$m(CO_2)=\varphi(CO_2) \cdot M(CO_2)=0,7 \cdot 44=30,8$;

Agar gazlarning massa ulushlari so'ralsa, $\omega(SO_2)=19,2/50=0,384$ yoki 38,4 %; $\omega(CO_2)=30,8/50=0,616$ yoki 61,6%.

Eritmalarga doir masalalar echish

1-masala. 205,2 g alyuminiy sulfat eritmasi tarkibida $66,22 \cdot 10^{24}$ ta proton bo'lsa, eritmadagi tuzning massa ulushini toping.

Berilgan: $M(Al_2(SO_4)_3)$ eritma=205,2 g; $N(\text{proton})=66,22 \cdot 10^{24}$;

$M(Al_2(SO_4)_3)=342$ g/mol; $M(\text{suv})=18$ g/mol;

Topish kerak: $\omega(Al_2(SO_4)_3)=?$

Yechimi: 1. $Al_2(SO_4)_3$ tarkibidagi protonlar sonini aniqlaymiz: $26+48+96=170$ ta;

2. H_2O dagi protonlar esa $2+8=10$ ta;

3. Berilgan va topilgan qiymatlardan foydalanib tenglamalar sistemasini

tuzamiz va uni yechamiz:
$$\begin{cases} 342x + 18y = 205,2 \\ 170x + 10y = 110 \end{cases}$$

2-tenglamani 1,8 ga ko'paytiramiz, natijada
$$\begin{cases} 342x + 18y = 205,2 \\ 306x + 18y = 198 \end{cases}$$



36 $x=7,2$; $x=0,2$ mol - bu $Al_2(SO_4)_3$ ning miqdori, undan foydalanib massani aniqlaymiz: $m(Al_2(SO_4)_3)=0,2 \cdot 342=68,4g$;

4. Eritmadagi tuzning massa ulushi :

$$\omega(Al_2(SO_4)_3) = \frac{68,4}{205,2} \cdot 100 = 33,33\%$$

2-masala. 114,8 g $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$ kristallogidрати 85,2 g suvda eritilganda hosil bo'lgan eritamdagi suvsiz tuzning massa ulushini(%) hisoblang.

Berilgan: $m(ZnSO_4 \cdot 7H_2O)=114,8g$; $m(suv)=85,2g$;

Topish kerak: $\omega(ZnSO_4)=?$;

Yechimi: 1. $M((ZnSO_4 \cdot 7H_2O))=161+126=287 g/mol$;

2. 287 g $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$ ----- 161 g $ZnSO_4$ bor;

114,8 g $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$ ----- x g $ZnSO_4$ bor. $x=64,4 g$.

3. $M=114,8+85,2=200 g$;


$$4. \omega(ZnSO_4) = \frac{64,4}{200} \cdot 100\% = 32,2\%.[6;12].$$

Organik moddalarning aralashmalari


1-misol. CH_4 , CO va C_3H_8 lardan iborat 15,68 l (n.sh.) aralashma yondirilganda 48,4 g CO_2 va 28,8 g H_2O hosil bo'ldi. Dastlabki aralashma tarkibidagi moddalar (ber-tart.) mol nisbatini aniqlang.

Yechimi: 1) $n(ar)=15,68/22,4=0,7$ mol $n(CO_2)=48,4/44=1,1$ mol; $n(H_2O)=28,8/18=1,6$ mol

2) x y 2x




2y 2y



z 3z 4z

$$\begin{cases} x+2y+z=0,7 \\ x+2y+3z=1,1 \\ 2x+4z=1,6 \end{cases}$$

$$x+2y+3z=1,1$$



$$\begin{cases} x+2y+z=0,7 \\ 2z=0,4 \\ z=0,2 \text{ mol propan} \end{cases}$$

$$2z=0,4$$





$$z=0,2 \text{ mol propan}$$

2-misol. Metilamin, etilamin va metandan iborat 17,92 l (n.sh.) aralashma yondirilganda 6,72 l (n.sh.) azot 22,4 l (n.sh.) CO_2 hosil bo'ldi. Boshlang'ich



aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushlarini (%) aniqlang.

Yechimi: $1)n(\text{ar.})=17,92/22,4=0,8$ mol $n(\text{N}_2)=6,72/22,4=0,3$ mol; $n(\text{CO}_2)=1$ mol



$$3) \begin{cases} 1x+4y+z=0,8 & 4x+8y+z=1 \\ 1x+8y+z=1 & 4x+4y+z=0,8 \\ 2x+2y=0,3 & 4y=0,2 \text{ mol etilamin} \end{cases}$$

$$2x+2 \cdot 0,2=0,3$$

$$2x=0,2 \qquad 4 \cdot 0,1+0,2+z=0,8$$

$$x=0,1 \qquad 0,4+0,2+z=0,8$$

$$4x=4 \cdot 0,1=0,4 \text{ mol metilamin} \quad z=0,2 \text{ mol metan}$$

$$4)V(\text{metilamin})=0,4 \cdot 22,4=8,96 \qquad V(\text{etilamin})=0,2 \cdot 22,4=4,48$$

$$V(\text{metan})=0,2 \cdot 22,4=4,48 \qquad \varphi(\text{metilamin})=8,96/17,92 \cdot 100=50\%$$

$$\varphi(\text{etilamin})=4,48/17,92 \cdot 100=25\% \quad \varphi(\text{metan})=4,48/17,92 \cdot 100=25\%.[2;137-138].$$

O'quvchilarga kimyodan bir masalani bir necha usullarda yechishni o'rgatish o'qituvchidan doimiy ravishda o'z ustida ishlash va izlanishini talab qilganligi tufayli o'qituvchi mahoratini yanada oshib borishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar olgan nazariy bilimlarni amaliy mashqlarni bajarishda foydalanish tufayli ularda amaliy kompetentsiyalarni hosil bo'lishiga imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatullayev N., Omonov H., Mirkomilov Sh. Kimyo o'qitish metodikasi. - Toshkent.: Iqtisod-Moliya, 2013. - 320 b.

2. I.A.Asqarov, M.A.Bahodirova. Kimyodan savol-javob, masala va ulaming yechimlari. Toshkent.: Fafur Fulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. - 379 b.

3. A.G.Муфтахов. Органик кимёдан олимпиада масалалари ва уларнинг ечимлари. Toshkent.: Ўқитувчи, 1997. - 222 б.

4. Д.П.Ерыгин, Е.А.Шишкин Методика решения задач по химии. - Москва: «Просвещение», 1989 - с. 172.

5. Глинка Н.Л. Задачи и упражнения по общей химии. М.Интеграл-Пресс.2006

6. Жуманов А.М., Рахматуллаева Г.М., Сидиқов Д. Эритмаларга доир масалалар ечиш усуллари (услубий қўлланма). Фарғона нашриёти, 2005. - 52.



UZLUKSIZ TA'LIM MUASSASALARIDA O'RTA OSIYO MASHHUR ALLOMALARINING BOY IJTIMOIIY-PEDAGOGIK, MILLIY MA'NAVIIY-MA'RIFIY MEROSLARINI O'RGANISH ISTIQBOLLARI

R. MUSURMONOV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
«Maktab menejmenti» kafedrasi dotsenti, p.f.n.*

M. KELDIYOROV, M. HALIMOVA,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
3-kurs talabarlari*

Maqolada uzluksiz ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarga O'rta Osiyodan uzoq o'tmishda yetishib chiqqan olimu-fuzalolar; allomai-mutafakkirlar ilmiy-ijodiy faoliyatlarini bilan tanishtirish, ularda faxr-iftixor tuyg'ularini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan.

Tayanch so'z va iboralar: *uzluksiz ta'lim, o'quvchi-talabalar; ilmiy-ijodiy faoliyat, faxr-iftixor tuyg'ulari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy pedagogik ta'lim muassasalar; Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar.*

The purpose of the article is to acquaint students of continuous education institutions with the scientific and creative activities of scientists and thinkers of Central Asia, to develop a sense of pride in them.

Key words: *continuous education, students, scientific and creative activity, feelings of pride, general secondary schools, secondary special and higher pedagogical educational institutions, Abu Nasr Farabi, Abu Raikhan Beruni and Abu Ali Ibn Sina.*

Цель статьи – познакомить учащихся учреждений непрерывного образования с научной и творческой деятельностью ученых и мыслителей Центральной Азии, развить у них чувство гордости.

Ключевые слова: *непрерывное образование, студенты, научная и творческая деятельность, чувство гордости, общеобразовательные школы, средние специальные и высшие педагогические учебные заведения, Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни и Абу Али ибн Сина.*

Ma'lumki, O'rta Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalar o'z asarlarida milliy ma'naviyatni yuksaltirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratib, o'zlarining nazariy va amaliy tavsiya va maslahatlarini berganlar. Biz ushbu maqolamizda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarning boy milliy ma'naviy meroslariga murojaat qilamiz. Maqsadimiz uzluksiz ta'lim muassasalarida yoshlar bilan olib borilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarda o'tmishdagi mutafakkirlar



tomonidan yaratilgan asarlar haqida ma'lumotlar berish, faxr-iftixor tuyg'ulari, milliy qadriyatlarini chuqurroq singdirishdan iboratdir. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarga o'tmishdagi mutafakkir vatandoshlarimizning jahon fani rivojiga qo'shgan ulkan hissalarini keng targ'ib etish zarurati mavjud. Chunki har bir millat o'zining o'tmishi bilan faxrlana olsa, ibrat-namunaga arziydigan allomai jahonlari bo'lsa, o'sha millatning kelajagi buyuk bo'ladi.

Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari (873-950) Abu Nasr Forobiy – mashhur olim, qadimgi yunon ilmi va falsafasining sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi. O'rta asr ijtimoiy falsafiy fikr taraqqiyotiga asos solgan mutafakkir. Abu Nasr Forobiy (milodiy 873 yil) da Shosh Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olgan. So'ngra Bog'dodga borib yunon tili, tibbiyot, mantiq, musiqa, tilshunoslik, huquq masalalarini o'rganadi. Forobiy «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak», «Substansiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi. [1]

Forobiy bu asarlarida davlat tuzilishi va uni boshqarish, turli ijtimoiy nizolarning oldini olish hamda kamolatga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi masalalar ustida fikr yuritadi. Yetuk jamoani vujudga keltirish, komil insonni tarbiyalash muammosini hal etish bilan bog'liq ekanligini birinchi bor o'rta asr sharoitida Forobiy olg'a surdi. Uning «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag'ishlangan.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zururligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubiyatlari haqida fikr yuritadi. Uning «Fozil odamlar shahri», «Ixso-al-ilm», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim-degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya-nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rnatishdir, deydi olim. Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Abu Nasr Forobiyning boy ijodi bilan tanishar ekanmiz, uning axloq haqidagi fikrlariga alohida e'tibor berishimiz kerak.



Abu Nasr Forobiyning axloqiylikka bo'lgan qarashlariga asoslangan holda biz axloqiy tarbiya jarayonida axloqiy onglilikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonning o'z mohiyati bilan ijtimoiyligi, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashlari yotadi. Insonning kamolotga yetishishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta'lim va tarbiya usullari hozirga davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiya masalalariga nisbatan qoldirgan boy ma'naviy merosini o'rganish va amaliyotda keng foydalanish milliy qadriyatlarimiz va milliy pedagogikamizning takomillashuviga xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari (973-1048) Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy Muhammad ibn Ahmad al Beruniy X asming ikkinchi yarmi va IX asming boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy davrda yashab ijod etdi. Beruniy (milodiy 973 yil 4 sentyabr) Xorazmning Qiyot (Kot) shahrida dunyoga keldi. Berun so'zining ma'nosi «tashqari» degan ma'noni anglatadi. Sayohatchi Yoqut Hamaviyning aytishicha, vatanidan tashqariga ketgan har bir kishini xorazmliklar «Beruniy» laqabi bilan atashgan. «Abu Rayhon» esa «marhamatli», «rahmdil» degan ma'noni anglatadi. [3]

Ma'mun akademiyasidagi ko'plab olimlar qatori Beruniy ham G'aznaga olib ketiladi va u yerda ko'p qiyinchiliklar bilan o'z ijodini davom ettiradi. Beruniy bu yerda o'zining «Xorazmning mashxur kishilari», «Geodeziya» asarini yaratadi. Bu asarda geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qaorda paleontologik kuzatishlarning natijalari ham bayon qilingan.

Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar»dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha, ma'lumotlar bergan. Ma'lumki, Mahmud G'aznaviy Hindistonga qarshi bosqinchilik urushlarini olib borgan. Mana shu yurishlarning birida Beruniy ham Mahmud G'aznaviyga hamrox bo'lib boradi. U sankrit (eski hind tili) ni bilganligi uchun hind xalqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga zga bo'ladi va bu mehnatlari natijasida 1030 yilda o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Hindiston» asarini yaratadi.

Kitobning to'liq nomi «Kitobu fi tahqiqi molil Hind min ma'qulatin maqbulatin



fil aqli av marzulatin», ya'ni «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi» bo'lib, aytishga qulay bo'lishi uchun qisqacha – «Taxqiqu mo-mil hind» – («Hindistonga oid tadqiqqlar» yoki Hindiston») deb yuritiladi.[4]

Asarda Beruniyning Hindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan. O'sha yili (1030) Maxmud G'aznaviy vafot etadi. Uning kichik o'g'li Muhammad voris sifatida taxtga o'tirgan bo'lsada, ko'p o'tmay Mahmudning katta o'g'li Mas'ud (1030-1041) ukasini taxtdan ag'darib, o'zi hokimiyatni qo'lga oladi. Bilimdon va zukko, ilm ahlini qadrllovchi Mas'ud Beruniyning o'z himoyasiga olib, uning ijod qilishiga sharoit yaratib beradi.

Beruniy astronomiyaga oid «al-Qonun al-Mas'udiy» («Mas'ud (qonuni)» nomli yirik asarini shoh Mas'udga bag'ishlaydi. Olimlar bu asarni matematika va astronomiyaga oid ungacha yozilgan barcha asarlardan yuqori qo'yadilar. Beruniy yana «qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami» («Mineralogiya»), «Dorivor o'simliklar haqida kitob» («Kitob as-saydona fi-t-tibb») kabi asarlarni ham yozadi.

Ba'zi manbalarda esa uning vafotining sanasi 1048 yil 13 dekabr deb ko'rsatiladi. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda: – o'quvchini zeriktirmaslik; – bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik; – uzviylik, izchillik; – yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiriladi. Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi.

Abu Rayhon Beruniyning dunyoqarashi juda ko'p qirrali deb bejiz aytilmaydi. Uning faoliyatini quyidagi tarmoqlarga ajratish mumkin: 1. Tabiiy fanlarni o'rganish.

2. Ijtimoiy qonuniyatlarni o'rganish.

3. Inson ruhiyatini o'rganish.

Beruniy o'zining dastlabki asarlaridan bo'lmish «Yodgorliklar»da quyosh, quyosh nurlari, yerning harakati haqida fikr yuritardi. Yer tog'lar, cho'llar, ularning paydo bo'lishi, daryolar, dengizlar, foydali qazilmalar, ma'danlar va ularning xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Ushbu ma'lumotlar tabiat boyliklaridan, jumladan turli xil foydali qazilmalardan foydalanish masalasiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda xom-ashyo zaxiralarini topish, ularni qayta ishlash iqtisodiy masalalar doirasining markaziy o'rnidan joy olgan.



Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari (980-1037) Sharqda «Shayx ar-Rayis» nomi bilan mashhur boʻlgan allomalardan biri, oʻrta asrning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino oʻrta Osiyo madaniyati va ilm-fanning rivojiga katta hissa qoʻshdi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino oʻz bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirganki, oʻsha paytda shu qadar bilimga ega boʻlgan boshqa biron kishini topish mushkul boʻlgan. Abu Ali ibn Sinoning fan va madaniyat taraqqiyotiga qoʻshgan buyuk hissasi uchun ham Sharqda unga «Shayx-Urays» (Olimlar boshligʻi), Yevropada «Olimlar podshosi» degan faxrli unvon berdilar.

IX asr oxiri – X asr boshlariga kelib, oʻlkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. Shu tufayli ibn Sino Xorazmga – Urganchga koʻchib oʻtadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Maʼmun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shugʻullana boshlaydi. Xorazmda oʻzining yirik asarlari – «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitobi ustida ish olib boradi.

Ibn Sino oʻz davrida bolalarni oʻqitish, ularga taʼlim-tarbiya berish xususida aniq tavsiyalarni bergan. Allomaning fikricha, bolalarni yakka holda emas, balki guruh-guruh qilib oʻqitish yaxshi samara berishini taʼkidlaydi. Bolalar qoʻshib oʻqitilsa, bir-birlari bilan musobaqalashadilar, ijtimoiylashuv jarayonlari tezlashadi, nutqi rivojlanadi, oʻzaro munosabatlar tarkib topadi, doʻstlashadilar va bir-birlariga yordam berish, qoʻllab-quvvatlash paydo boʻladi, kamchilik va nuqsonlarini bir-birlaridan oʻrnak olib tuzatadilar, deydi.

Hozirgi zamon tilida anʼanaviy «sinf – dars» tizimini yaratish tavsiyasini beradi. Holbuki, «sinf – dars» anʼanaviy taʼlim shakli XVII asrda yashagan chech pedagogi Yan Amos Komenskiy nomi bilan fanga kiritilgan. Oʻquvchi-talabalarga ana shunday axborotlarni oʻz vaqtida yetkazish orqali ularda vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ilm-fanga boʻlgan ijobiy munosabatlarni shakllantirish mumkin boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. M.M.Xayrullayev. Toshkent. «Fan», 1975 - 71-72 bet.
2. Ahmedov A. Beruniy va uning «Geodeziya»si haqida. Beruniy. Tanlangan asarlar. 3-tom, «Fan», 1982, 21.
3. K.Xoshimov, S.Nishonova, M.Inomova va boshqalar. Pedagogika tarixi. T.: «Oʻqituvchi», 1996. - 90-91 betlar.
4. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino taʼlim va tarbiya haqida. T., «Oʻqituvchi», 1967, -75 bet.



TA'LIMNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR TAYYORLASH JARAYONINING UZVIYLIGI

R.SH.BERDIQULOV,

TDPU, Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, PhD

Mazkur maqola bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlar, o'qituvchilar tayyorlash sohasidagi mavjud muammolar va ularni xalq etish yuzasidan ko'rilayotgan choralar, jumladan, pedagogik amaliyot masalasida mulohazalar bildirilgan va amalga oshirilgan ishlar yoritilgan.

***Tayanch so'zlar:** ta'lim, pedagogik amaliyot, modernizatsiya, «4+2», ta'limdagi islohotlar*

В данной статье освещены проводимые на сегодняшний день реформы в системе образования нашей страны, существующие проблемы в сфере подготовки учителей и принимаемые меры по их решению, в том числе в вопросах педагогической практики.

***Ключевые слова:** образование, педагогическая практика, модернизация, «4+2», образовательные реформы.*

This article highlights the ongoing reforms in the education system of our country, the existing problems in the field of teacher training and the measures taken to solve them, including in matters of pedagogical practice.

***Key words:** education, pedagogical practice, modernization, «4+2», educational reforms.*

Mamlakatimizda XI yillik ta'limga o'tish, professional ta'lim muassasalarini tashkil etish, yangi klassifikatorlar, o'quv reja va dasturlar yaratishning meyoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi hamda o'qitishning zaruriy yangi moddiy-texnik negizi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PQ-4947-son, 2019 yil 8 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi «2022 - 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida» PF-134-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-289-son qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli



boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ta'limni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Mavjud vaziyat

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O'z navbatida, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz».

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalari(OTM)dagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadqiq qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Bugungacha ta'lim va tarbiya sohasida juda ko'p ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va bu cheksizlik qadar davom etadi. Mavjudlari takomillashtiriladi, yangilari vujudga keladi. Olib borilgan tadqiqot ishlari o'z o'rinda samarali yakunlangan va aprobatsiyadan o'tib, ta'lim sohasini rivojlanishiga o'z xissasini qo'shgan.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishda nazariy ta'lim berish uchun barcha imkoniyatlarimiz bor va u yuqori darajada amalga oshirib kelinmoqda. Eng so'nggi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan auditoriyalarda metodik jixatdan mutlaq qurollangan professor-o'qituvchilar tarkibi o'quv mashg'ulotlarini yuqori saviyada olib borishmoqda.

Shu o'rinda Prezidentimizning 2022 yil 11 maydagi «2022 - 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi PF-134-son farmoni hamda 2022 yil 6 iyundagi «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-289 son qarorida «2022/2023 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat pedagogika universitetining kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2 – 4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash» vazifasi amaliyotni yangi bosqichga olib chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'rganish va tajriba (pedagogik tajriba



orttirish) boshqa xar qaysi oliy o‘quv yurtinikidan oldingi o‘rindagi muammo sifatida qaralishi va uning yechimini kechiktirilmaz vazifa sifatida hal qilish choralarini ko‘rishimiz lozimligini bildiradi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida mazkur farmon va qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan,

– universitetning amaldagi yuqori kurslarining o‘quv rejaları qayta ko‘rib chiqildi va 2-, 3-, 4-kurs talabalarining 4kun nazariy ta‘lim olishlari hamda xaftaning 2 kunida bevosita amaliyotda bo‘lishlarini ta‘minlovchi o‘quv rejalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

– joriy yilning iyun-avgust oylarida Toshkent shahrida joylashgan 250 dan ortiq umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bilan «4+2» tartibni nazarda tutuvchi hamkorlik shartnomalari imzolandi.

– universitetning amaliyot bo‘limi koordinatorligidagi kafedralarning professor-o‘qituvchilari va umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida faoliyat olib boradigan ilg‘or o‘qituvchilar ishtirokida amaliyot dasturlari qayta ko‘rib chiqildi. Dasturlarni mazmuni va undagi vazifalarda asosiy parametrlar quidagicha belgilab olindi: 2-kurslarning amaliyoti kuzatish va tanishuv xarakterida bo‘lib, moslashuv jarayoni ta‘minlashi, 3-kurslarning amaliyoti ko‘nikish, o‘rganish, mustaxkamlash funksiyalarini amalga oshirib amaliyotchi-talabalar sinov darslarini o‘tishlarini ta‘minlashi, 4-kurslarning amaliyoti stajyor o‘qituvchi maqomida o‘tishini ta‘minlashiga qaratildi. Amaliyot dasturidagi topshiriq va vazifalar differensial yondashuv asosida tuzib chiqildi. Topshiriq va vazifalarni nazorat qilishda xam integratsion yondashuv qo‘llanildi. Jumladan, bevosita maktab rahbariyati va maktabdagi metodist tomonidan nazoratga olinadigan, OTMdagi metodist tomonidan nazoratga olinadigan topshiriqlar ajratib ko‘rsatildi. Topshiriqlar bajarilishini baholashda maktab metodisti 20 ball, OTM metodisti 60 ball va yakunda hisobot himoyasi uchun 20 ball ajratib ko‘rsatildi.

– talabalarini amaliyot kunlari kurslar kesimida bitta ta‘lim yo‘nalishida kesishmaydigan tartibda ishlab chiqildi. Dars jadvali va amaliyot kunlarini belgilashda talabalarining amaliyotga borishi-kelishini xam inobatga olghan xolda tuzildi. Jumladan, 3- xamda 4-kurslarning aksariyati o‘rindoshlik asosida ishga kirishlarini inobatga olghan xolda xafta boshlanishi yoki yakunlanish vaqtlari ko‘ra belgilandi. Masalan, Kimyo ta‘lim yo‘nalishi talabalarining 3-kurs talabalari Dushanba kuni, 2-kurs talabalari payshanba kuni va 4-kurs talabalari juma, shanba



kunlariga belgilandi. Bu bilan ishlaydigan talabalarga xam imkoniyatlar yaratildi.

– amaliyotchilarni bevosita qo‘llab quvvatlash maqsadida universitet va amaliyot obyektidan metodistlar birlashtirilishi yo‘lga qo‘yildi.

– Universitetdan amaliyotga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasini belgilashda vaqt meyorlariga qat‘iy amal qilgan xolda belgilandi. Bunda 4+2 tartibdagi amaliyotlar yillik amaliyot xaftaliklarini xisoblagan xolda xisoblab chiqildi.

– o‘quv yili boshida tajriba sinov tariqasida bosqichma-bosqich, ta‘lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda tashkil etila boshlandi. Jumladan, 5 sentyabrdan boshlab Psixologiya ta‘lim yo‘nalishining 2-3-kurslari, 12 sentabrdan 3 yillik ta‘lim yo‘nalishlarining yuqori kurs talabalari amaliyotga chiqarildi. Oktabr oyidan boshlab 4 yillik ta‘lim yo‘nalishlarining yuqori kurs talabalari amaliyot o‘tash uchun yuborildi.

– 2022/2023 o‘quv yilida xalq ta‘limi tizimidagi mavjud vakansiya joylariga hududiy Xalq ta‘lim boshqarmalarining so‘rovnomalari asosan yuqori kurs talabalari o‘rindoshlik asosida ishlashlari yo‘lga qo‘yildi. Bunda talabalar individual amaliyot o‘tashlari amalga oshirilmoqda. Ularga maktabdagi metod birlashtirmalar va OTMdagi metodistlar tomonidan amaliy metodik yordam ko‘rsatilmogda. 4+2 tartibning yana bir qulayligi shundaki amaliyotchi amaliyot davrida OTM dagi professor-o‘qituvchilaridan uzilmagan xolda nazariy o‘qish kunlarida o‘z muammolariga yetarlicha yechim olishlari ta‘minlanmogda.

– amaliyotni sifatli va o‘z o‘rnida o‘tkazilishini nazorat va monitoring qilish maqsadida universiteting amaliyot bo‘limi, o‘quv bo‘limi, ichki nazorat, ta‘lim inspeksiyasi, kompleans-nazorat bo‘limi, jamoatchilik asosida tashkil qilingan ishchi guruxlar jalb etildi. O‘rganish natijalari tezkorlik bilan muxokamadani o‘tkazilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha qo‘shimcha topshiriq va ko‘rsatmalar berib borilmogda. Shuningdek, amaliyotchi talabalarining dasturda belgilangan vazifalarni bajarilishini monitoring-nazorat qilish, tezkor taxliliy ma‘lumotlar olish, amaliyotchi talabalarga bazaviy-metodik yordam olishlari uchun amaliyot.tdpu.uz elektron platformasi joriy etilgan bo‘lib, bu tizim universitetda avvaldan yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 4 yildan buyon muvafaqqiyatli ishlab kelmogda.

Xulosa. Universitetimizda nazariy ta‘limni amalga oshirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlar mavjud. Lekin amaliyot masalasida yetarli darajada axamiyat berish kerak. Yuqorida keltirilgan sxema bo‘yicha modernizatsiyalangan ta‘lim muassasasi tashkil qilinsa, bir vaqtning o‘zida xam passiv amaliyot va faol amaliyot



yuqori darajaga ko‘tariladi. Natijada egallanayotgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish ko‘nikmasi rivojlanib boradi.

Talabalarning 4+2 tartibdagi amaliyoti 2 kursdan boshlab kelajakdagi kasbiy faoliyat obyektlarida amalga oshiriladi. Bunda ta‘lim muassasasining meyoriy hujjatlari, rahbariyat va o‘qituvchining ish yuritish faoliyati kuzatiladi, o‘rganiladi. Bundan tashqari, talabalar maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotida professor-o‘qituvchilarning faoliyatini kuzatish yo‘li bilan amalga oshirishadi va egallangan bilim, ko‘nikmalar malakaga aylanadi va uquvli, mahoratli pedagogik kadr holatiga kelishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi «2022 - 2026 yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida» PF-134-son Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi «Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-289-son qarori

3. Hakimova M. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot // Arxiv nauchnix issledovaniy. - 2020. - №. 32.

4. Qodirova Z. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy pedagogik amaliyotni tashqil qilish texnologiyasi // Science and Education. - 2021. - T. 2. - №. 6. - S. 564-568.

5. Berdikulov R. S. Developmental factor of chemical thinking of future chemistry teachers // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - 2020. - T. 2020.

6. Berdikulov R. S. DEDUCTION OF CHEMICAL THOUGHT // European Research. - 2017. - №. 5. - S. 62-68.

7. Shernazarov I. E., Abdukadirov A. A. Information technology usage methods in expressing components in organic chemistry course // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). - 2018. - T. 7. - №. 9. - S. 453-460.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA HUQUQIY FANLARNI O'QITISHDA TABAQALASHGAN YONDASHUV

G.S.OMAROVA,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Har qanday ilmiy muammo o'ziga xos kategoriya va konsepsiyasi mavzusida bo'lib, nafaqat mohiyati, obykti, mazmunini hosil qiladi, g'oyani ifodalaydi balki tadqiqot muammosini shakllantirishi va uni hal qilishi eng samarali usullarni tanlash imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, huquqiy ta'lim, huquqiy ong, mehnat huquqi, ta'lim usullari, vizual, eshitish, yozish va o'qish, kinestetik, mantiqiy, sotsial uslublar.*

Any scientific problem is the subject of its own category and concept, which not only forms its essence, object, content, expresses an idea, but also gives the opportunity to choose the most effective methods of forming a research problem and solving it.

Key words: *continuing education, legal education, legal consciousness, labor law, educational methods, visual, auditory, writing and reading, kinesthetic, logical, social methods.*

Ta'limning uzluksizligi o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkablikka qarab rivojlanadigan va bir-birini to'ldiruvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimiga aytiladi. Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillaridan biri ta'limni demokratlashuvi – ta'lim-tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi.

Huquqiy tarbiya fuqarolik jamiyatining fundamental asoslaridan bo'lib, germeneytik yondashadigan bo'lsak uzluksiz ta'lim inson uchun butun hayoti davomida egallaydigan ta'lim ekanligi fanda ma'lum. Huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat ildizlari muqaddas dinimiz, buyuk donishmandlar va mutafakkirlar ijod mahsullarida mavjud. Ta'lim muassasalarida huquqiy bilimlarning samaradorligini oshirish maqsadida o'rganish uchun bir necha o'rganish uslublari va intellektlardan foydalanish nisbatan yangi yondashuvdir. Ushbu yondashuv o'qituvchilar tomonidan yaqinda tan olingan. An'anaviy ta'lim tizimida asosan lingvistik va mantiqiy o'qitish usullari qo'llaniladi. Shuningdek, u o'rganish va o'qitish usullarining cheklangan doirasini qo'llaydi. Ko'pgina ta'lim muassasalari hali ham sinf va kitobga asoslangan o'qitishga, ko'p takrorlashga va mustahkamlashga va ko'p ko'rib chiqish uchun bosimli imtihonlarga tayanadi.

Taqdim etilayotgan ta'lim uslublarini huquqiy fanlar o'qitishda qo'llash orqali tasniflaymiz.



Yetti ta'lim uslubi:

- Vizual(fazoviy): siz rasmlar, tasvirlar va fazoviy tushunishdan foydalanishni afzal ko'rasiz;
- Aural(eshitish va musiqiy): siz ovoz va musiqadan foydalanishni afzal ko'rasiz;
- jismoniy(kinestetik): siz tanangiz, qo'llaringiz va teginish hiss idan foydalanishni afzal ko'rasiz;
- Mantiqiy(matematik): Siz mantiq, fikrlash va tizimlardan foydalanishni afzal ko'rasiz;
- Ijtimoiy(shaxslararo): Siz guruhlarda yoki boshqa odamlar bilan o'rganishni afzal ko'rasiz;
- Yakka(intrapersonal): Siz yolg'iz ishlashni va mustaqil o'rganishni afzal ko'rasiz.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir o'rganish uslubi miyaning turli qismlaridan foydalanadi. Ta'lim jarayonida miyani ko'proq jalb qilish orqali biz o'rgangan narsalarimizni ko'proq eslaymiz. Miyani tasvirlash texnologiyalardan foydalangan holda tadqiqotchilar har bir o'rganish uslubi uchun mas'ul bo'lgan miyaning assosiy sohalarini aniqlashga muvaffaq bo'lishdi.

– Vizual: miyaning orqa qismidagi oksipal loblar vizual tuyg'uni boshqaradi. Oksipal va parietal loblar fazoviy yo'nalishni boshqaradi.

– Eshitish: temporal loblar eshitish tarkibini boshqaradi. To'g'ri temporal lob musiqa uchun ayniqsa muhimdir.

– Og'zaki: temporal va frontal loblar, ayniqsa ikkita ixtisoslashgan sohalar (bu ikki lobning chap yarim sharlari).


– Jismoniy: Serebellum va motor korteksi(frontal lobning o'rta qismida) bizning jismoniy harakatimizning ko'p qismini boshqaradi.

– Mantiqiy: Parietal loblar, ayniqsa chap tomon, bizning mantiqiy fikrlashni boshqaradi.


– Ijtimoiy: Frontal va temporal loblar bizning bizning ijtimoiy faoliyatimizning ko'p ko'p qismini boshqaradi. Limbik tizim(gippokampusdan tashqari ko'rsatilmagan) ham ijtimoiy, ham yolg'izlik uslublariga ta'sir qiladi. Limbik tizim hissiyotlar, kayfiyat va tajavuzkorlik bilan bog'liq.

– Soliter: Frontal va parietal loblar va limbik tizim ham ushbu bilan faoldir.

Masalan, mehnat shartnomasini tuzish jarayonini quyidagicha taqdim qilish mumkin:



O'zbekiston Respublikasining o'n olti yoshga to'lgan har bir fuqarosi mehnat qilish huquqiga ega bo'lib, quyidagi talablarga ega bo'ladi:




Mehnat qonunchiligiga binoan ishga qabul qilishni qayriqonuniy ravishda rad etishga yo'l qo'yilmaydi, bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning asossiz ishga qabul qilmaslik, ish beruvchi tomonidan tavsiya etilgan shaxsni rad etish, muqaddam sudlangan yoki yaqin qarindoshlari sudlanganligi munosabati bilan ishga qabul qilmaslik mumkin emas. Agar ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda ish beruvchi uch kun ichida asosli sabablari ko'rsatilgan yozma javob berishi shart.

Mehnat munosabatlarida nepatizm va kronizmga yo'l quyilmaydi.

Ishga qabul qilish vaqtida shaxslar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:



Dastlabki sinov belgilanmaydigan holatlar:



Dastlabki sinov muddatini xodim to'la o'tashi lozim bo'lib, uzrli sabablarga ko'ra ishdan ozod etilgan va vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz davrlar dastlabki sinov muddatiga kiritilmadi. Dastlabki sinov muddati uch oydan oshib ketmasligi lozim. Dastlabki sinov natijalariga qarab taraflar muddat tugashidan uch kun avval yozma ravishda ogohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2022 y.// <https://lex.uz/docs/6257288>
2. Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. -T.: Moliya, 2002. 279 b.
3. Usmanova M.A., Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. -T.: TDYUI, 2006 y.
4. Usmanova M., Tursunov YU. Mehnat shartnomasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDYUI, 2007.



FAN OLIMPIADALARIDA FOYDALANILADIGAN MASALALAR YECHISH JARAYONIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

S.I.ZAYNIYEV,

*TDPU Biologiya va uni o'qitish
metodikasi kafedra o'qituvchisi*

Ushbu maqolada biologiyadan olimpiada masalalariga oid ma'lumotlar berilgan. Bayon etilayotgan ma'lumotlar energiya almashinuvi va nuklein kislotalar mavzularini o'qitishda foydalaniladigan asosiy tushunchalarni kimyo hamda fizika fanlarida qo'llaniladigan tushunchalar bilan bog'lab o'qitishda olimpiada masalalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan.

Tayanch iboralar: olimpiada, DNK, glukoza, fotosintez, moddalar almashinuvi, yog', oqsil, uglevod, biologiya, kimyo, masala, mashq.

В данной статье представлена информация по олимпиадным вопросам по биологии. Представленная информация направлена на совершенствование методики использования олимпиадных задач в обучении путем соединения основных понятий, используемых при обучении тем энергетического обмена и нуклеиновых кислот, с понятиями, используемыми в химии и физике.

Ключевые слова: олимпиада, ДНК, глюкоза, фотосинтез, обмен веществ, жир, белок, углевод, биология, химия, задача, упражнение.

This article provides information on Olympiad questions in biology. The presented information is aimed at improving the methodology for using Olympiad problems in education by combining the basic concepts used in teaching energy metabolism and nucleic acids with the concepts used in chemistry and physics.

Key words: olympiad, DNA, glucose, photosynthesis, metabolism, fat, protein, carbohydrate, biology, chemistry, problem, exercise.

Uzluksiz ta'limda olimpiadalar umumta'lim maktablarida, akademik litseyda, professional ta'limda o'quvchilar o'rtasida, hamda Oliy o'quv yurtlarida talabalar o'rtasida o'tkaziladi. Maktab, akademik litsey va professional ta'lim o'quvchilari olimpiadalarning Respublika bosqichlarida g'oliblikni (1-3 o'rinlar) qo'lga kiritmalar, uzluksiz ta'limni davom ettirish maqsadida g'olib bo'lgan fanlariga mos ravishda Oliy ta'lim muassasalariga grant asosida o'qishga qabul qilinadi.

Olimpiada masalalari tanlash va yechish jarayoni – bu olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida uchraydigan ilmiy muammolarning bir turidir.

Olimpiadaning turli bosqichlari uchun masalalar qiyinlik darajasi bilan sezilarli darajada farq qiladi. O'quvchilardan biologik qonunlar va hodisalarni amalda



qo‘llashga doir kreativ ko‘nikmalarni, rivojlangan assotsiativ fikrlashni talab qiladigan qiyin masalalar olimpiadaning yakunlovchi bosqichlarida berish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, faqat puxta tayyorgarlik ko‘rgan, fikrlash darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar va talabalar yakuniy bosqich vazifalarini to‘liq bajara oladilar. Olimpiada masalalarini fan dasturi doirasidan chiqmaydigan bilim va ko‘nikmalar asosida tuzish lozim. Masalani yechish odatda, murakkab va noqulay hisob-kitoblarni talab qilmaydi, asosiy e‘tibor masalalarning biologik mazmuniga qaratiladi [2].

Fan olimpiadasiga masalalar tanlash mezonlari bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar mavjud emas bunda ma‘suliyat olimpiada tashkilotchilari zimmasiga tushadi.

Masalalarning qiyinlik darajasi fan olimpiadasining nechanchi bosqichi tashkil etilayotgani va qatnashuvchilarning yoshi va psixologik tayyorgarligiga qarab tanlanadi. Respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiada masalalarining quyi boshqich olimpiada masalalaridan asosiy farqlaridan biri masala shartining bir nechta bosqichdan iborat bo‘lishi, hamda topilishi kerak bo‘lgan noma‘lum kattaliklarning ko‘pligi hisoblanadi.

Mantiqiy masalalar o‘quvchi va talabalarning tafakkurini shakllantirishda o‘ta muhim hodisadir. Olimpiada masalalarni yechish o‘quvchi va talabalarda umumiy xulosadan aniq dalillarga o‘tish ko‘nikmasini hosil qilishga yordam beradi. Masalalarni yechish orqali fikrlashga va o‘z xulosalarini asoslab berishga ham o‘rganib oladilar. Olimpiada masalalari o‘quvchi va talabalarda sabr-toqat, iroda, qat‘iylilik kabi insoniy fazilatlarining shakllanishiga zamin yaratadi [3].

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan biologik bilimlarni egallashda eng samarali usullardan biri masala va mashqlardan foydalangan holda mavzu mazmunini yoritib berishdir. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda masalalarni amaliy ahamiyati nihoyatda kattadir. Biologik ta‘limning samaradorligini oshirishda va o‘quvchi ma‘lum darajada o‘z oldiga qo‘ygan biologik maqsadlarga erishishda, matematik savodxonligini oshirishda masalalar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shuning uchun biologiya darslarida ko‘proq masalalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish va ulardan foydalanish usullaridan ishlab chiqish biologiya o‘qitish metodikasining dolzarb vazifalaridan biri sifatida ilgari suriladi.

Masala yechishda fikrlar aniq ma‘lumotlarga yo‘naltirilgan, nostandart umumlashtirishlarga yo‘l qo‘yilmagan holda, masalada berilgan faktlarni to‘liq qamrab olishni talab etilishi, standartlarga to‘liq e‘tibor berish talab etiladi. Biologik masalalarni yechish davomida o‘quvchilarda o‘ziga xos fikrlash qobiliyati: ana‘naviy fikrlash sxemasidan farq qiladigan fikrlar bayoni, fikrlarni sharhlash, belgilar aniqligi, fikrlash davomida fikrlarni aniq bo‘laklarga bo‘lib fikrlash shakllantiriladi [4].



Quyida Respublika va tuman fan olimpiadalarida biologiya fanidan o'quvchilarga berilgan masala va mashqlarni yechish metodikasi bilan tanishsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-Masala. Ma'lum sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNK molekulasi Eco.RI restriktaza fermenti ta'sirida ABC bo'lakka bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK molekulasidagi vodorod bog'lar soni dastlabki vodorod bog'lar sonidan 2% ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan DNK molekulasidagi A-T orasidagi vodorod bog'lar sonini toping [5].

Masalaning yechimi:

1) $110,5:0,34 = 325$ ta nukleotid (DNK ning 1 ta zanjirida)

2) $325 \times 2 = 650$ ta nukleotid (DNK ning qo'sh zanjirida)

3) Eco.RI restriktaza fermenti 1 marotaba kesganda jami 10 ta bog' kesadi, shundan 2 tasi fosfodiefer va 8 tasi vodorod (H) bog'i.

4) ABC bo'lakka bo'lish uchun 2 ta joyidan kesish kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqib,

1 ta kesganda ——— 8 ta H bog'

2 ta kesganda ——— x ta.

5) 16 ta H bog' ——— 2 %

x ta H bog' ——— 100 %

6) A - x, T - x deb olsak, AT = 2x bo'ladi.

G - y, S - y deb olsak, GS = 2y bo'ladi.

7) A va T o'rtasidagi vodorod bog'larni 2x, G va S orasidagi vodorod bog'larni 3y deb olsak quyidagi tenglama hosil bo'ladi.

$$2x + 2y = 650$$

$$2x + 3y = 800$$

$$y = 150 \text{ ta G, } 150 \text{ ta S}$$

8) $150 + 150 = 300$ ta G va S

9) $650 - 300 = 350$ ta A va T

10) $350 : 2 = 175$ ta A, 175 ta T

11) $175 \times 2 = 350$ ta vodorod bog' bor A va T orasida (dastlabki DNK da)

12) Eco.RI restriktaza fermenti 2 marotaba kesganda A va T orasidagi 16 ta vodorod bog'ni kesgandi.

13) $350 - 16 = 334$ ta vodorod bog'bor hosil bo'lgan DNK molekulasidagi A va T orasida

Javob: Hosil bo'lgan DNK molekulasidagi A va T orasida 334 ta H bog'i mavjud.



2-Masala. Nazariy jihatdan o‘simliklardagi energetik almashinuvda 7 molekula glukoza to‘liq va to‘liqsiz parchalanganda 122 molekula ATF hosil bo‘ldi. To‘liq parchalangan glukozani xloroplastda sintezlash uchun necha molekula ATF kerak bo‘ladi?

Masalaning yechimi:

1) To‘liqsiz parchalangan glukozani x mol


To‘liq parchalangan glukozani y mol deb olsak,

$$\begin{array}{l} 2) \text{ 1 mol glukoza to‘liqsiz parchalansa} \quad \text{---} 2 \text{ mol ATF} \\ \text{x mol glukoza to‘liqsiz parchalansa} \quad \text{---} a \text{ mol ATF} \\ 3) \text{ 1 mol glukoza to‘liq parchalansa} \quad \text{---} 38 \text{ mol ATF} \\ \text{y mol glukoza to‘liq parchalansa} \quad \text{---} a \text{ mol ATF} \end{array} \quad \left| \begin{array}{l} a = 2x \text{ mol ATF} \\ a = 38y \text{ mol ATF} \end{array} \right.$$

$$\begin{array}{l} 4) \text{ x + y = 7} \\ 2x + 38y = 122 \\ 2x + 2y = 14 \\ \hline 2x + 38y = 122 \\ \quad \quad \quad -36y = -108 \end{array} \quad \left| \begin{array}{l} 2 \\ \\ \\ \end{array} \right.$$

y = 3 mol glukoza to‘liq parchalangan.

5) Fotosintezning qorong‘ilik bosqichida 18 mol ATF dan 1 mol glukoza sintezlanadi va quyidagi reaksiya tenglamasi hosil bo‘ladi.



$$\begin{array}{l} 6) \text{ 18 mol ATF} \quad \text{---} 1 \text{ mol glukoza} \\ \text{x mol ATF} \quad \text{---} 3 \text{ mol glukoza} \end{array} \quad \left| \begin{array}{l} \\ x = 54 \text{ mol ATF} \end{array} \right.$$

Javob: To‘liq parchalangan glukozani xloroplastda sintezlash uchun 54 molekula ATF kerak bo‘ladi.

3-Masala. DNK fragmenti tarkibida jami 960 ta vodorod bog‘i mavjud. Adenin va timin orasidagi vodorod bog‘lar soni guanin va sitozin orasidagi vodorod bog‘lari soniga nisbati mos ravishda 1:1,5. Agar shu DNK tarkibidagi nukleotidlarning 25%i mutatsiyaga uchrab yo‘qolsa, DNK tarkibidagi mutatsiyadan keyingi nukleotidlar sonini nechtaga kamaygan?

Masalaning yechimi:

1) Adenin va timin orasidagi vodorod bog‘lar soni guanin va sitozin orasidagi vodorod bog‘lari soniga nisbati 1:1,5 bo‘lganligini hisobga olib,

$$\begin{array}{l} 960 \text{ ta vodorod bog‘} \quad \text{---} 2,5 \\ \text{x ta vodorod bog‘} \quad \text{---} 1 \\ \text{y ta vodorod bog‘} \quad \text{---} 1,5 \end{array} \quad \left| \begin{array}{l} \\ x = 384 \text{ ta vodorod bog‘ A va T orasida} \\ y = 576 \text{ ta vodorod bog‘ G va S orasida} \end{array} \right.$$



2) A va T nukleotidlari orasida 2 ta vodorod bog‘ bo‘lganligi uchun, 384 ni 2 ga bo‘lamiz,

$384 : 2 = 192$ ta A, 192 ta T nukleotidlari bor.

3) G va S nukleotidlari orasida 3 ta vodorod bog‘ bo‘lganligi uchun, 576 ni 3 ga bo‘lamiz,

$576 : 3 = 192$ ta G, 192 ta S nukleotidlari bor.

4) DNK tarkibidagi barcha nukleotidlarni qo‘shib chiqamiz.

$192 + 192 + 192 + 192 = 768$ ta nukleotid bor DNK molekulasida,

5) 768 ta nukleotid — 100 %
x ta nukleotid — 25 % | x = 192 ta nukleotid mutatsiyaga uchragan.

Javob: DNK tarkibidagi nukleotidlar soni mutatsiyadan keyin 192 ta kamaygan.

Xulosa. Yuqoridagi ko‘rinishdagi modda va energiya almashinuvi, nuklein kislotalar, oqsillar biosintezi bo‘yicha masalalarni o‘quvchi va talabalarga berilsa, masalani yechish jarayonida izlanadi, turli manbalarga murojaat qiladi, hamda ijodiy fikrlaydi. Natijada ularning fikrlash qobiliyatlarini kengayadi, bilim saviyasi ortadi, hamda fanga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi. Zero har bir o‘qituvchining vazifasi va maqsadi yosh avlodni layoqati, qobiliyati, iqtidorini aniqlash, ochish va ularning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.

2. Zayniyev S.I. Fan olimpiadalarining tashkil etish mazmuni, tahlili va ta’lim tarbiyadagi o‘rni // International scientific journal volume 1 issue 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 229-234 c.

3. Zayniyev S.I. Olimpiada tashkil etishning metodik asoslari // O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022, [1/12] ISSN 2181-7324: 64-66 c.

4. Zayniyev S.I. O‘quvchilarni masala va mashqlar yechish orqali olimpiadaga tayyorlashni ayrim jihatlari // «Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2022: 200-202 c.

5. G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov. «Biologiyadan masala va mashqlar yechish» (Sitologiya va genetika asoslari) o‘quv qo‘llanma. Toshkent - 2020 yil.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA DIDAKTIK QADRIYATLAR VA ULARGAN FOYDALANISH

I.TO'YCHIYEVA,

Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika kafedrasini mudiri
P.f.b.f. d. (PhD), dotsent

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridandir. Mazkur maqolada didaktik qadriyatlar bilan bog'liq muammolarni o'rganish va mohiyatan uni aniqlash masalalariga innovatsion yondashilgan.

Kalit so'zlar: uzluksizligi va uzviylikni ta'minlash, ta'limning mazmuni, vositalari, shakl va usullari, yoshlarga bilim berish, ma'rifatdan bahramand etish, didaktik qadriyatlar.

In modern pedagogy, didactics is considered as a separate field dealing with the theory of education and enlightenment. Determining the content of education, discovering the laws of the educational process, and finding the most effective methods and ways of teaching are among the main problems of didactics. In this article, an innovative approach to the study of problems related to didactic values and its definition is presented.

Key words: ensuring continuity and integrity, content, means, forms and methods of education, imparting knowledge to young people, enjoying enlightenment, didactic values.

Ta'limning uzluksizligi va uzviylikni ta'minlash ta'lim islohotini amalga oshirishning eng dolzarb masalalari jumlasiga kiradi. Bu ta'limning mazmuni, vositalari, shakl va usullariga bevosita taalluqli bo'lib, mazkur sohadagi bilimlarni o'rganish didaktikaning tadqiqot obyektidir. Ta'lim jarayonini o'tmishda yaratilgan, insoniyatning eng oqil vakillari tomonidan ishlab chiqilgan, xalqimizning boy ijodiy pedagogik tajribalaridan oziq olgan ta'limiy qadriyatlari bilan boyitish zamonaviy ta'lim bosqichlari o'rtasidagina emas, balki eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunga qadar ta'lim sohasida amal qilgan boy tajribalar, amaliy g'oyalardan foydalanish, o'tmish allomalarimiz va ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan taqdim etilgan, asrlar sinovidan o'tgan, xalqimizning azaliy qadriyatlari, tiynatu surati, umuman, mentalitetiga asoslangan tajribalaridan unumli foydalanish imkonini beradi.

Zamonaviy mehnat bozoriga yuqori raqobatbardoshlikka ega mutaxassisni yetishtirib berish, bu- avvalo, yoshlarda o'z-o'zini uzluksiz rivojlantirish



motivatsiyasini tarkib toptirish, shaxsda o‘z-o‘zini tarbiyalash, namoyon etish, rivojlantirishga intilishni shakllantirish demakdir. Bu borada O‘rta Osiyo allomalari tomonidan ilgari surilgan ta’limiy qadriyatlarga tayanish katta ahamiyatga ega. Chunki aynan ota-bobolarimizning yoshlarga bilim berish, ma’rifatdan bahramand etish borasidagi qarashlari avvalo ularni o‘z nafsini yenga bilish, ilm egallash yo‘lida doimiy mashaqqatlardan cho‘chimaslik, «Beshikdan qabrgacha ilm izlash» borasidagi hikmatlari bilan hamohangdir.

Rus olimlaridan A.I. Kravchenko qadriyatlarga quyidagicha ta’rif beradi: «Qadriyatlar, – deb yozadi u, – ko‘pchilik kishilar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, romantik sevgi, do‘stlik kabi xodisalar haqidagi tasavvurlardir». Qadriyatlar shaxsning atrof-borliqni anglash, o‘rganish jarayonida o‘zlashtirib oladigan, moddiy-ma’naviy boyliklarning ijtimoiy muhit e’tirof etgan majmuasi. Inson uchun ahamiyatli, muayyan moddiy-ma’naviy boyliklarning eng e’tirofga sazovori, asili – qadriyatlardir.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta’lim va ma’rifat berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridandir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo‘nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o‘rni katta bo‘lib, ta’limning umumiy nazariyasi didaktika deb ataladi. U pedagogikaning alohida qismi sifatida o‘qitish jarayonida amalga oshadigan ta’lim-tarbiya qonuniyatlarini o‘rganadi. Didaktikaning maqsadi nazariyadagi qator muammolarni hal etishdan iborat. Bular quyidagilardan iborat:

1) nazariyaning maqsad va vazifalarini belgilash. Busiz o‘qitish jarayoni muayyan to‘liqlikka ega bo‘lmaydi.

2) o‘qitish jarayonini tahlil etish va uning qonuniyatlarini ochish

3) qonuniyatlarga tayangan holda, o‘qitishning prinsip va qoidalarini asoslash

4) ta’lim mazmunini belgilash, Bunga birinchi navbatda o‘quvchi o‘zlashtirish zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini tanlash, shuningdek, bilimlarni mustahkamlash uchun amaliy mashqlar ishlab chiqish kabilar kiradi.

5) ta’limni tashkil etish shakllari haqidagi asosiy fikr va g‘oyalarni aniqlashtirish.

6) o‘qituvchilarga ta’lim metodlari va usullari asosiy maqsad-o‘quvchilarni sifatli o‘qitishga erishining turli yo‘llarin, tushuntirish.



7) o‘qitish vazifalarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi moddiy-texnik vositalarni tavsiflash.

Demak, didaktik qadriyatlar ta‘lim oluvchi uchun zarur hisoblangan, o‘qitish jarayonining negizini ta‘minlovchi, uning jon tomiri bo‘lgan ta‘lim mazmuni va uning amalga oshirishini belgilab beruvchi muhim shart-sharoitlardir. Uning asosiy xususiyati o‘tmishda ta‘lim jarayonida keng qo‘llanilgani bo‘lib, zamonaviy ta‘limda foydalanilgan ilg‘or ta‘lim mazmuni, shakl, usul va vositalariga negiz sifatida xizmat qilganidir.

O‘qitishning barcha tamoyillari didaktikaning asosiy funksiyasi – ta‘limning shaxsni tarbiyalovchisi va rivojlantiruvchisi sifatidagi vazifasini amalga oshirishga qaratiladi. Rivojlantiruvchi ta‘lim qanday o‘qitish va nimalarni o‘rgatish masalasiga yangicha nuqtai nazardan yondashuvning tarkib topishiga asos bo‘lmoqda. Bular:

- ta‘lim mazmuniga shaxsni rivojlantirish vositasi sifatida qarash;
- maktab o‘quv fanlariaro integratsiyaning kuchayishi;
- ta‘limda tabaqalashtirish va variativlikni orttirish;
- o‘qishni ijobiy rag‘batlantirish kabilardan iborat [2; 43]. Qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish ta‘lim oluvchining shaxs sifatida yaxlit va atroflicha rivojlanishi, ta‘lim sub‘ekti sifatida o‘ziga xosligi (individualligi), erkinligi, ijodiy-kreativ tafakkur yuritishini qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi.

Demak, didaktik hodisalarni o‘rganish turli davrlarda amal qilgan ta‘lim mazmuni, hodisalari, shart-sharoitlari o‘rtasidagi aloqalarni tahlil etish, didaktikaning vorisiylik tamoyiliga asoslanish, ularni tavsiflash va tizimlashti-rishdan boshlanadi. Didaktika tarixini o‘rganishda tizimlilik va ketma-ketlik tamoyiliga tayanish o‘qitish tarixiga doir nazariy va amaliy bilimlarga tizimli yondoshish imkonini beradi. Ushbu tamoyilga amal qilishda quyidagilarni nazarda tutish zarur: avvalo, didaktika tarixiga doir nazariy yondashuvlarni aniqlash va muayyan tartibga solish, ya‘ni uni mantiqiy qismlarga, davrlarga ajratish va tavsifiy tartibini belgilash, ularni zamonaviylik va tarixiylik nuqtai nazardan tahlil qilish zarur (ushbu uslubning asosida qiyosiy tahlil yetakchi o‘rinni egallashi lozim); ikkinchidan, har bir mantiqiy bo‘lim, davrlarda amal qilgan asosiy didaktik tushunchalar (tayanch atamalar), ularning asosiy mohiyati, markaziy g‘oyalari, tarkibiy tuzilmasini aniqlash kerak; uchinchidan, mantiqiy qism, davrlar, ta‘lim tamoyillari, didaktik qadriyatlar o‘rtasidagi bevosita va bilvosita aloqalarni belgilash zarur.

Keyingi yillarda O‘rta Osiyolik pedagog-allomalarning merosi hamdo‘stlik davlatlari olimlarining ham e‘tiborini jalb eta boshladi. Rus olimlaridan



A.N.Djurinskiy, G.M.Kodjaspirovaning pedagogika tarixi sohasida yaratgan ishlarida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Nosir Xisrav, Muslihiddin Sa'diy Sheroziy, Kaykovus kabilarning jahon pedagogik tajribasini rivojlantirishga qo'shgan hissalarining uqtirilganligini alohida ahamiyatga molik hodisa sifatida ta'kidlash mumkin.

Barchamizning muhim vazifalarimizdan biri ajdodlarimizning ta'lim masalalarini yoritishga qo'shgan munosib ulushlarini jahon pedagogik ommasiga yanada kengroq va chuqurroq ko'rsatib berishdan iborat. Zero, mustaqil respublikamizning ta'limning globallashuv sharoitida jahon pedagogik hamjamiyatida tutgan o'rmi uning unga qo'shgan hissasini ko'rsatib berilishi bilan ham o'lchanadi. Afsuski, O'zbekistonda didaktikaning shakllanish va rivojlanishi tarixi ilmiy-metodik jihatdan kengqamrovli tadqiq etilmagan. Shunga ko'ra, bu sohada ayrim salmoqli ishlarning e'lon qilina boshlangani e'tiborga loyiqdir. Xususan, X.I.Ibragimov va Sh.A.Abdullaevalarning Pedagogika va psixologiya yo'nalishidagi oliy o'quv yurti magistrantlari uchun yozilgan «Istoriya pedagogiki i obrazovaniya» («Pedagogika va ta'lim tarixi») darsligi ana shunday ishlardan biridir. Darslikda pedagogika va ta'lim tarixidan o'quv dasturiga muvofiq Sharq va G'arbda pedagogik fikr va maktablarning rivojlanish bosqichlari: O'rta Osiyo falsafiy-diniy yodgorliklari, jumladan «Avesto»da ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar, maktab va madrasalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularda hukm surgan didaktik qadriyatlar, xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy jihatlari, Qur'oni karimda ilgari surilgan pedagogik g'oyalar ochib berilgan.

Didaktik konsepsiyalarning asosida turli mezon va yondashuvlar yotadi. Bular o'quv jarayonida qo'llanilayotgan metodlarni qayta tashkil etish, pedagogik psixologiyada ilgari surilayotgan yangi ma'lumotlarga asoslanish kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Yetakchi didaktik konsepsiyalarda boshqa mezon va yondashuvlar ham ilgari surilmoqda.

G'arb pedagogikasida ilgari surilgan ko'pchilikka ma'lum didaktik konsepsiyalar ichida traditsion paradigma, ratsional model va fenomenologik yo'nalishlarni keltirish mumkin. G'oyaviy plyuralizm sharoitida turli nazariy modellarning ilgari surilishi tabiiy holat bo'lib, ularda bir vaqtning o'zida bir nechta didaktik paradigmalar birlashib, uyg'unlashib ketmoqda.

Demak, didaktika tarixini izchil o'rganish shu kabi kam o'rganilgan yo'nalishlarga ham chuqur kirib borishni talab etadi.

Didaktika tarixida tizimlilik nazariyasi va amaliyotini belgilash o'qitish tarixida



amal qilgan mazmun, shakl, usul va vositalar (ya'ni pedagogik shart-sharoitlar)ning uzviyiligi belgilash, ularni ijtimoiy-madaniy tuzum va davr talablari asosida rivojlanib borish holatlarini aniqlash maqsadini nazarda tutadi. Ushbu harakat asosida yotuvchi asosiy qoida har bir davrni ham o'rganilayotgan material mazmuniga ko'ra, ham ta'limda amal qilgan nazariy qoida va amaliy bilimlarga ko'ra oldingisining mantiqiy davomi sifatida e'tirof etish, inkorni inkor dialektika qonuni asosida vujudga kelgan yangi bilimlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.А.Алимов, Р.М.Юсупов, А.Ш.Шамсиев. Узлуксиз математика таълимида узвийлик. // Умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълими жараёнида фанлараро узвийликни таъминлаш муаммолари. - Т.: ЎзР ХТВ, Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти, 2009., 340 б. - 223-б.
2. Г.К.Селевко. Современные образовательные технологии. - М.: Народное образование, 1998. - 256 с.
3. Педагогик атамалар луғати F Тузувчи муаллифлар: п.ф.д., проф. Р.Х.Джураев, п.ф.д. Ў.Қ.Толипов, п.ф.д., проф. Р.Ф.Сафарова, т.ф.д., проф. Х.О.Тўрақулов, п.ф.н. М.Э.Иноятова, п.ф.н. М.С.Диванова. - Т.: Фан, 2008. - 193 б.



ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Р.Х.ДЖУРАЕВ,

д.п.н., академик УзНИИПН им.Кары Ниязи

Ш.К.МАРДОНОВ,

д.п.н., проф. УзНИИПН им.Кары Ниязи

В статье речь идет о определяющей идее формирования системного мышления является понимание и внедрение в практику обучения системно-деятельностного подхода как такой организации учебного процесса, в котором главное место отводится активной и самостоятельной познавательной деятельности учащихся.

Ключевые слова: системное мышление, комплексное представление, представление о системах, знание, умение, навыки, студенты, умение планировать, профессиональная деятельность, системный характер, мыслительный процесс, факты, явления, теория, гипотеза, психологические особенности, целостность, комфортность, вариативность, самостоятельная работа, логическое и системное мышление.

Maqolada tizimli tafakkurni shakllantirishning aniqlovchi g'oyasi o'qitish amaliyotiga tizimli-faol yondashuvni tushunish va amalga oshirishni o'rganish jarayonini tashkil etish sifatida qaraladi, bunda asosiy o'rinni ta'lim oluvchilarning faol va mustaqil bilish faoliyati egallaydi.

Tayanch so'z va iboralar: tizimli fikrlash, kompleks tasvir, tizimlarni tushunish, bilim, qobiliyat, ko'nikma, o'quvchilar, rejalashtirish qobiliyati, kasbiy faoliyat, tizimli xarakter, fikrlash jarayoni, faktlar, hodisalar, nazariya, gipoteza, psixologik xususiyatlar, yaxlitlik, qulaylik, variativlik, mustaqil ishlash, mantiqiy va tizimli fikrlash.

The article deals with the defining idea of the formation of systems thinking is the understanding and implementation of the system-activity approach into the practice of teaching as such an organization of the educational process, in which the main place is given to the active and independent cognitive activity of students.

Key words: systems thinking, complex representation, understanding of systems, knowledge, ability, skills, students, ability to plan, professional activity, systemic character, thought process, facts, phenomena, theory, hypothesis, psychological characteristics, integrity, comfort, variability, independent work, logical and systemic thinking.

Формирование системного мышления студентов будет способствовать формированию у студентов комплексного представления о системах на разных уровнях организации, творческого подхода к научному анализу фактов, явлений, процессов. В результате изучения курса студенты совершенствуют целый ряд умений и навыков, которые будут им необходимы в дальнейшей профессиональной деятельности:

– умение распознавать и грамотно с научной точки зрения описывать



особенности исторических процессов;

- умение выявлять адаптивный характер жизненных циклов и жизненных стратегий видов, проводить экспертную оценку их адаптивных возможностей;

- умение давать научно обоснованное объяснение адаптивного характера функционирования исторической системы на различных уровнях их организации;

- умение планировать и проводить на современном научном уровне исследования по изучению исторических систем, анализировать теоретические аспекты экспериментальных данных, выявлять прикладное значение результатов этих исследований;

- умение в своей профессиональной деятельности, связанной с историей, обнаруживать широкий социальный смысл, а также системный характер всех объектов, форм, явлений и процессов, вовлеченных в эту деятельность.

Приоритетной задачей преподавания вузовского курса истории является совершенствование методики формирования следующих видов деятельности:

- познавательной деятельности, предполагающей использование для познания окружающего мира наблюдений, измерений, эксперимента;

- приобретение умений различать факты, гипотезы, причины и следствия, доказательства;

- приобретение опыта экспериментальной проверки выдвигаемых гипотез;

- выявление характерных причинно-следственных связей;

- творческое решение учебных и практических задач;

- информационно-коммуникативной деятельности, предполагающей:

- развитие способности понимать точку зрения собеседника и признавать право на иное мнение;

- приобретение умения получать информацию из разных источников и использовать ее;

- отделение основной информации от второстепенной, критическое оценивание достоверности полученной информации,

- умение развернуто обосновывать суждения, давать определения, приводить доказательства;

- использование мультимедийных ресурсов и компьютерных технологий для обработки, передачи, систематизации информации, презентации результатов познавательной и практической деятельности;

- владение основными видами публичных выступлений (высказывания, монолог, дискуссия, полемика);

- рефлексивной деятельности, предполагающей;



- приобретение умений контроля и оценки своей деятельности, умения предвидеть возможные результаты своих действий;
- объективное оценивание своих учебных достижений;
- учет мнения преподавателей, однокурсников, родителей и других людей при определении собственной позиции и самооценке;
- определение собственного отношения к явлениям современной жизни.

Овладение этими видами деятельности как существенными элементами исторического образования, отражающего многообразие мира и являющегося важным элементом культуры и образованности личности, является необходимым условием развития, социализации и профессионализации студентов.

Реализация технологии или комплекса технологий формирования системного мышления преподавателем всегда опирается на систему дидактических принципов. Мы сочли уместным выбрать в качестве дидактических принципов такие, которые соответствуют специфике системно-деятельностного подхода.

В группу таких принципов мы включили следующие:

1) принцип деятельности – заключается в том, что студент, получая знания не в готовом виде, а добывая их сам, осознает при этом содержание и формы своих действий, активно участвует в их совершенствовании, выстраивает последовательность и логику своих рассуждений, что приближает его к развитию навыков системного мышления, способствует активному и успешному формированию его общекультурных, деятельностных способностей и обще учебных умений;

2) принцип непрерывности – означает преемственность между всеми ступенями и этапами обучения на уровне технологии, содержания и методик с учетом возрастных психологических особенностей студенчества;

3) принцип целостности – предполагает формирование у студентов обобщенного системного представления о мире (природе, обществе, самом себе, о роли и месте каждой науки в системе наук);

4) принцип психологической комфортности – построен на снятии всех стресс образующих факторов учебного процесса, создание в вузе, группе и на занятиях доброжелательной атмосферы, ориентированной на реализацию идей педагогики сотрудничества, развитие диалоговых форм общения;

5) принцип вариативности – предполагает формирование у обучающихся способностей к систематическому выбору вариантов и объективному принятию решений в ситуациях выбора;

6) принцип творчества – означает максимальную ориентацию на творческое начало в образовательном процессе, приобретение студентами собственного опыта творческой деятельности;

7) принцип детерминизма. Отношения и связи исторических явлений многообразны. Они могут быть существенными и несущественными, при-



чинными и непринципиальными, случайными и необходимыми. В процессе прогностирования необходимо уметь отвлечься от второстепенных связей с тем, чтобы определить основное, главное, существенное.

Большая роль принадлежит самостоятельной работе, которая призвана стать тем базисом, который в значительной степени обеспечит условия для формирования системности мышления. Самостоятельная работа помогает лучшему усвоению теоретического материала, совершенствует приобретенные ранее компетенции, дает возможность выявить и вовремя ликвидировать пробелы в знаниях и умениях. Этому способствует использование поискового, аналитико-синтетического и проблемного методов обучения, выбор соответствующих форм проведения самостоятельной внеаудиторной работы, которые способствуют формированию системного мышления.

Для определения педагогических путей, средств, условий решения поставленной проблемы, нами были разработаны «карты вопросов», содержащие вопросы первоочередной важности и различных педагогических задач, решение которых способствует формированию системного мышления студентов.

Таблица 1

Карты вопросов

<i>Общие вопросы</i>
<i>Как организовать учебную деятельность студентов? Как сформулировать цели урока и обеспечить их достижение; какой учебный материал отобрать и как подвергнуть его дидактической обработке; какие методы и средства обучения выбрать; как сделать, чтобы во взаимодействие всех этих компонентов привело к определенной системе знаний и ценностных ориентаций</i>
<i>1. На каком содержательном материале и через какие формы работы можно наиболее полно реализовать задачи? (помочь ученику сориентироваться в выборе, показать различные виды деятельности, дать возможность ученику проявить себя и добиться успеха).</i>
<i>2. Какими учебными и вспомогательными материалами можно обеспечить работу? (фонд библиотеки, хрестоматии, сборники, дидактические материалы и т.п.).</i>
<i>3. Какие виды деятельности возможны в работе? (Например, использование методов анализа; проведение эксперимента, наблюдения; работа в паре, группе, индивидуально; логическое рассуждение). Какова доля самостоятельности ученика в работе, в чем он может проявить инициативу?</i>
<i>Как построить урок? Какими педагогическими средствами воспользоваться в связи с переходом на системно-деятельностный подход в обучении (учебники, учебно-методические комплексы, традиционные или инновационные методики и технологии?).</i>
<i>Какие критерии позволяют учителю и ученику оценить успехи? (наблюдение активности на занятиях; беседы с учащимися, родителями; анализ работ учащихся; тестирование).</i>
<i>Каким образом в процессе работы будет фиксироваться динамика интереса (анкетирование на первом и последнем занятии, собеседование в процессе работы после выполнения каждого вида работ).</i>
<i>Чем может завершиться для ученика занятие в мастерской, какова форма отчетности? (тестирование; исследовательская работа; реферат).</i>



Формированию системного мышления студентов наилучшим образом соответствуют и способствуют исследовательские виды деятельности. Имеется в виду способность молодых людей занимать исследовательскую позицию по отношению к изучаемому теоретическому материалу, окружающим явлениям, проведению практических опытов, в чем также проявляются и развиваются навыки аналитического мышления. Наилучшие результаты достигаются тогда, когда обучающимся создаются условия для самостоятельной постановки задач исследования, выбора объекта, попыток анализа, выдвижения версий (гипотез) развития исследуемого явления.

Таблица 2 2

Системный подход к построению занятий по истории

<i>Ознакомление с ведущими понятиями занятия</i>
<i>Повторить, вспомнить, обобщить знания о...</i>
<i>Систематизировать уже имеющиеся знания</i>
<i>а) систематизировать по смыслу</i>
<i>б) систематизировать по историческим понятиям</i>
<i>в) разделить весь объем задействованных знаний (по логике, отдельным признакам)</i>
<i>г) составить новую систему по другому принципу (объединить по терминам, временным периодам, другим признакам, выбранным самими студентами)</i>
<i>Углубление и расширение знаний и представлений студентов об изучаемом объекте</i>

Изложенные концептуальные положения исследования целесообразно реализовывать в комплексной методике, включающей несколько направлений и наиболее полно реализующей возможности предмета.

Первое направление - введение материала на всех уровнях изучения истории.

Второе направление – представление исторической информации в виде схем, кластеров, таблиц, презентаций. Содержанием тем, выраженных таким образом, являются исторические и историко-культурные знания и навыки.

Третье направление – работа с текстами (учебниками, учебно-методическими комплексами, научной и художественной литературой, статистическими данными, Интернет-материалами) – попытки самостоятельной систематизации разнородной информации, самостоятельное нахождение сходств и различий, изучение и в новых текстах, компаративный анализ, паспортизация ключевых слов и др.

Четвертое направление – поэтапная работа с учебными и дополнительными материалами, самостоятельно выбранными студентами.

Пятое направление – организация самостоятельной работы – работа с



книгой, домашняя самоподготовка, самостоятельность в процессе аудиторного обучения, алгоритмы порядка самостоятельных занятий и решения задач на классификацию и систематизацию.

Шестое направление – внеучебные формы работы:

1. Интеллектуальные игры, диспуты.
2. Проектная деятельность – «Путешествие».
3. Круглые столы.

На основании проведенного анализа, количественных показателей уровня сформированности системного мышления студентов базовых вузов были сделаны выводы:

– отсутствие единой теоретико-методологической основы преподавания истории, хаотичность и необоснованность систематизации отдельных исторических систем, разрыв между теоретическими знаниями и умениями, отсутствие межпредметных связей, «клиповость», фрагментарность усвоения информации студентами, трудности при ее обработке, традиционно-репродуктивный стиль преподавания снижает эффективность развивающей функции исторического образования, препятствует развитию интеллектуальных способностей и системного мышления.

Вышеизложенные положения трансформируются в актуальную научную проблему: определение педагогических условий использования современных педагогических технологий в способы формирования системного мышления будущих учителей-историков.

Литература:

1. Аверьянов А. Н. Системное познание мира: методологические проблемы / А. Н. Аверьянов. - М. : Политиздат, 1985. - 263 с.
2. Асманова И.Ю. Развитие системного мышления студента как условие фундаментализации и профессионализации усваиваемых знаний. Дисс. канд. пед. наук.- Ставрополь, 2004. - 178 с.
3. Афанасьев В. Г. Общество: системность, познание и управление. - М., 1981. - 432 с.
4. Бьюзен Т. Интеллект-карты. Полное руководство по мощному инструменту мышления. -М.: Манн, Иванов и Фербер, 2021. - 372 с.
5. Галиев Т.Т. Опережающее обучение на основе системного подхода: учеб.-метод. пособие. - Астана: Изд-во НЦОКО МОН РК, 2011. - 317 с.



ZAMONAVIY BIOLOGIYADAN DARSLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

M.P.DJUMANIYAZOVA,

*Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
«Biologiya» kafedrasida katta o'qituvchisi.*

O'quvchilarga biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish bo'yicha orttirilgan tajribalar, moddiy bazasi, didaktik xususiyatlari va ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi bilan tanishtirib borilmoqda. Shu ma'noda mazkur maqolada o'quv jarayonini samaradorligini oshirishda raqamli ta'lim vositalarini joriy etish va undan samarali foydalanish mexanizmlariga e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: biologiya, o'quv jarayoni, multimedia, raqamli ta'lim vositalari, elektron muhit, elektron ta'lim, dars, mustaqil ta'lim olish, biologiyaning turkum fanlari, uzluksiz ta'lim tizimi, mobil ilovalar.

Students are introduced to the experiences gained in the use of information technology tools in the teaching of biology, their material base, didactic features, and the methodology of their use in the educational process. In this sense, this article focuses on the mechanisms of introducing and effectively using digital educational tools to improve the effectiveness of the educational process.

Key words: biology, educational process, multimedia, digital educational tools, electronic environment, e-learning, lesson, independent learning, biological sciences, continuous education system, mobile applications.

Ma'lumki, multimedia texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish samarali natija beradi. Uning samarasini izohlovchi sabablar – o'qitish vositasining yangiligi, videoqatorlar mosligi, tovush va matn hamohangligida kuzatish imkoniyatining mavjudligi (ham ko'rish, ham eshitish) va h.k. bo'lib, bularning hammasi «didaktikaning oltin qoidasi»ga mos keladi. Multimedia texnologiyalari tasviriy materiallarni boyitish, ajoyib videolavhalar va animatsiyalar bilan to'ldirish, murakkab jarayonlar dinamikasini ko'rsatish imkonini beradi. Kompyuter texnikasi yordamida ko'plab ko'rgazma vositalarini (jadvallar, videofilmlar, slaydlar) elektron ko'rinishga keltirish, uzoq va ixcham holatda saqlash imkonini mavjud.

Biologiya darslarida o'quvchilarni «darsni qo'llab-quvvatlash» dasturini mustaqil tayyorlash, mavjud elektron qo'llanmalar ssenariysini o'zgartirish va to'ldirish, amaliyotda tegishli bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashga yo'naltirib boriladi.

Biologiya darslarida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish oliy ta'lim tizimini axborotlashtirish talablariga muvofiq quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'qitishning shaxsga yo'naltirilganligi;
- ma'lumotlar bazasini ilmiy va kasbiy talablarga muvofiq interaktiv egallashga erishish;



- o‘quvchilarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatiga, o‘zaro bilimlarni o‘rtoqlashish va hamkorlikka intilishlarini orttirish;
- multimedia texnologiyasining zamonaviy imkoniyatlari yordamida o‘quvchi faoliyati motivatsiyasini orttirish;
- o‘quvchilarni o‘qitishning axborot muhitini yaratish va kasbiy faoliyatga tayyorlash;
- virtual ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish bilim, ko‘nikma va malakalarini orttirish natijasida o‘quvchilar referat tayyorlash va mutabii tadqiqotchilik ishlari, tajribalar, virtual laboratoriyalarni mustaqil ravishda multimediali ko‘rinishda tayyorlashni ham uddasidan chiqadi .

O‘quvchilar bilan biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan darslarimiz mobaynida muayyan mavzular bo‘yicha taqdimotlar tayyorlash, Internet saytlaridan ma‘lumotlar izlash, taqdimotlarni tayyorlashda foydalanilgan manbalarga bog‘liq saytlarni ko‘rsatish, olingan ma‘lumotlarni ilmiyligi va ishonchligiga baho berish, biologik xatoliklarni ko‘rsatish zarurati bo‘lganda texnik nosozliklarning mavjudligi, belgilangan maqsadga erishishni ta‘minlashga to‘sqinlik qilishi aniqlandi .

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta‘limda kompyuterdan foydalanish biologiya o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonini kompyuterlashtirish muammolari bilan bog‘liq holda kompyuterning o‘quvchilar aqliy faoliyatiga ta‘siri, aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi (I.F.Alekseeva); dasturlashtirilgan ta‘lim nazariyasi (B.R.Bespalko); kompyuter bilan foydalanuvchi muloqotini tashkil qilish (A.V.Grinishkun); o‘quv faoliyatini loyihalash (Ye.I.Mashbits); dastur vositalarini yaratishga qo‘yiladigan ergonomik talablar (N.Muslimov) kabi qator muammolar tadqiq qilingan bo‘lib, bizning tadqiqotimiz ularning u yoki bu jihatlari bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning tadqiqotlari bizning ilmiy izlanishlarimiz uchun nazariy asos sanaladi.

Ta‘lim jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan ko‘plab elektron o‘quv materiallari yaratilganki, unga elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, o‘rgatuvchi dastur vositalari kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ular o‘zida boshqarilish imkoniyati, interfaol uslublar, sun‘iy intellekt elementlari, hissiy moslashuvchanlik kabi xususiyatlar mavjudligiga ko‘ra ta‘limda ma‘lum samaradorlikni ta‘minlaydi. Biroq, mavjud vositalarning aksariyatida o‘quv materiali mazmunini o‘zgartirish imkoniyati berilmagan, deyarli barchasida darsning ma‘lum bosqichi yoki turi nazarda tutilgan, hech birida biologiyadan yangi avlod elektron o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish imkoniyati berilmagan.



Umumlashtirgan holda bu sohadagi echimini kutayotgan muammolar sifatida o'quvchilarni virtual talim texnologiyasiga asoslangan yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish alohida tadqiqot obekti sifatida o'rganilmaganligi; elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish prinsiplari, vositalari, bosqichlari, mexanizmlari etarlicha tadqiq qilinmaganligi; o'quv materialiga virtual laboratoriyaga mo'ljallab pedagogik ishlov berish, ma'lumotlar omboriga joylashtirish usullari, ulardan foydalanish tizimining ilmiy asoslanmaganligi; virtual ta'lim texnologiyasi yordamida dars jarayonini loyihalash bosichlarini to'liq kompyuterlashtirish masalasining haligacha majmuali o'rganilmaganligi kabi muammolarni ko'rsatish mumkin.

Biologiya ta'limida virtual ta'lim texnologiyasidan foydalanishni alohida tadqiq qilish, bu sohadagi yutuq va kamchiliklarni, istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va ularni tadqiq qilish ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish ehtiyojlariga ko'ra tadqiqot mavzusini «Biologiyadan yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish» shaklida qayd etdik.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash strategiyasi barcha darajalarda o'qitish texnologiyasi va metodlarini o'zgartirish, axborotlarni tahlil qilish amaliy ko'nikmasi, mustaqil o'qish, o'quvchilar mustaqil ishlashini rag'batlantirish, javobgarlikni his etish va tanlash tajribasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda ta'limning asosiy vazifasi o'quv materialini o'zlashtirish sifatini orttirish, ta'lim sifatini zamonaviy darjaga ko'tarishdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim maktabi universal bilim, ko'nikma va malakalar tizimini yaxlit shakllantirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning shaxsiy javobgarligi, mustaqil faoliyat tajribasi va zamonaviy ta'lim mazmunining sifatini aniqlash lozim.

Ta'lim sifatini ko'tarish ta'lim oluvchilarning nafaqat tayyor bilimlarni uzatishga yo'naltirilgan bo'lishi, balki, ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali shaxsiy sifatlarini kompleks shakllantirish, o'qitishning shakl va metodlarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini saralash natijasida amalga oshiriladi. Zamonaviy rivojlangan jamiyatga ilmi, ma'naviyatli, barqaror rivojlanish talablariga javob beradigan, respublikamiz kelajagi uchun qayg'uradigan intellektual etuk avlodni tarbiyalash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tay Vaughan. Multimedia: Making It Work. Charter 1: What Is Multimedia?. 2011. ISBN: 978-0-07-174850-6/r.15.
2. Raul Nurse. The Importance of Biology Education // Journal of Biological Education. R.7-9, 29 feb 2016
3. Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida virtual talim texnologiyalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. Monografiya. T.: Fan va texnologiya, ? 2017. ? 220 b.



TA'LIM TIZIMINING UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA OTM PROFESSOR-O'QITUVCHILARINI KASBIY SARALASHNING PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI AHAMIYATI

D.U.DJURAYEV,

O'zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrası
mudiri, p.f.d., dosent

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan bo'lmish oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini ta'minlashda ularning intellektuallik darajasi diagnostika tizimini shakllantirish muammosi o'rganiladi. OTMlariga professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali esa bir qancha masalalarning hal etilishiga erishish mumkin. Shu bilan birga shakllantirilgan psixologik diagnostika tizimi yordamida professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologik yaroqlilik darajasi ob'yektiv baholanishi kabi muhim masalaga yechim topiladi.

Kalit so'zlar: ta'limning uzluksizligi, professor, o'qituvchi, kasbiy saralash, yaroqlilik, intellekt, diagnostika, tizim, kompetensiya.

The article deals with the problem of forming a system for diagnosing the intellectual level in ensuring the professional competence of the teaching staff of higher educational institutions, which are one of the main links in the system of continuous education. A number of issues can be resolved by creating a system of psychological assessment of teachers and their participation in competitions. At the same time, with the help of the formed psychological and diagnostic system, a solution will be found to an important issue of an objective assessment of the level of psychological suitability of the teaching staff for professional activities.

Key words: continuity of education, professor, teacher, professional qualification, suitability, intelligence, diagnostics, system, competence.

В статье рассматривается проблема формирования системы диагностики интеллектуального уровня в обеспечении профессиональной компетентности профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений, являющихся одним из основных звеньев системы непрерывного образования. Решить ряд вопросов можно путем создания системы психологической оценки педагогов и их участия в конкурсах. При этом с помощью сформированной психолого-диагностической системы будет найдено решение важного вопроса объективной оценки уровня психологической пригодности профессорско-преподавательского состава к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: непрерывность образования, профессор, преподаватель, профессиональная квалификация, пригодность, интеллект, диагностика, система, компетентность.



Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimining maqsadli va barqaror tashkil etilishi va boshqarilishi, muntazam va barqaror takomillashtirib borilishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ustuvor vazifa sanaladi. Ta'lim jarayonini muntazam takomillashtirib borish yo'nalishida ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash o'ta muhimdir. Shu jumladan, respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini xisoblangan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy oshirib borish bugunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Mazkur masalani hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi innovasion rivojlanish vazirligi ko'magida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida IL 21091378 – raqamli «Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish» mavzuidagi 2022-2023 yillarga mo'ljallangan innovasion loyiha bajarilmoqda.

Loyiha doirasida OTM professor-o'qituvchilarini ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan. OTM professor-o'qituvchilarini ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali esa quyidagi masalalarning hal etilishiga erishiladi. Shakllantirilgan psixologik diagnostika tizimi yordamida professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologik yaroqlilik darajasi baholanadi. Jumladan:

- professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologiya yaroqlilik darajasi aniqlanadi;

- professor-o'qituvchilarning regulyativ, kommunikativ va kognitiv kompetensiyalari aniqlanadi;

- umumiy intellektuallik, sosial va emosional intellektuallik darajalari aniqlanadi;

- kasbiy muhitga moslashuvchanlik imkoniyatlari o'rganiladi;

- shaxslilik xususiyatlari aniqlanadi;

- asab-psixik barqarorlik va frustrasiyali vaziyatlarga bag'rikenglilik darajasi aniqlanadi;

- psixologik diagnostika tizimi kompyuter dasturlashtirilgan shaklda amalga oshiriladi va ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida quyidagi holatlarni keltirib o'tish joiz::

- professor-o'qituvchilarning kasbiy-psixologik qiyofasini baholash mezonlari ishlab chiqiladi;

- professor-o'qituvchilarni kasbiy-psixologik saralashning ekspert baholash, «smol-ekspert» tizimi shakllantiriladi;



– professor-o‘qituvchilarning sosial-psixologik yo‘nalganlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, psixologik kompetentlik, sosial-kommunikativ kompetentlik darajalari va «professor-o‘qituvchining psixologik portreti» diagnostik daturlash tizimi tayyorlanadi;

– oliy ta‘lim muassasalariga ishga qabul qilinayotgan professor-o‘qituvchilarni kasbiy saralash psixologik diagnostikasining «professor-o‘qituvchi-xodim» kompyuter dasturi ishlab chiqiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida har yili turli xil maqsadlarda professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati yuzasidan nomzodlarni saralash bo‘yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Bugungi kunda ushbu tadbirlar asosan OTM huzurida tuzilgan «Jamoatchilik kengashi» tomonidan amalga oshirilmoqda. Ma‘lumki, jamoatchilik kengashi bir necha nafar a‘zodan iborat komissiya tarkibida faoliyat olib boradi. Ayrim hollarda ushbu komissiyaning faoliyatini tashkil etish va uning baholash tizimi bilan bog‘liq holatlarda nomzodlarni yetarlicha to‘laqonli baholash uchun zarur mezonlar cheklanganlik xarakteriga ega bo‘ladi. Aksariyat hollarda asosan nomzodlar to‘g‘risidagi hujjatlar bilan cheklanishga to‘g‘ri keladi.

Diagnostika uchun mo‘ljallangan dasturiy ta‘minotni ishlab chiqishda professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga yaroqliligini baholashga mo‘ljallangan kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlarga tayaniladi. Dasturiy ta‘minot nomzodlarni tanlash bo‘yicha operativlik, tejamkorlik va haqqoniylik tamoyillariga muvofiq ishlab chiqiladi.

«Oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga psixologik yaroqliligi diagnostikasi tizimini shakllantirish» kompyuter dasturiy ta‘minoti ta‘lim muassasalarida kadrlarni saralash, ularning tanlovini tashkil etish yuzasidan xolis natijalarga ega bo‘lish va jarayonning natijaviyligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

Dasturiy ishlanmani shakllantirishda pedagog, psixolog va axborot-kommunikatsiya sohasi mutaxassislaridan iborat ilmiy jamoa faoliyat olib boradi. Ilmiy jamoaning ilmiy-ijodiy ishlanmasi yakuniy shakli tanlovda ishtirok etadigan nomzodlarning xolis, ishonchli, haqqoniy va yaroqli ekanligini tasdiqlovchi ko‘rsatkichlarni taqdim etishi bilan belgilanadi. Mazkur masalani yechish natijasida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- nomzodlarni saralash uchun zarur bo‘lgan tanlov mezonlari ishlab chiqiladi;
- tanlov mezonlarida professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati va shaxslilik fazilatlarini aks ettiruvchi bandlari qamrab olinishi ko‘zda tutiladi;



– nomzodlarni baholash mezonlariga muvofiq psixologik diagnostika metodikalari saralanadi;

– psixodiagnostika metodikalari professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va shaxslilik fazilatlarini baholash imkoniyatiga egaligi inobatga olinadi;

– tanlangan metodikalarning baholash xususiyatlari, nomzod to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ishonchlilik, haqqoniylik, xolislik va yaroqlilik darajasini ta‘minlash uchun psixometrika talablari bo‘yicha sinovdan o‘tkaziladi;

– dasturiy ta‘minotda professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini aks ettiruvchi quyidagi mezonlar e‘tiborga olinadi: kommunikativ kompetentlik; autopsixologik kompetentlik; sosial-pedagogik kompetentlik; kognitiv kompetentlik.

Kommunikativ kompetensiya:

– muloqot muhitini shakllantira olish, ta‘lim oluvchilar bilan hamkorlik qilish; ta‘lim oluvchilarga nisbatan ishonch tuyg‘usini o‘rnatish; har bir ta‘lim oluvchini individual qabul qila olish; muloqotda tashabbus ko‘rsata olish; o‘zining muloqotda individual uslubiga ega bo‘lish;

– zarur axborotlarni mazmunan ajratib olish; zarur axborotlar bilan ijodiy ishlash; fikrlarni bayon etishda shaxsiy tuyg‘u va munosabatlarini aks ettirish; materiallarni mantiqiy, qulay, obrazli, ifodali bayon etish; asosiy ma‘lumotlarni ajratish, ta‘lim oluvchilarga materiallarni muammoli tarzda taqdim etib, ularni bahs-munozaraga jalb etish;

– o‘zini va atrofdagilarni tushuna olish qobiliyati, o‘zini va o‘zgalarni qabul qila olishi, o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilishi; tashkilotchilik, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi; faoliyatning o‘zini-o‘zi kasbiy rivojlantirishga va shaxsiy kamolotiga yo‘nalganligi.

Tashkilotchilik kompetensiyasi:

– o‘zini o‘zi tashkillashtirish;

– o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish;

– ta‘lim oluvchilarning hayot faoliyatini tashkil etish;

– o‘zining va ta‘lim oluvchilar mehnatini tashkil etish;

– atrofdagilarning faoliyati bilan o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish.

Sosial-pedagogik kompetensiya:

– ta‘lim oluvchilarning turli guruhi xususiyatidan kelib chiqib, sosial-pedagog ishni tashkil etish uchun zarur pedagog faoliyati mazmuni, shakli va metodlarini ta‘minlash;



- ta’lim oluvchi shaxsiga, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga ta’sir ko’rsatuvchi tibbiy, pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni o’rganishga qobiliyatlik;
 - sosiumdagi sosial-pedagogik faoliyatni tashkil etish qobiliyati;
 - ta’lim oluvchilarning xar-xil ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal etish mahorati;
 - huquqbuzarliklarning oldini olishga intiluvchanlik;
 - ta’lim oluvchilar o’rtasida o’zining shaxsiy mavqei va obru-e’tiboriga egalik.
- Kognitiv kompetentlik:**
- o’zining ma’lumotlilik darajasini muttasil oshirib borishga tayyorlik;
 - shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirish va ularni safarbar etish ehtiyoji;
 - yangi bilim, ko’nikma va malakalarni doimiy ravishda o’zlashtirishga qobiliyatlik, o’zini kamol toptirishga intilish;
 - kasbiy kompetensiyalarini doimo boyitib borish qobiliyati.
- Kasbiy faoliyatdagi psixik barqarorlik va muhitga moslashuvchanlik darajasi:**
- moslashuvchanlik qobiliyatlari;
 - asab-psixik barqarorlik;
 - kommunikativ xususiyatlar;
 - axloqiy me’yorlarga mosligi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mazkur mezonlar respublika uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas qismi bo’lmish oliy ta’lim muassasalarida professor-o’qituvchilarni kasbiy saralash jarayoni uchun asosiy shartlar hisoblanadi va ularga muvofiq metodikalar tanlanadi va amaliyotga taqdim qilinadi. Natijada ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajaga ko’tarilishiga turtki bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burrhus Frederic Skinner «The Technology of Teaching», New York: Appleton-Century-Crofts, 1968.
2. Forer B. R. «The fallacy of personal validation: A classroom demonstration of gullibility», Journal of Abnormal and Social Psychology, 1949. P. 118.
3. Dickson D. H. and Kelly, I. W. «The ‘Barnum Effect’ in Personality Assessment: A Review of the Literature», Psychological Reports, 1985. P. 367.



O'ZBEK VA QIRG'IZ QIZLARINI OILAGA TAYYORLASHDA ETNIK STEREOTIPLAR VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARI

N.X. DJUXONOVA,

*Farg'ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

Maqolada oilaviy hayot jarayonida turli an'ana, marosim, urf-odatlar jamiyatning rivojlanishiga, shaxsning har tomonlama, jismoniy, ma'naviy jihatdan kamolotga erishishiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazib kelganligi aks ettirilgan. Oiladagi sog'lom, ijobiy psixologik muhit, oila a'zolari o'rtasidagi emotsional yaqinlikdan farzandlarda ota-onaga, qarindosh-urug'larga nisbatan hurmat, mehr-oqibat singari eng yuksak, ezgu xislatlar tarbiyalanadi, insoniy fazilatlar shakllanilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *ma'naviy-axloqiy, marosimlar, urf-odatlar, qadriyatlar, stereotip, emotsional qadriyatlar, ma'naviy, psixologik.*

В статье показаны, различные традиции, обряды, обычаи оказывающие положительное влияние на развитие общества и духовную зрелость личности. В детях воспитывается здоровая, положительная психологическая обстановка в семье, эмоциональная близость между членами семьи, уважение к родителям, родственникам, формирующиеся человеческие качества.

Ключевые слова: *духовно-нравственный, ритуалы, традиции, ценности, стереотипы, установки, эмоциональные ценности, духовный, психологический.*

The article shows various traditions, rituals, customs that have a positive impact on the development of society and the spiritual maturity of the individual. Children are brought up with a healthy, positive psychological environment in the family, emotional closeness between family members, respect for parents, relatives, emerging human qualities.

Key words: *spiritual and moral, rituals, traditions, values, stereotypes, attitudes, emotional values, spiritual, psychological.*

Mustaqillik tufayli jamiyatimizda, ayniqsa, uning ma'naviy-axloqiy va ruhiy dunyoqarashiga sezilarli darajada ta'sir etayapti. Shuning uchun hozirgi vaqtda oilada qizlarning ma'naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ham ilmiy ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek oilasiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ilg'or urf-odat va an'analar etnik stereotiplar asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, taraqqiy topib kelgan. Ma'lumki, oilaviy turmush munosabatlari oilaning o'tgan ijtimoiy tuzumlarga, hozirgi mavjud va kelajakdagi ijtimoiy hayotga bog'lanib ketganligi bilan ikkiyoqlama xususiyat kasb etadi.



Ilg'or g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik qarashlarga ega bo'lgan yozuvchining shaxsiy hayot tajribasiga asoslangan mushohadalari, kechinmalari, xarakter xususiyatlari muayyan darajada asardagi ba'zi qahramonlar, asosan ijobiy qahramonlar tili orqali ifodalanadi, ularning turmush tarziga ko'chiriladi.

Ma'lumki, oilaviy hayot psixologiyasida oila qurish motivlarini uchta asosiy turga ajratishadi. Bular quyidagilar:

1. Sevgi-muhabbat hislari natijasida.
2. Stereotip asosida.
3. Manfaatli (hisobli) ravishda.

Oila ta'bir joiz bo'lsa, kishining hayot yo'li, faoliyati boshlanadigan eng birinchi jamoa sanalib, inson ilk bor insonni shu yerda ko'radi, u haqda tushuncha, tasavvurga ega bo'ladi. Oilada, avvalo, bola uchun eng yaqin kishilar, uning ota-onasidir. Shuning uchun ham bolaning xulq-atvori, xarakteri, odat hamda ko'nikmalari oilada shakllanadi. Chunki oila o'z a'zolari bilan uzluksiz o'zaro ta'sir etib, uning faoliyati, yurish-turishini nazorat etib boradi.

O'zbek oilalaridagi o'zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan go'zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.

Qizlarni oilaviy munosabatlarda, umuman ijtimoiy munosabatlarda har bir shaxs guruhdagi o'z statusi, mavqei, maqomidan kelib chiqqan holda muomala, munosabatga kirishadi.

Tadqiqotimizda respondentlarning, ya'ni o'zbek va qirg'iz qizlarining mustaqil oila qurishga tayyorlik darajalarini o'rganishga harakat qildik. Bunda «Turmushga chiqishga tayyormisiz?» psixologik testidan foydalandik. Mazkur test orqali 340 nafar o'zbek qizlari, 189 nafar qirg'iz qizlarini mustaqil hayotga tayyorlik darajalarini aniqlash bilan birgalikda, har ikki millat qizlaridagi o'xshashlik va farq qiladigan jihatlari aniqlandi. Olib borgan tadqiqotimiz natijalarini dispersion jihatdan tahlil qilganimizda, o'zbek va qirg'iz qizlarida o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi ($p < 0,5; t = 3,76^{**}$). Unga ko'ra, qirg'iz qizlarida oilani saqlash, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish istagi yuqori bo'lsa, o'zbek qizlarida esa o'z kasbini saqlab qolishga nisbatan harakat qilishlari biroz yuqoriroq ekanligi hamda mustaqil hayotga o'z imkoniyatlaridan foydalanishlari va kuch-quvvatlarini jamiyatdagi o'z mavqelarini saqlashga bo'lgan intilishlari ya'ni, nikohdan keyingi hayotlarini



mustahkam bo'lishi uchun oiladagi etnik madaniyatni saqlab qolishi hamda dunyoga keladigan farzand oiladagi rishtalarni bog'lovchi vosita ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalarni dispersion jihatdan tahlil qilganimizda, Farg'ona va Andijon viloyati qizlarida o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi ($p < 0,5; t = 4,78^{***}$). Unga ko'ra qirg'iz qizlaridan ko'ra o'zbek qizlarida turmush qurishga tayyorgarlik bevosita ularning yoshlariga bog'liqligini ya'ni, Andijon hududidagi qizlar 19-21 yoshni turmush qurishga tayyor deb belgilashgan bo'lsa, Farg'ona hududidagi qizlarning 21-25 yoshda turmushga chiqishini ma'qullashgan. Bunga qizlarning zamonaviy dunyoqarashlari, sog'lom fikrlashlari, oliy ma'lumotli bo'lishga intilishlari hamda kelajakdagi turmush o'rtoqlarini ham oliy ma'lumotli bo'lishlarini istashlari, ularning turmush qurishga ma'naviy, psixologik, jismoniy tayyorligining muhim omili ekanligi, oiladagi uy-ro'zg'or ishlarini mustaqil bajara olishlari, yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga psixologik yondashishlari sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, har ikki millatning etnik xususiyatlarida oilaviy hayotga doir muhim bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muammolar ustuvor ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur muammolar doirasida oila, ayollar masalasiga e'tibor berish orqali bunda o'tkir zakovatli, faxm-farosatli, yuksak ongli, ma'naviy dunyosi boy, iroda-e'tiqodi mustahkam ayollar timsolini saqlab qolish asosiy hal qiluvchi, yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz».- T.: «O'zbekiston»-2017 yil.

2. Акрамова Ф.А. Психологические особенности готовности старшекласников к семейным отношениям. Семья и дети в современном мире. Сборник материалов конференции. Том VI. -СПб.: Изд. РГПУ им. А.И.Герцена, 2020. -1468 с. С. 37-41.

3. Djuxonova N.X., Mamajonova SH. Mahalla-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim omili sifatida //innovatsii v pedagogike i psixologii. - 2021. - T. 4. - №. 7.

4. Джухонова Н. Подготовка учащихся к семейной жизни как психолого-педагогическая проблема //ББК Ю953. - 2020. - С. 68.

5. Джухонова, Нохида Хаётжоновна, Дониёр Иброхимов. Этнопсихологические особенности подготовки девушек-студенток к семейной жизни / /Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 4. - С. 829-835.



UZLUKSIZ TA'LIMDA INTEGRATSIYALASH SIYOSIY TA'LIM VOSITASI VA DIDAKTIK TAMOYILLAR UYG'UNLIGI

R.G' JUMAYEV,
Buxoro davlat universiteti

Maqolada didaktik jarayonning uzluksiz ta'limda integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o'quv jarayonini bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta'minlashi xususida fikr yuritilgan. Ayniqsa, bo'lajak siyosatshunos kadrlarni tayyorlashda metodik fanlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, fan, integratsion kurs, didaktik tizim, yondosh fan, fundamental fan, usul, tamoyil.

В статье рассматривается интеграция дидактического процесса для обеспечения не только реализации теоретико-методического образовательного процесса в целом, но и эффективного ведения процесса. Особенно, интеграция методологических дисциплин в подготовке будущих учителей политологии с учетом зрелости и специфики образовательного процесса обеспечивает эффективное протекание процесса теоретической и методической подготовки.

Ключевые слова: наука, интеграционный курс, дидактическая система, фундаментальная наука, метод, принцип.

The article considers the integration of the didactic process to ensure not only the implementation of the theoretical and methodological educational process as a whole, but also the effective conduct of the process. Especially, the integration of methodological disciplines in the training of future teachers of political science, taking into account the maturity and specifics of the educational process, ensures the effective flow of the process of theoretical and methodological training.

Key words: science, integration course, didactic system, fundamental science, method, principle.

Pedagogikada integratsiyalashgan kurslar tasnifini turli xususiyatlariga ko'ra amalga oshirish mumkin: kursning maqsad va muammolariga ko'ra; tabiiy-ilmiy tizimdagi fanlarning umumiy vazifalariga ko'ra; fan tarmoqlarining o'zaro aloqadorligiga ko'ra; o'quv predmetlarining integratsiyalash usullari va yo'llariga ko'ra; fanlarning o'quv rejasidagi o'rni ko'ra; o'quv predmetlari yoki mavzularini o'rganish uchun ajratilgan vaqtga ko'ra; beriladigan bilimlarning murakkablik darajasiga ko'ra va h. k.

Metodik fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ularni integratsiyalab o'qitish hamda umumlashtirilgan kurslarni tashkil etish muammosi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday kurslar talabalarga kasbiy bilimlarni o'rganishga motivatsiya beradigan integrativ ma'ruza-amaliy mashg'ulotlari kiradi.



Integratsiyali ta'lim talabalarining o'rganilgan predmetlar mazmunidagi g'oyalari, tushunchalarni bog'lovchi yangi integrativ-amaliy kurslarni tashkil etilishiga sabab bo'ladi [3].

Siyosiy ta'lim fanlarining metodikasini kuzatish davomida har bir metodikada o'zaro aloqador mavzular, umumiy tushunchalar kiritilgani ko'rinadi. Bunday kurslar zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fundamental fanlar asosida tuziladi. Fundamental fanlar tarkibiga bir-biriga bog'liq pedagogika, psixologiya, fiziologiya kabilari kiradi [4].

Integrativ kurslar ma'lum bir ma'noda tabiiy fanlar samarasiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi hamda kursda bir obyekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi. Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida o'qitish jarayonida keng qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, ammo bugungi kunda bunday integrativ kurslarga yana ehtiyoj paydo bo'ldi. Siyosatshunoslik fanlari doirasida talabalar ongiga o'rganiladigan obyekt to'g'risida yaxlit tushuncha berilishiga erishiladi. Ushbu bilimlarni berish jarayonini ham metodik nuqtai nazardan umumlashtirishga bo'lgan talab talabalarga kompleks metodik bilimlar berishni taqozo etadi.

Metodik fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda beriladigan ko'p sonli metodik fanlar tizimi bo'lajak o'qituvchilarda nazariy-metodik kompetensiyalarni shakllan-tirishga yuqori darajadagi natijalarga erishishga yordam bermayapti. Metodik tamoyillar ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir. Bu tamoyillar esa pedagogik tizimning asosini hamda dastlabki vaziyatni belgilab berishga xizmat qiladi [5].

Binobarin, didaktik tamoyillar o'qitiladigan fanlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan birga, jamiyat talabi asosida yangilanib boradi.

Zamonaviy sharoitda taklif etilgan tamoyillar oliy ta'lim oldidagi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablarni qamrab oladi va ta'lim tashkilotining xususiyatlariga javob beradi. U didaktik jarayonda komponentlar bog'liqligini nazarda tutadi. Yuqorida tilga olingan didaktik g'oya va tamoyillar ta'lim jarayonini jamiyat talablaridan kelib chiqib tashkil etish imkonini beradi. Bu esa integratsiyaning ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga integrativ pedagogika tamoyillaridan tizimli foydalanish shart-sharoitlarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. «Siyosatshunoslik» fani mavzulari mazmuniga geosiyosat, siyosiy tahlil, xalqaro xavfsizlik, xalqaro huquq, xalqaro tashkilotlar tushunchalari integrativ holda qo'llanilsa, o'quv-tarbiya jarayonida hamda o'quvchi bilish faoliyatida rivojlanish kuzatiladi. «Siyosatshunoslik» fani mavzularini integratsiyalash jarayonida bir qator ta'lim tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiq. Mazkur tamoyillar:

1. Ilmiylikka asoslanganlik tamoyili.
2. Nazariya va amaliyotning birligi.
3. O'qitish va tarbiyalashning muntazamligi.



4. O'qitishda tarixiylik tamoyili.

5. O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili [7].

Yuqoridagi tamoyillarga ko'ra fanlar va metodikaning aloqadorligini ta'minlashda ularni quyidagi tarzda tatbiq etishga harakat qildik:

Ilmiylikka asoslanganlik tamoyili – Mazkur tamoyil o'z mohiyatiga ko'ra yangi o'zlashtiriladigan mavzuning yutug'i nafaqat ta'lim mazmunida namoyon bo'lishi, balki u yoki bu fanning asosiy qismini, fanning o'ziga xos xususiyatlarini va o'quvchilar bilimini rivojlantirishni hisobga olgan holda tashkil etishi kerak. Didaktik jarayonda o'rganishni faoliyat natijasi sifatida emas, balki faoliyat jarayoni sifatida qabul qilish kerak. O'qitishning ilmiy prinsipiga ko'ra, o'quvchilarga faqat ilmiy jihatdan to'g'ri va ulami chalkashtirmaydigan ma'lumotlar, ya'ni o'rganilgan faktlar, hodisalar, qonunlar, qoidalarning haqiqati, ularning fanning eng so'nggi yutuqlari bilan uyg'unligi haqida ma'lumot berilishi kerak. Ilmiylik tamoyili o'z navbatida:

Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili. «Siyosatshunoslik» fani doirasida o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilimlari o'z-o'zidan emas, talabalarining nazariy bilimlarini pedagogik faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish orqali erishiladi. Shunday ekan, talabalar har bir fan doirasida nazariy-metodik ko'nikmalarni rivojlantirib borishlari maqsadga muvofiq. Bu nazariya va amaliyotning birligini ta'minlashning yagona yo'li. Amaliy harakatlar talabalarga dunyoni yaxlit va tizimli tushunish ko'nikmalarini o'rgatadigan bilimlarning funksional tomonlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Amaliy topshiriqlar bir qator afzalliklarga ega bo'lib, siyosatshunoslik fani o'quv predmetlarining o'zaro bog'liqligi asosida mavzular mohiyatidan kelib chiqib tizimli foydalanish imkonini yaratadi. Shu boisdan, bu jihatlam talabalar o'quv faoliyatiga rasmiy ravishda kiritish orqali qo'llab bo'lmaydi. Fanning mazmuni ma'lum talablar bajarilgan taqdirdagina turli fanlarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizningcha, amaliy faoliyat olib borish o'quv jarayonida sezilarli vaqtni oladi. Shuning uchun uni bajarish davomida samaradorlikka erishilganda nazariy materialni o'zlashtirganlik darajasiga ijobiy baho berish mumkin bo'ladi.

Ta'lim-tarbiyaning muntazamligi tamoyili. Har bir ishda mantiqiy bog'liqlik bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qitishda chalkashlikka hech qachon yo'l qo'ymaslik lozim, ya'ni o'zlashtiriladigan o'quv materialining har bir keyingi bosqichi oldingi materialning mantiqiy davomi bo'lishi kerak, shundagina talaba o'zining oldingi bilimlaridan sezgir tarzda foydalanishi mumkin. Yangi materialni tushunish va o'zlashtirishga ehtiyoj sezadi. Bu talabning bajarilishini ta'minlash uchun o'qituvchi ichki va predmetlararo tashqi aloqalarni amalga oshirishi kerak. Buning uchun o'rganilgan bilim, ko'nikmalarning o'quvchilar tomonidan qo'llanilishini doimiy nazorat qilib borish zarur.

O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili. Berilgan shartlar asosida o'qituvchi va o'quvchilar uchun minimal vaqt va kuch sarflagan holda



o'quvchilarning ta'lim, bilim va rivojlanishida maksimal mumkin bo'lgan natijani ta'minlovchi o'qitish variantini oqilona tanlashdan iborat.

O'qitishda tarixiylik tamoyili. O'rganilayotgan o'quv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Siyosatshunoslik ta'limi mazmunini tanlashda tarixiylik tamoyiliga amal qilinsa, o'rganilayotgan o'quv materiali boyitiladi, o'quvchilar tomonidan yangi mavzuning puxta o'zlashtirilishiga erishiladi. O'qitishda tarixiylik tamoyili didaktshunos olimlar tomonidan XX asrning 50-yillarida umumdidaktik tamoyillar tasnifiga kiritilgan.

Dars jarayonida hosil qilinadigan motivatsiya murakkab pedagogik hodisa bo'lib, u o'quvchilarning xulqi, intilishlari, qiziqish va mayllariga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'rganilishida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi dars jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda motivatsiyaning quyidagi uchta-uyg'otuvchi, yo'naltiruvchi, fikr uyg'otuvchi vazifalaridan foydalanadi. Bunda matematik tushunchalarning qo'llanilishi o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'rganilgan mavzuning xotirada saqlanishiga imkoniyat yaratadi. Matematik tushunchalar asosida ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini bir-biri bilan o'zaro bog'lash, ularning mantiqiy aloqadorligi va mazmundorligi taqdim etilayotgan o'quv mashg'ulotining mohiyatini tushunib olishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. O'quv materiallari hajmini belgilashda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu albatta, talabalarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jismoniy va aqliy mehnat o'quv materiallarini idrok etish jarayonining rag'batlantiruvchi omili ekanligini hisobga olish lozim. Shuning uchun o'quv jarayonini talabalarning yoshi va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olingan holda tashkil etiladi. Ularda o'quv materialiga nisbatan qiziqish uyg'otish va diqqatini o'zlashtirishga jalb etish dardkor.

O'qitish jarayonida ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun faqatgina nazariy bilimlarning muayyan hajminigina emas, balki uning ilg'or sohalari, asosiy kasblar, o'qitish texnologiyasini rivojlantirish tendensiyalari, iqtisod va mehnatni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi bilan mos ravishda tashkil etish asoslari haqidagi bilimlarni ham taqdim etish zarurdir. Talabalarga turli kasblar haqidagi ma'lumotlarni birgina fan o'qituvchisi yetkazib bera olmaydi. Bu muammoni hal etishda barcha o'quv fanlarining o'qituvchilari birgalikda fanlararo aloqadorlikni ta'minlagan holdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Metodik manbalar tahlili asosida siyosatshunoslikni o'qitish metodikasini integratsiyalab o'qitish talabalarning pedagogik tayyorgarligida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

– pedagogik turkumdagi fanlar tizimi asosida metodik fanlarning umumiy asoslarini belgilash va tizimlashtirish funksiyasi;



- metodik fanlarning o‘zaro bog‘liq jihatlarini o‘rganish va faoliyatda foydalanish funksiyasi;
- fanlardagi aloqadorlik jihatlarini integrativ kursda foydalanish orqali o‘rganiladiga material to‘g‘risida yaxlit tasavvurni hosil qilish funksiyasi;
- fanlarning uslubiy xarakterini o‘rganish asosida bo‘lajak siyosatshunoslik fanio‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini tizimli ta‘minlash funksiyasi;
- integrativ kurslar asosida talabalarning metodik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga hissiy-axloqiy va shaxs sifatlarini ham rivojlantirish jarayonini jadallashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000.
2. Мавлонова Р.А. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Методик қўлланма. - Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат университети, 2005. [http:// library.ziyounet.uz/tu/bookF33810](http://library.ziyounet.uz/tu/bookF33810).
3. Я. А. Коменский, Д. Локк, Ж.-Ж. Руссо, И. Г. Песталоцци. Педагогическое наследие. - Москва: Педагогика, 1989. - 416 с.
6. Павельциг Г. Интеграция - дифференциация - прогресс/ Г.Павельциг // Интегративные тенденции в современном мире и социальный прогресс / под ред. М.А. Розова. Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1989. С. 42.
7. Чепиков М.Г. Интеграция науки: (Философский очерк) /М. Г. Чепиков. 2-е изд., перераб. и доп. Москва: Мысль, 1981. 276 с.
8. Гачев Г.Д. Книга удивлений, или естествознание глазами гуманитария, или образы в науке / Г.Д. Гачев. Москва: Педагогика, 1991. 272 с.



MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA EVRISTIK USULLARNI IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

S.YU.ASHUROVA,

Pedagogik innovatsiyalar instituti, p.f.n., prof.

Ushbu maqola professional ta'limda maxsus fanlarni o'rni va ahamiyati, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida evristik usullarni ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni, evristik metodlarni qo'llash masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: loyihalash, evristika, kompetensiya, dastur, ta'lim, professional, ta'lim sifati, metod

Данная статья посвящена роли и значению специальных предметов в профессиональном образовании, роли эвристических методов в развитии творческого мышления в процессе обучения специальным предметам, использованию эвристических методов.

Ключевые слова: проектирование, эвристика, компетентность, программа, образование, профессионал, качество образования, метод

This article is devoted to the role and importance of special subjects in professional education, the role of heuristic methods in the development of creative thinking in the process of teaching special subjects, and the use of heuristic methods.

Key words: design, heuristics, competence, program, education, professional, quality of education, method.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishda maxsus fanlardan qay darajada sifatlil ta'lim berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus fanlar egallanishi lozim bo'lgan kasbni o'rganishning asosini tashkil etadi va shu kasbga oid kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Maxsus fanlar blokining asosiy vazifalaridan biri aniq bir kasb bo'yicha texnikalar yoki texnologik jarayonlar bo'yicha ta'lim oluvchilarda kasbiy jihatdan shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikma va asosini tashkil etuvchi bilimlar majmuasini hosil qilishdan iborat. Mazkur fan blokining asosiy maqsadi tayyorlanadigan mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yadrosini tashkil etib, ular bo'lajak mutaxassislarning amaliy faoliyatga bema'lol kirib borishiga sharoit yaratishdan iboratdir. Bunda ushbu blokka kiruvchi fanlar mazmuni, o'qitish maqsadi va vazifalari, metodlari, shakllari, vositalari, tashkillashtirilishi, o'tkazilish joyi, jihozlanishi, ajratilgan vaqti bilan boshqa fanlar bloklaridan va umumta'lim fanlaridan farqi bo'ladi, chunki bu blok bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhimdir. Shu sababli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda doimo



ushbu sohaga tegishli moddiy-texnika baza, o'quv-axborotli ta'minot va kasbiy yetuk o'qituvchilar bilan ta'minlash kasb-hunar ta'limda ustivor vazifadir [1].

Maxsus fanlar blokiga kiruvchi fanlarni o'qitishda nazariya va amaliyot birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham maxsus fanlaridan o'quv-uslubiy majmualarni yaratishda ularga oid o'quv -axborotli - uslubiy majmua va multimediali ta'lim texnologiyalarini joriy etishni e'tiborga olish lozim. Professional ta'limda amaliy bilimlar, ko'nikmalar va malakalar nazariy bilimlardan kam emas va albatta ulardan ko'zlangan maqsad bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llarini yaratish va joriy etishdan iboratdir.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda maxsus fanlaridan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib ilmiy yondoshilgan holda bilim berish taqozo qilinadi, chunki mutaxassislarni kasbiy kompetentligi ko'proq maxsus fanlarida beriladigan bilimlar orqali shakllanadi va rivojlanib boradi. Shu nuqtai nazardan maxsus fanlarini o'qitishda ta'lim oluvchilarni bilim olishga, o'z-o'zini takomillashtirishga, malaka oshirishga, nazariy va amaliy bilimlarni bevosita amaliyotda qo'llay olishga undaydi [2].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, professional ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishga aynan maxsus fanlarini samarali o'qitish orqali erishish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Maxsus fanlardan o'quv mashg'ulotlarni rejalashtirishda har bir fan bo'yicha hamda har bir mavzuni o'zlashtirishning maqbul metodini tanlash g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitishning maqbul elementlari darsning maqsadi, material mazmuni, boshqarish uslubi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, faoliyat vositalari, sifati, olingan natijasi o'zaro aloqada butun bir tizim deb, qaralishi maqsadga muvofiqdir. Har bir mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar uchun pedagogik tizimda ularning o'ziga xos xususiyatlari bor. Tushunchalar va xatti-harakatlarning shakllanishini o'qituvchi boshqarib boradigan asosiy mashg'ulot turi va uni o'tkazish metodikasi pedagogik tajriba va mahoratga bog'liqdir. Bu jarayonni tinmay o'rganib borish o'qituvchining o'z kasbiga mohirligi o'qitish texnologiyalari va ularning maqbul shakllari majmuasini egallab olganligi bilan belgilanadi.

Professional ta'limning «Engil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)» yo'nalishlarida maxsus fanlar yuzasidan olib boriladigan mashg'ulotlar nazariy va amaliy shakllarda tashkil etiladi. Nazariy darslar ma'ruza, amaliy darslar esa amaliy-laboratoriya va mustaqil ta'lim shakllarida olib boriladi [3].



Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, maxsus fanlarni o'qitishda quyidagi texnologiyalar orqali kompetensiyalar rivojlantiriladi:

1. Evristik
2. Kreativ
3. Rivojlantiruvchi
4. Interfaol.

Maxsus fanlarni o'qitish bevosita ijodiy jarayon bilan birgalikda olib boriladi va bunda ta'limning evristik metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ijodiy jarayon – bu mazmun va shakl birligini qidirishdir. Ba'zan ijodiy vazifa yechilganda an'anaviy usullarni qo'llanishi qiziqarli yechimni bermaydi. Shuning uchun loyihalash jarayonida dizaynerning ijodiy faoliyatini intensivfikatsiyalashga yo'naltirish kerak. Butun jahon dizaynerlari dizaynni barcha sohalarida davrga munosib yangi modalarni yaratish uchun yangi g'oyalarni qidirmoqda. Buyumlarni ishlab chiqaradigan firmalar dizaynerlardan qiziqarli bir g'oyani emas, balki ajoyib, yangi cheksiz g'oyalarni talab qilishadi.

Bu ijodiy fantaziyani jadallashtirish usullarni yoki evristika (grek. heurisko – qidiraman, kashf etaman) usullarni qidirilishiga sabab bo'ladi.

Ijodiy jarayon juda murakkab va o'ta xilma xil hodisa. Ijodiy tasavvurni rivojlanishi, loyiha ijodiy vazifalarni no'anaviy metodlar bilan yechish, psixologik inersiyani yengish – bu evristik metodlarning imkoniyatlaridir. Dizaynerlar ko'pincha analogiya, assotsiatsiya, kombinatsiyalash, inversiya va b. usullarga asoslangan oddiy evristik metodlardan foydalanadilar. Loyihalovchi evristik metodlardan foydalanishni bilishi kerak. Turli evristik metodlarni qo'llash natijasida dizaynerning ijodiy qobiliyati va professional yo'nalishda fikrlashi rivojlanadi. Bunda ijodiy izlanishni jadallashtirishga imkon paydo bo'ladi. Dizayn ta'limining eng muhim maqsadi – bu har bir talaba loyihalash faoliyatida o'z qobiliyatini ochishga va o'z o'zini baholash qobiliyatini rivojlanishiga imkon berish, va loyihaga qo'yilgan vazifani yechish uchun individual usullarni ishlab chiqishdir. Dizayn ta'limi jarayonida qo'llanish mumkin bo'lgan evristik metodlarni ko'rib chiqamiz.

Assotsiatsiya metodi – yangi g'oyalarni vujudga kelishiga undaydigan metodlaridan birdir. Agar dizaynerlarning ijodiy tasavvuri tashqi muhitni turli g'oyalarga qaratilsa, bu holda bu metod yaxshi natija berishi mumkin. Dizaynerni obrazli fikrlanishini rivojlanishi, uni «o'ylash apparatini» doimiy «harbiy



tayyorgarlikka» olib kelishdir, chunki bu ijodiy shaxsning muhim vazifalaridan biri. U tevarak atrof muhitiga tez ta'sirlanishi va u yerdan assotsiatsiyani olishi kerak. Undan tashqari, zamonaviy dizaynda obrazli fikrlash loyihalashda prinsipial yangi uslub hisoblandi. Ijodiy jarayonda assotsiativ fikrlash juda muhim. Shunday fikrlash dizaynerning ijodining asosi bo'ladi, chunki har qanday san'at asari – bu xotirada tiklangan real dunyoni va buyumlarni assotsiativ tasavvurlash natijasidir. Kostyum dizayneri real borliqni qandaydir transformatsiya va o'zlashtirish natijasida kiyimda qo'llashi mumkin. Kostyumni loyihalashda ijodiy manba sifatida tabiat, voqealar, buyumlar bo'lishi mumkin. Assotsiatsiyalar har xil bo'lishi mumkin: buyumli, abstrakt, psixologik va noreal. Asfaltda ko'lmaklar, muzni yaltiraganligi, yo'lda yoki daladagi loyning fakturasi, yomg'ir tomchisi, derazada ayozning rasmlari va b. – bular barchasi ixtiro qilish uchun ozuqa berishi mumkin. Darhaqiqat, dizaynerning fikri muayyan yo'nalishda bo'lishi uchun u doimiy professional mashqlar qilishi lozim. K.Dior quyidagicha izhor qilgan: «Aslida, mening barcha bilganim, ko'rganim yoki eshitganim hammasi meni asarlarimga ko'chiriladi».

Analogiya (o'xshash) metodi – qo'yilgan vazifani yechish metodi. Bu metodda tarixiy, xalq va milliy kostyumdan, muhandislik yechimlaridan, me'mor inshootlaridan olingan o'xshash yechimlar yaratiladi. Dizayner ijodiy manbani tanlaydi va transformatsiya yordamida uni loyiha yechimiga aylantiradi.

Bionik metodi – bionika konkret obyektlarni tahlilidan iborat. Masalan, hashorotlar qanotlarini tahlil etib, yangi o'ralish shakllarni, ustki kiyimlarni qavatlanishini, detallar transformatsiyasini yaratish mumkin. Ba'zi hashoratlarni nurlanishi ichiga yoritqich o'rnatilgan poyabzalni yaratish g'oyasini to'g'rilashiga sabab bo'lgan. Dizaynda bionik yondoshish o'zgacha konstruktiv bug'implarni, yangi xususiyatli fakturalarni hosil qilishga imkon beradi. Undan tashqari, metod dizayner e'tiborini tabiat ob'ektlarini diqqat bilan o'rganishga; odatiydan qiziqarli g'oya, prinsip va usulni ko'rishga imkon beradi.

Neologiya metodi yangi va mutloqo yot g'oyalardan foydalanish usuli. Umuman aytganda, moda taqlidga asoslangan. Shuning uchun mutaxassislar va ist'emolchilar har bir yangilik yoki alomatni psixologik charchash ro'y berguncha ishlab chiqaradilar. Bunga ham prototipni fazoviy qayta tuzish asosida kiritish mumkin.

Dekompozitsiya va ketma-ket yaqinlashish prinsip metodi – murakkab vazifani qismlarga ajratish va ketma-ket ularni yechish.

Xulosa qilib aytganda, evristik ta'lim usuli bu – o'quvchiga beriladigan



bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Evristik ta‘lim darsda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u o‘quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o‘rganiladigan mazmunning murakkab qismini o‘zlashtirishda o‘qituvchining faoliyati qanday bo‘lsa, o‘quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish evristik ta‘limning asosiy maqsadidir. Evristik ta‘lim – o‘quvchilarning erkin fikrlashlariga, o‘zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta‘sir etishdir. Bunda o‘quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg‘iz fikrlashi, jamoa bo‘lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilishi va to‘plangan fikrni bayon qila olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Новиков А.М. Постиндустриальное общество. Монография. - М.: «Эгвес», 2011.
2. Нуримбетов Р.И., Қаландаровна Г.Қ. Рақобатбардош кадрлар тайёрлашда узлуксиз таълим тизимининг ўрни ва аҳамияти. «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил.
3. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. - М.: «Академия». 2000.
4. Краевский В.В. Общие основы педагогики: учеб. пособие для студ. высш. учеб. пед. заведений, 2- изд. - М.: 2006. - С. 171-179.
5. Мирсолиева М.Т. Андрагогиканинг тараққиёт йўналишлари. Замонавий таълим. 2016. № 1. - Б. 9-13.
6. Learning and skills for adults in Europe. December 2016. <http://www.eaea.org/media/policy-advocacy/eaea-statements/learningandskills-for-adults_final.pdf>.
7. <http://www.eaea.org/en/policy-advocacy/eaea-statements.html>.



IJTIMOYIY FAN SOHASI BITIRUVCHILARINING SHAXSIY VA KASBIY RIVOJLANISHIDA INNOVATSION MOSLASHUVCHAN BOSHQARUVNING O'RNI VA AHAMIYATI (davomi)

A.S. DJURAYEV,

Bosh ilmiy-metodik markaz, (PhD)

Mazkur maqolada ijtimoiy fan sohasi bitiruvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida innovatsion moslashuvchan boshqaruvning o'rni va ahamiyati tavsifi berilgan. Moslashuvchan ta'lim tizimining muhim xususiyatlaridan biri uning ishlab chiqarish qobiliyatidir. Ilmiy tadqiqotlar va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, adaptiv tizimda turli xil pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi mumkin

Kalit so'zlar: *moslashish / adaptiv muhit / adaptiv boshqaruv / innovatsion moslashuvchan boshqaruv.*

В данной статье описывается роль и значение инновационного гибкого менеджмента в личностном и профессиональном развитии выпускников социальных наук. Одной из важных особенностей гибкой образовательной системы является ее продуктивность. Анализ научных исследований и практики профессиональной подготовки учителей показывает, что в адаптивной системе могут использоваться различные педагогические технологии.

Ключевые слова: *адаптация / адаптивная среда / адаптивное управление / инновационное адаптивное управление.*

This article describes the role and importance of innovative flexible management in the personal and professional development of graduates of the field of social science. One of the important features of a flexible educational system is its productivity. The analysis of scientific research and the practice of professional training of teachers shows that various pedagogical technologies can be used in the adaptive system

Key words: *adaptation / adaptive environment / adaptive management / innovative adaptive management.*

Talabalarni kasbiy tayyorlashning o'quv dasturi kelajakdagi mutaxassisning ijtimoiy-pedagogik faoliyatining mumkin bo'lgan sohalari asosida tuzilishi kerak. Masalan, «Voyaga yetmaganlar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat» qo'shimcha ixtisosligini amalga oshirish o'quv jarayoniga «Voyaga yetmaganlar bilan ijtimoiy-pedagogik ish asoslari» maxsus kurslarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Ta'lim mazmuni o'quvchining shaxsiy faolligini, agar u o'quv vaziyatiga u uchun semantik ahamiyatga ega bo'lgan vazifa shaklida kiritilgan taqdirda yuzaga keltiradi. O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim sohasidagi olimlarning (E.V.



Bondarevskaya, V.P.Bespalko, D.A.Beluxin, S.V.Kulnevich va boshqalar) ishlariga asoslanib, adaptiv ta'lim tizimi mazmunining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– aksiologik, bo'lajak mutaxassisni umuminsoniy va kasbiy qadriyatlar dunyosiga kiritishni ta'minlaydi, bo'lajak Ijtimoiy-gumanitar fanning professor-o'qituvchilarining qadriyat yo'nalishlarini, kasbiy faoliyatning gumanistik motivlarini, ijtimoiy va shaxsiy Kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan;

– umumiy rivojlanish, o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini, umumiy ilmiy Kompetensiyalarni rivojlantirish usullarini o'z ichiga oladi;

– o'quvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga qiziqishini uyg'otadigan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur o'zlashtirishni, umumiy pedagogik Kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlaydigan o'qitish;

– kognitiv, kelajakdagi mutaxassisning ma'naviy rivojlanishining asosi sifatida inson, madaniyat, tarix, tabiat, noosfera haqidagi bilimlar tizimini shakllantirishga imkon beradi, ijtimoiy pedagogikaning asosiy toifalari va tushunchalarini amalga oshirishning asosiy asosi sifatida ochib beradi. ijtimoiy-pedagogik faoliyat;

– bo'lajak mutaxassislar tomonidan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mavzu mazmunini o'zlashtirish tajribasini qamrab oladigan, kasbiy faoliyatda shaxsning o'zini o'zi anglashi uchun zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni, talabalar faoliyatining turli usullarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat-ijodiy. ijtimoiy o'qituvchining samarali faoliyati uchun zarur;

– refleksiv-shaxsiy, shaxsning o'zini o'zi bilishini, uning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi takomillashtirish, axloqiy o'zini o'zi belgilash usullarini o'zlashtirishga qaratilgan, kelajakdagi ijtimoiy o'qituvchining hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi; talabaning kasbiy Kompetensiyasini shakllantirishda erishilgan natijalarni o'z-o'zini baholashga, uni rivojlantirishdagi muammolarni, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish asosida ularni hal qilish yo'llari va mexanizmlarini tushunishga qaratilgan.

Talabalarning shaxsiylashtirilgan kasbiy tayyorgarligining ishlab chiqilgan adaptiv tizimi o'quv fanini mustaqil o'rganish uchun interfaol o'quv tizimi sifatida foydalanish mumkin. Ushbu tizimdan foydalanishning interaktiv algoritmi umumiy texnologik fokus bilan o'zaro bog'langan birinchi bosqichni o'z ichiga oladi. Keyinchalik nazorat ikkinchi bosqichga o'tkaziladi, bunda o'quvchilarni dastlabki



sinovdan o'tkazish va hal qilinayotgan vazifalarning to'rtta murakkablik darajasining har biri uchun shaxsiylashtirilgan modellar koeffitsientlarini hisoblash amalga oshiriladi ($y = 1,4$). Bundan tashqari, bu yerda ta'lim ma'lumotlarining invariant yadrosi va uning motivatsion komponenti hajmi o'rtasidagi nisbat ham o'rnatiladi. Ma'lumki, bu nisbat hal qilinayotgan vazifalar darajasiga bog'liq va shuning uchun indeksning har bir qiymati uchun) har xil bo'lishi mumkin. To'rtinchi bosqich barcha to'rt turdagi modellarning koeffitsientlarini to'ldirishning to'g'riligini tekshiradi. Beshinchi bosqichda o'quvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning bashorat qilingan traektoriyalari ham hal qilinayotgan o'quv vazifalarining to'rtta murakkablik darajasi bo'yicha hisoblanadi. Bu hisob-kitoblarning natijalari koordinatalarda grafik ko'rinishda shakllantiriladi va talabanning ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Shu bilan birga ular kompyuter monitorida proeksiyalanadi.

Oltinchi bosqichda talaba tomonidan o'rganilayotgan fan bo'yicha o'quv materialini o'zlashtirish monitoringi amalga oshiriladi. Bu ish jarayonida hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar indeksiga ko'ra, axborot-ta'lim tizimi talabaga bilimlar bazasidan kerakli miqdordagi hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni beradi. Har bir vazifani hal qilish uchun ma'lum vaqt ajratiladi. Talaba ishining natijalari: muvaffaqiyatli o'zlashtirilgan o'quv elementlarining soni va ularning o'ziga xos matritsadagi identifikatsiyasi va o'rganilmagan elementlar uchun ham xuddi shunday talabalar ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va keyinchalik bilim monitoringi protokolini shakllantirish va haqiqiy ishlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Yettinchi bosqich – o'quvchining shaxsiylashtirilgan ta'lim modelini tuzatish uchun uning qobiliyatlarini tahlil qilish. Gap shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchining psixologik va faoliyat ko'rsatkichlari o'rganish samaradorligini oshirish yo'nalishida ham, teskari yo'nalishda ham o'zgarishi mumkin. Shuning uchun, qat'iy aytganda, o'quvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning shaxsiylashtirilgan modellarining koeffitsientlari barcha uchun talabanning rivojlanishi bilan o'zgaradi. Shu munosabat bilan bilimlarni assilyatsiya qilish modellarini tuzatish kerak.

Agar biz o'quvchilarning intellektual o'sishi o'quv oqimi bo'yicha o'rtacha sekin sodir bo'ladi degan fikrga amal qilsak, prinsipial jihatdan modellar tuzatilishi mumkin emas. Bunday holda, nazorat 9-bosqichga o'tkaziladi, bu yerda talabanning kognitiv faolligini tashqi qo'llab-quvvatlash hisoblab chiqiladi. Ushbu jarayon didaktik tizimni modal boshqarish g'oyasiga asoslanganligi sababli, to'qqizinchi



bosqichda xarakterli polinomlarning koeffitsientlari birinchi navbatda dastlabki didaktik tizim va mos yozuvlar didaktik tizim uchun (o'zlashtirishning mos yozuvlar traektoriyasiga mos keladi) hisoblanadi. Aniqrog'i, bu bosqichda hisoblangan shaxsiylashtirilgan tashqi yordam vazifalari to'plamidan o'quvchilar o'quv materialini qanchalik o'rganganligi qayd etiladi. Ushbu ma'lumotlar talabalar bazasida qayd etilgan. Va bu yerda, **o'ninchi bosqichda**, o'quv jarayonining oldingi ikki haftasi uchun talaba tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning haqiqiy traektoriyalari hisoblanadi. Ushbu hisob-kitoblarning natijalari, shuningdek, talaba, talabalar guruhi yoki umuman talabalar oqimi uchun yakuniy protokolni shakllantirish uchun talabalar ma'lumotlar bazasiga yuboriladi.

Yakuniy o'n birinchi bosqich ma'lum kvalimetriya momenti yoki har qanday vaqt oralig'i uchun yakuniy protokolni tayyorlash va chop etishni belgilaydi.

Talabaning kiritgan ma'lumotlari, psixologo-faoliyatning dastlabki sinovlari natijalari, hal qilinayotgan vazifalarning to'rtta murakkablik darajasi uchun bilimlarni o'zlashtirishning shaxsiylashtirilgan modellari koeffitsientlari, bashorat qilingan va haqiqiy traektoriyalar chop etiladi. Ishlab chiqilgan algoritmni sinovdan o'tkazish uning yuqori samaradorligi va tavsiya etilgan o'qitish texnologiyasining samaradorligini ko'rsatadi.

Kam ta'minlangan oilalar yoshlarining oliy ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish uchun moliyalashtirish masalasini hal etishning o'zi yetarli emas, bu murakkab muammoga kompleks yondashish talab etiladi. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy, boshqaruv va o'qitish mexanizmining moslashuvchanligini ta'minlovchi kredit modul tizimi bilan talabaning individual ta'lim tezligi va to'lov imkoniyatlari sinxronlashtiriladi. Bundan tashqari, ta'lim kreditini to'lashning yangi mexanizmlarini yaratish va joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. Buning natijasida pullik ta'lim olayotgan talabalar o'qish muddatini uzaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ta'lim jarayonini qayta tashkil etish, moliyalashtirish mexanizmini yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday mexanizm yangi shaffof hisobot tizimining mavjudligini talab qiladi.

Ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish tizimini yo'lga qo'yish deganda ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarni akkreditatsiya qilish mexanizmlarini mamlakatimizda joriy etish, ta'lim muassasalarining akkreditatsiyadan o'tishga qiziqishini rag'batlantirish, o'z-o'zini tahlil qilish ishlarini yanada takomillashtirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalarida o'qishning afzalliklarini targ'ib qilish, institutsional (ta'lim muassasasining umumiy



akkreditatsiyasi) va dastur (alohida mutaxassisliklar bo'yicha akkreditatsiya) bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazish, mamlakatimizda qo'llaniladigan ta'lim dasturlarini ta'lim dasturlari va sifat mezonlari bilan solishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуқуддусов О. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашга интегратив ёндашув. - Т.: Фан, 2005. - 157 б.
2. Абдуқодиров А.А. ва бошқалар. Ахборот технологиялари. - Т.: Ўқитувчи. 2002. - 133 б.
3. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. - Казань: Изд-во Казанского университета. 2002. - 567 С.
4. Астапенко Е.В. Педагогическое обеспечение формирования конкурентоспособности личности студента в образовательном процессе вуза: Автореф. дис.к.п.н. по специальности 13.00.01. - Красноярск, 2008. - 24 С.
5. Атласова А.Д. Использование кейс-технологии в образовательном процессе//Дистанционное и виртуальное обучение. - 2010. - №10.-С.105-112.



BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANISH YO‘LLARI

M.A.XIKMATOVA,

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti magistranti

Mazkur maqola bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion ta‘lim muhitida kasbiy tayyorlash shart-sharoitlari, imkoniyatlari haqidagi masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bo‘lajak maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy sifatleri, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan fikrlar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv, inklyuziv ta‘lim, shart-sharoitlar, qadriyatli, ijtimoiy va me‘yoriy shart-sharoitlar, gumanistik tarbiya*

This article is devoted to the issues of the conditions and possibilities of professional training of future educators in an innovative educational environment, and it also describes the ideas that future preschool educators should acquire regarding the development of professional qualities, knowledge and skills.

Key words: *inclusive, inclusive education, conditions, valuable, social and normative conditions, humanistic education*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi «Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘ri-sida»gi PQ-3261-son qarorida mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta‘lim sohasida davlat siyosatini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan sabablar ko‘rsatilgan, xususan, «kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta‘lim sohasini bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlay olmaydi» [1]deya ta‘kidlab o‘tilgan.

Pedagogika sohasi bo‘yicha oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartiga muvofiq kasbiy faoliyatning asosiy turlari quyidagilardan iborat: «pedagogik, ilmiy-tadqiqot, loyihalash, metodik, boshqaruv, madaniy-ma‘rifiy» [186]. Faoliyatning mazkur turlari doirasida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash dasturini o‘zlashtirgan bitiruvchi qator kasbiy masalalarni hal etishga tayyor bo‘ladi. Tadqiqotimiz asnosida bizni loyihalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar qiziqtiradi.

Loyihaviy faoliyat doirasida bo‘lajak tarbiyachilar quyidagi masalalarni hal etadi:

– bolalarning ta‘lim dasturlari va individual ta‘lim yo‘nalishlarini (marshrutlarini) loyihalashtirish;



- materiallar mazmuni, nazoratning shakl va metodlari hamda nazorat-o'ldash materiallarini loyihalashtirish;
- ta'lim jarayoni sifatini ta'minlovchi ta'lim muhitini loyihalashtirish;
- kelgusidagi ta'lim yo'nalishi (marshruti) va kasbiy karerani loyihalashtirish [186].

Bo'lajak tarbiyachining bajarishga tayyorlanayotgan madaniy-ma'rifiy faoliyati shuningdek «mintaqaviy va demografik omillarni hisobga olgan holda turli xil ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlariga qaratilgan majmuaviy ma'rifiy dasturlarni» [186, 5 b.] loyihalashtirish va amalga oshirish masalalarni yechishni nazarda tutadi.

Ta'kidlash kerakki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashning kompetentli natijalari quyidagi to'rtta kompetensiyalardan iborat bo'lgan guruhlar orqali taqdim etiladi: ta'lim muhitini, loyihalashtirish qobiliyati (ko'nikmasi) shu jumladan, inklyuziya sharoitlarida ham; ta'lim dasturlari va individual ta'lim yo'nalishlarini (marshrutlarini) pedagogik loyihalashtirish ishlarini amalga oshirishga tayyorligi; ta'lim sifatini nazorat qilishning shakllari va metodlari, nazorat-o'ldash materiallarining har xil turlarini, shu jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda xorijiy tajribani hisobga olgan holda loyihalashtirish ko'nikmasi; fan, texnologiyalar hamda o'qitishning aniq metodikalar mazmunini loyihalashtirish ishlarini amalga oshirishga tayyorligi.

Bunda kompetensiyalarning biri inklyuziv ta'lim tizimi talablariga javob berishini ko'rishimiz mumkin. Aynan shu yerda biz tadqiqotimiz davomida yechishga urinayotgan quyidagi asosiy ziddiyat yuzaga keladi: kasbiy standartlar, barcha pedagoglar oldiga ularning jinsi, yoshi hamda kasbiy tayyorgarligidan qat'iy nazar bir xil talablarni qo'yadi va OTM nafaqat OTning DTS malaka talablariga, balki ish beruvchilarning hamda ta'lim tizimining dolzarb ehtiyojlari va muammolariga e'tibor qaratgan holda kasbiy standartlar talablariga maksimal darajada javob bera oladigan bitiruvchini tayyorlash masalasini yechishi lozim.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi ta'lim dasturlari uning mazmunini shakllantirish va o'quv jarayonini tashkil etishga oid an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg'un holda birlashtiradi va bu o'z navbatida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini umumiy tarzda ta'limning mintaqaviy sohasidagi va xususan, ta'limning dolzarb ehtiyojlariga mos ravishda ta'minlaydi; ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim tizimining innovatsion jarayonlariga tezkorlik bilan kirishib keta oladigan mutaxassislarni tayyorlash; talabalarda kasbiy kompetensiyalarning



ta'lim va kasbiy standartlar talablariga muvofiq ravishda inklyuziv ta'lim muhitining real sharoitlariga yaqinlashtirilgan holatda universitetning maktabgacha ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik tarmoqlari tizimi asosida shakllantirish imkonini beradi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash dasturi mazmuniga nisbatan o'zining yuksak talablarini qo'yadi va binobarin, fundamental ta'lim, maxsus ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik, pedagogik va diplomoldi amaliyot, loyihaviy faoliyat, bitiruv malakaviy ishni yozish va himoya qilish ishlarini o'z ichiga olgan o'quv rejasi tarkibida aks ettirilgan.

Tarkibi jihatidan maktabgacha ta'lim yo'nalishi dasturi quyidagi bloklardan iborat: tizimli va pedagogik tafakkurni rivojlantirish imkonini beruvchi umumtizimli blok inklyuziv ta'limni tashkil etish hamda amalga oshirish sohasida fundamental bilimlar beradi; mutaxassislikka ega bo'lish bloki nogironligi mavjud va sog'ligi jihatidan imkoniyatlari cheklangan kishilarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirishlari imkonini beradi; loyihaviy amaliyot metodologiyasi va texnologiyasi bloki loyihaviy jarayonlar nazariyasini o'zlashtirish, ulami amalga oshirish mexanizmlari, boshqarish vositalari va loyihaviy amaliyotni (tajribani orttiradi va loyihalash ko'nikmalarini shakllantiradi) ta'minlaydi; amaliyotning barcha turlaridan o'tash chog'ida individual traektoriyalar bo'yicha inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantiradi; ilmiy-tadqiqiy (ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi) va BMI (malakani tasdiqlaydi).

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentligini rivojlantirishda ta'lim jarayoni sifatini boshqarishning samarali vositasi sifatida o'qitish sifatini baholash tizimini tashkil etish muhim o'rin tutadi. Ularga har bir o'quv moduli bo'yicha baholashning differensiyalashgan tizimi kiradi. Amaliyot fanlarni (modullarni) o'zlashtirish jarayonida talaba belgilagan ta'lim traektoriyalari bilan uyg'unlashadi.

Ta'lim dasturi «kasbiy faoliyatning taqdim etilgan sohalari doirasida olib boriladigan tayyorgarlik chog'ida bitiruvchilar ta'lim va maktabgacha ta'lim pedagogikasi hamda pedagogik reallikni isloh qilish borasida tadqiqot olib borish; har xil turdagi ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashtirish va amalga oshirish shu jumladan, inklyuziv amaliyotlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha ishlarni bajarish; ta'lim dasturlarini moslashtirish, individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish, tarbiyalanuvchilarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini metodik jihatdan ta'minotini yo'lga qo'yish; tarbiyalanuvchilarning turli xil kontingenti bilan manzilli



ishlash uchun zarur bo'lgan inklyuziv texnologiyalarni o'zlashtirish va qo'llash bo'yicha; inklyuziv amaliyotni ro'yobga chiqaruvchi ta'lim muassasasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish; ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhitini gumanizatsiyalash; tarbiyalanuvchilarda umumiy madaniyatni shakllantirish va ijtimoiylashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; pedagogik, rekreativ, rehabilitatsion, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim muassasalarining ijtimoiy-madaniy sohasini takomillashtirish; ijtimoiy-madaniy va ta'lim sohalarida shaxslararo va idoraviy munosabatlarni qurish ko'nikmalariga ega bo'ladilar» [2, S. 64].

Shunday qilib, bir tomondan, davlat ta'lim standarti malaka talablarida belgilangan kasbiy kompetensiyalarning kompleksli shakllantirilishiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, inklyuziv ta'lim sharoitlarida ishlashga tayyorlangan maktabgacha ta'lim kadrlariga muhtoj bo'lgan ish beruvchilarning buyurtmalariga yarasha javob hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-3261-сон қарори // <https://lex.uz/d/docs/333423>.
2. Горюнова Л.В. Магистерская подготовка педагогических кадров для системы инклюзивного образования // Проблемы современного педагогического образования. 2015. № 48-5. С. 56-64.



O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQ HUNARMANDCHILIGIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI

C. C. IGAMOV,

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
«Umumtexnika fanlari va texnologiyalar»
kafedrası o'qituvchisi*

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga xalq hunarmandchiligini o'rgatish asosida kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik sharoitlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z: *dars, o'quvchi, hunarmand, xalq hunarmandchiligi, kasb ta'lim-tarbiya tizimi, maktab.*

В данной статье рассматриваются педагогические условия профориентации на основе обучения учеников на народные ремесле в занятиях технологии в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: *Урок, ученик, ремесленник, народное ремесло, профессия, система образования, школа.*

This article discusses the pedagogical conditions of vocational guidance based on the training of students in folk crafts in technology classes in secondary schools.

Key words: *lesson, pupil, craftsman, folk crafts, profession, educational system, school.*

Ta'lim-tarbiya jarayonining mantiqiy uyg'unligini oshirish, xalq hunarmandchiligi darslarida dasturiy materiallarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning mantiqiy ketma-ketligi, izchilligi, uzluksizligi hamda uzviyligini bo'lajak xalq hunarmandchilik ustalarining nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ta'minlash; bo'lajak xalq hunarmandchiligi ustalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatiga metodik rahbarlik qilishni rejalashtirish, takomillashtirish, nazorat qilishning oqilona shakllarini ishlab chiqish; texnologiya ta'limi jarayonini zarur jihozlar, jumladan, texnik va ko'rgazmali vositalar, shuningdek, naqsh kompozitsiyalarini ishlashda kompyuter dasturlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanidan xalq hunarmandchiligi mashg'ulotlarida o'quvchilarning ongi va tafakkurini rivojlantirish, nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish o'quvchilik burchi va majburiyatlarini anglab yetishni o'rgatib borishda ta'lim-tarbiyaning turli metod va vositalaridan keng qamrovda foydalanishni nazarda tutish; har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan



holda, puxta rejalashtirilgan bo'lishi, uning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarining ahamiyati, dars bosqichlari, ko'rgazmali materiallardan foydalanish, g'oyaviy, mafkuraviy mazmuniga mos kelishi, nazariyaning amaliyot bilan uzviyligi, ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanishi, o'ziga mos usul, metod va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro faol munosabatda bo'lishi hisobga olinishi zarur.

Metodologiyada tajribalar o'ziga xos xususiyatlariga qarab farqlanadi:

- o'qitish jarayonida metodlar qo'llanilishiga nisbatan yaxshi natija ko'rsatuvchi tajribasiga;
- o'quvchilarni boshqara olish, o'ziga jalb qilish tajribasiga asosan boshqarish faoliyatiga;
- yangi, noyob bilimlarni yaratuvchilikka, tadqiqotchilikka, ijodkorlikka yo'naltirish tajribasiga;
- tajriba, tahlil va ekspert ishlarini o'tkazish kasbiy mahoratiga qarab tajribalar almashish kuzatiladi.

Har qanday tajribani to'g'ridan to'g'ri qo'llab bo'lmaydi. Ularni milliy xususiyatimizdan kelib chiqqan holda, metod bo'lsa mavzuga, dars bosqichiga; tadqiqotchilik harakatlari bo'lsa, o'quvchilarning o'zlashtirishiga moslashtirib qo'llaniladi. Faqat ilg'or ish tajribalarni tanlashda uning dolzarbligi, qo'llash uchun shart-sharoitning yaratilganligi, tajribaning yaxshi natijaga olib kelishiga ahamiyat berish lozim.

Bo'lg'usi kasb-hunar egalarini tayyorlashda pedagogik, psixologik ta'lim-tarbiya muassasalari doimo katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan va kelmoqda.

Bo'lg'usi mutaxassislarni tayyorlash tizimi asosan, 3 qismdan iborat bo'lgan nazariy asosni (ta'lim maqsadi, mazmuni va uslublari) qamrab olib, o'quvchilarni kelajak hayotga, mehnatga, ma'lum kasbga tayyorlashda ta'lim maqsadini aniqlashtirish – bo'lg'usi mutaxassis qanday bo'lmog'i, qanday kompeten-siyalarga ega bo'lmog'i lozim, qanday funksiyalarni bajara olish mumkin, deb nomlangan muammolarni ta'lim maqsadiga shakllantirishdir. Hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlari mazmuni o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi asoslarini o'rgatishga yo'llash ishi – ta'lim mazmunini aniqlashdir.

Joriy texnologik ta'lim kursini milliy qadriyatlarimiz, xalq hunarmandchiligi mazmuni bilan boyitish yoki ko'plab to'liq yangilash ta'lim mazmuniga qo'yilgan davlat talabi, buyurtmasi hisoblanadi.

Ta'lim maqsadini va mazmunini amalga oshirishda o'quv jarayonida, albatta, o'ziga xos usullar qo'llaniladi. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quv



mashg'ulotlarni o'tkazish uslubiyati – ko'rgazmalilik, tabiiy va suniy obyektlarni namoyish qilish, amaliy mashqlar, bajarilgan operatsiyalarni, usullarni qayta-qayta bajarib ko'rsatish, mustaqil ishlarni tashkil etish va boshqalardir.

Bo'lg'usi mutaxassislarni tayyorlash ishining ta'lim tizimi maqsadini yozma ifodalash mutaxassis siymosi, faoliyat siymosi bilan, bilim, ko'nikma, malakalar turi bilan uzviy bog'liqdir.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muxim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atning ko'pdan-ko'p sohalarini bilan uyg'unlashib ketadi. Tasviriy va amaliy san'at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining hamda xalq hunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llarini, xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun biz moddiy ma'naviyatning, madaniyatning ushbu sohalarining mavjud ta'riflarni keltirib, taqqoslab o'tmoqchimiz.

Tasviriy san'at – san'at turi bo'lib, rassomlik, grafika, haykaltaroshlik, foto va boshqa san'at sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, o'rni bo'lishini o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi[83].

Amaliy bezak san'ati – tasviriy san'atning eng qadimgi turlaridan biri va materialga, bezak texnikasiga qarab farqlanadi. Xalq turmush madaniyatini xarakterlaydi. Amaliy bezak san'ati buyumlarining badiiyligi shu buyumlarning amaliy funksiyasi bilan bog'liq.

Hunarmandchilik – har xil oddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli ishlab chiqarish mahsulotlari tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi sifatida talqin etiladi. Bu sohaga kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, haykaltaroshlik, o'ymakorlik, tosh-taroshlik, ko'ncilik, pichoqchilik, do'ppichilik va boshqalar kiradi. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, xalq hunarmandchiligining mohiyati, mazmuni, tuzilishi, xususiyati, o'ziga xosdir. O'zbek xalqining shakllanishi tarixi bilan uyg'unlashib ketgan xalq hunarmandchiligining o'nlab turlari bo'lishiga qaramasdan, hozirgi zamon ta'lim tarbiya tizimida ulardan deyarli foydalanmasdan kelinishi mavjud texnologiya va kasbga yo'naltirish ta'lim tizimining milliy, mahalliy, etnik, tarixiy xususiyatlaridan ajralib qolishga sabab bo'lmoqda.

Respublikamizdagi xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Qo'qon, Chust, Shahrisabz va boshqa markazlarning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib, o'ziga xosligi jihatdan bir-biridan ajralib turadi.

Xalq amaliy bezak san'ati tabiiy jismga badiiy ishlov berish faoliyatidan



boshlangan. Inson badiiy-ijodiy tafakkuri mahsuli bo'lgan bu faoliyat tosh asrida paydo bo'lgan va uning yashashi uchun go'zal muhit yaratishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, bu faoliyat inson qalbida komillikka va erkinlikka intilishni kuchaytirgan hamda unga cheksiz imkoniyatlar sohibi ekanligini anglatgan. O'z navbatida inson ongi va tafakkuri rivojlanib, ma'naviy ehtiyojlarini ortib borishi bilan mazkur san'atning mazmuni, turlari hamda badiiy ifoda vositalari boyib, rivoj topib borgan.

Xalq amaliy bezak san'ati naqshlar asosida buyumlarga badiiy ishlov berishdan iboratdir. Naqshlar jismga turli yo'llar va vositalar yordamida chizib, o'yib, zarb bilan, qadab, qo'l choklari yordamida, to'qib, gul bosib tushirilgan. Naqshlarni buyumga tushirish usullarining boyib borishi xalq amaliy bezak san'ati hamda xalq hunarmandchiligi turlarining paydo bo'lishiga olib kelgan: naqqoshlik, yog'och o'yakorligi, zargarlik, ganchkorlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik va hokazo.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini texnologiya ta'limida kasbga tayyorlashni takomillashtirishda, xalq hunarmandchiligidan foydalanishning pedagogik sharoitini tadqiq qilishda quyidagi jihatlariga e'tibor berish lozim:

1. Texnologiya darslarida o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalash maqsadida mutafakkir, donishmandlar, olimlar asarlarining tarixiy manbalarida yoritilgan mazmunini o'rganish, tahlil qilish orqali mazkur sohaning hozirgi davrdagi ilmiy, nazariy poydevorini yaratish lozim.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya darslarida o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalash maqsadida xalq hunarmandchiligi sohalarining milliy, mahalliy, hududiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o'quvchilar faol ishtirok etadigan sohalarini tanlab olib, ularning o'qitilish jihatlari rivojlantirilishi lozim;

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlari mazmunini tanlashda o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalashda, xalq hunarmandchiligi asoslarini o'rganishini tarkib toptirish hamda ularga xalq hunarmandchiligining zamonaviy sohalarini misolida o'rgatish lozim;

4. O'quv jarayonida o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalashda ta'limning maqsad va vazifalarini belgilashda, albatta, ularning o'ziga xos pedagogik usullari va vositalaridan foydalanish lozim bo'ladi.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda qo'yilgan talablar o'quvchilarni mehnatga tayyorlashning muammolari yechimini topishga qaratilgan izlanishlar faollashuviga sabab bo'ldi. Bu boradagi tadqiqotlarning yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo'nalishlarini qayd etish mumkin:



– o‘quvchilarning kasblar olamida yo‘nalish olishiga yordam beruvchi hamda o‘z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko‘nikmalari zarur darajasini ta‘minlovchi axborotlar tizimini yaratish;

– o‘quvchilarni mehnat tarbiyasiga yordam berish maqsadida shaxsni o‘rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;

– yoshlarga kasbiy konsultatsiyalar uyushtirishning nazariy va metodik asoslari;

– mehnatga tayyorlashning ijtimoiy ahamiyatli motivlarini asoslash;

– O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish sharoitida o‘quvchilarni mehnatga tayyorlashning metodik asoslari;

– alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo‘llash ishini boshqarish xususiyatlari.

To‘garak ishini tashkillashtirish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy vazifalarga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi:

– tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar majmuasi va maqsadli dasturlar tuzish;

Анализ уровня сформированности творческой языковой активности был проведен методом комплексного экспертного оценивания с использованием матриц свертки (результаты оценивания представлены в табл. 2. При этом выявлена ведущая роль личной составляющей творческой языковой активности, а в ее составе – креативности. Анализ результатов эксперимента позволяет сделать следующие выводы.



Результатом исследования явились научно-обоснованные методические рекомендации и апробированная система занятий со студентами факультета математики и информатики по развитию их творческой языковой активности, включающая в себя спецкурсы «Развитие творческой языковой активности личности» и «Практикум по технологии обучения английскому языку» разработанные на основе:

Таблица № 2

Уровень сформированности творческой языковой активности студентов

Уровень	Констатирующий эксперимент, %	Формирующий эксперимент%
Низкий	46,7	8,9
Средний	48,9	73,3
Высокий	4,4	17,8

– уточненного и дополненного содержания понятия «языковая творческая активность»;

– выявленных в результате анализа результатов входного тестирования (констатирующий эксперимент) и ранжирования компонентов творческой языковой активности учебно-педагогических задач и адекватных форм и методов их решения (формирующий эксперимент);

– сформулированных требований к социально-педагогической среде, оптимальной с точки зрения развития творческой языковой активности;

– определенных в исследовании требований к составу и структуре системных занятий по развитию творческой языковой активности студентов.

Результаты исследования позволяют утверждать, что цель достигнута и выдвинутая гипотеза получила экспериментальное подтверждение.

Литература:

1. Комарова М.Ю. Развитие творческого потенциала будущих учителей во внеаудиторной деятельности. - Иркутск, 20
2. Сидорова Т.Б. Педагогическое действие развитию у студентов-лингвистов способности к межкультурному принятию. - Хабаровск, 2010
3. Ситникова М.И. Педагогические условия творческой самореализации личности молодого учителя. - Белгород, 1995.
4. А. Шаламова О.О. Развитие ключевых компетенций будущего учителя иностранного языка в условиях гуманитарного вуза. - Хабаровск, 2007.



ОБУЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКЕ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Н. Я. АХМЕДОВА,

старший преподаватель кафедры
Узбекского и иностранных языков
Таможенного института ТК РУз
подполковник таможенной службы

В статье рассматриваются особенности обучения терминологии в процессе непрерывного образования. Доказывается актуальность и предпосылки профессионально-ориентированного обучения русскому языку на базе среднего, среднего специального и высшего образования. Автор уделяет внимание вопросам профессионально-ориентированного обучения с целью формирования профессиональной коммуникации на русском языке, а также сопутствующие этому трудности и возможные пути их устранения.

Ключевые слова: процесс обучения, система непрерывного образования, профессиональная коммуникация, учебная деятельность, профессионально-ориентированное обучение, профессиональная лексика.

The article discusses the features of terminology teaching in the process of continuing education. The relevance and prerequisites of professionally-oriented teaching of the Russian language on the basis of secondary, secondary specialized and higher education are proved. The author pays attention to the issues of professionally-oriented teaching in order to form professional communication in Russian language, as well as the difficulties associated with this and possible ways to eliminate them.

Key words: learning process, continuing education system, professional communication, educational activity, professionally-oriented training, professional vocabulary.

Maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida terminologiyani o'qitishning xususiyatlari muhokama qilinadi. O'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim negizida rus tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitishning dolzarbligi va zaruriy shartlari isbotlangan. Muallif rus tilida professional muloqotni shakllantirish uchun kasbiy yo'naltirilgan ta'lim masalalariga, shuningdek, bu bilan bog'liq qiyinchiliklarga va ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan usullariga e'tibor beradi.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, uzluksiz ta'lim tizimi, kasbiy muloqot, o'quv faoliyati, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim, kasbiy leksika.

На сегодняшний день в нашей стране под лозунгом «Новый Узбекистан на пути к третьему Ренессансу» в сфере образования осуществляются кардинальные реформы, принята новая редакция Закона об образовании.



Всем нам известно, что непрерывное образование является целостной образовательной системой, состоящей из этапов, связанных на основе взаимной логической последовательности, развивающиеся от простого к сложному. Непрерывное образование служит основой для достижения эффективных результатов в образовательном процессе.

Согласно современной концепции в системе непрерывного образования, главной целью обучения иностранным языкам, в том числе русскому языку в неязыковом вузе является формирование иноязычной коммуникативной компетенции будущего специалиста, позволяющей использовать иностранный язык как средство профессионального и межличностного общения. В связи с этим, в методике преподавания русского языка как иностранного в вузе на современном этапе особое внимание уделяется обучению профессионально-ориентированной лексике, целью которого является эффективная коммуникация в профессиональной сфере. Целью данной статьи является анализ некоторых существующих трудностей изучения профессионально-ориентированной лексики на русском языке в национальных группах в высших учебных заведениях и способы решения возникающих трудностей.

В процессе обучения профессионально-ориентированной лексике на русском языке обучающиеся обращаются к базовой лексике, приобретенной ими до поступления в институт. Процесс пополнения базовой лексики формируется в стадии среднего и средне-специального образования. На сегодняшний день в школьную программу введены предметы, дающие фундамент к правовой лексике, но данные предметы изучаются на родном языке. В школьных учебниках по русскому языку в национальных группах представлен лексический минимум правовых терминов. В средне-специальных образовательных учреждениях у обучающихся формируются навыки профессиональной коммуникации посредством чтения текстов на профессиональную тематику.

Целью обучения русскому языку в высших учебных заведениях является систематизировать, дополнить и углубить знания по русскому языку, полученные в школе, академическом лицее и профессиональном колледже.

Под профильно-ориентированным понимается обучение, основанное на учете потребностей учащихся в изучении иностранного языка, диктуемых характерными особенностями профессии или специальности,



которые, в свою очередь, требуют его изучения, – писал еще в 70-х гг. XX века И.М. Берман [1,87].

Задачами профессионально-ориентированного обучения русскому языку являются:

– развитие коммуникативных умений по видам речевой деятельности (говорение, аудирование, чтение, письмо). Успешное овладение навыками профессиональной диалогической речи заключается в умении вести беседу на различные темы, обмениваться информацией профессионального характера. Монологическая речь предполагает умение выступить с докладом на собраниях, конференциях, уметь высказывать свою точку зрения в дискуссии. Целью обучения аудирования является формирование умений восприятия и понимания высказываний собеседника на иностранном языке, в соответствии с определенной служебной ситуацией. Результатом обучения чтению становится владение всеми видами чтения публикаций различных жанров, в том числе и чтение нормативно-правовых документов. Целями обучения письму являются умение составления служебных документов (рапорт, служебное письмо, акт, отчет и др.), перевод, а также оформление договоров и других документов.

– овладение определенными языковыми знаниями (фонетическими, грамматическими формами, правилами словообразования, лексических единиц). Языковые знания приобретаются на протяжении всего курса, так как каждая тема или ситуация общения соотносится с определенными языковыми и речевыми средствами.

– овладение определенным набором единиц профессиональной лексики, специальной терминологией. Изучение языка специальности требует усвоения большого количества терминов и специальных понятий, необходимых будущему специалисту. Но за время, отведенное на изучение русского языка в неязыковом вузе, невозможно овладеть всей терминологией, поэтому очень важным является развитие у слушателей навыков работы со специальными словарями, глоссариями, справочниками по специальности [2, 211].

Сущность профессионально-ориентированного обучения русскому языку заключается в его интеграции со специальными дисциплинами с целью получения дополнительных профессиональных знаний и формирования профессионально значимых качеств личности. Отсюда и происходит основная сложность реализации такого обучения в вузах. Преподаватели, ведущие занятия по



русскому языку, получили лингвистическое и педагогическое образование и не владеют специфической профессиональной лексикой, часто не имеют представления о коммуникативных потребностях, присущих данной профессии. Из-за отсутствия опыта и специальных знаний преподаватели сталкиваются с рядом трудностей: психологических, лингвистических, методических и т.д. Это создает неудобства и трудности, как при преподавании, так и при восприятии учебного материала. Безусловно, преподаватель профессионально-ориентированного русского языка должен изучить основы специальности, базовую профессиональную лексику, ориентироваться в терминологии. Ведь часто отсутствие базовой подготовки у преподавателя ведет к искажению смысла при переводе текстов, акцентированию не важной с точки зрения специалиста информации. Учет специфики профилирующих специальностей должен проводиться по следующим направлениям: работа над специальными текстами, изучение специальных тем для развития устной речи, изучение словаря-минимума по соответствующей специальности, создание преподавателями пособий для активизации грамматического и лексического материала обучающихся.

Рассмотрим некоторые лингвистические, а именно, лексико-семантические трудности изучения профессионально-ориентированной лексики.

Исходя из опыта работы следует отметить, что изучение новой лексики происходит, прежде всего, с опорой на родной язык. В некоторых случаях встречаются грубые нарушения грамматических норм, вызванные тем, что в родном языке пишущего грамматические категории отличаются от аналогичных категорий русского языка (например, отсутствие категории рода в узбекском языке), в результате чего происходит нарушение норм согласования, препятствующих пониманию текста. Обучаемые должны понимать, что профессионально-языковая грамотность необходима потому, что в специальных документах язык выступает как непосредственное выражение правовой мысли. Все термины, специальные понятия, конструкции, сформировавшиеся под влиянием особенностей профессионального мышления, должны соответствовать современному уровню знаний и употребляться только тогда, когда они действительно необходимы. Таким образом, мы вслед за С.Н.Цейтлиным [4, 123], определили ошибки, связанные с использованием в речи профессиональной терминологии:

1. Речевые, свойственные исключительно устной форме речи – это орфоэпические, акцентологические ошибки;



2. Не зависящие от формы речи – словообразовательные, морфологические, синтаксические, лексические, стилистические ошибки;

3. Свойственные исключительно письменной форме речи – орфографические ошибки.

Говоря о психологических трудностях, связанных с обучением терминологии, следует отметить такие явления, как:

1. Отсутствие у студентов надлежащих знаний по терминологии. Непонимание данного термина, используемого в определенной речевой ситуации, т.е. уметь правильно использовать тот или иной термин в процессе коммуникации. При непонимании студент произносит термин, а вот обменяться мыслями не сможет.

2. Страх у студентов сделать ошибку при использовании того или иного термина, что может прекратить процесс коммуникации с собеседником. Преподаватели очень часто исправляют ошибки в речи обучаемых, что создает атмосферу контроля и не дает студентам раскованно и спокойно оперативно использовать в речи изученные термины.

Как показывает опыт, словарный запас будущего специалиста является одним из самых важных компонентов использования иностранного языка в профессиональной деятельности. Как бы хорошо обучаемый ни выучил грамматику, как бы успешно он ни усвоил фонетическую систему языка, без знания профессионально ориентированной лексики он не сможет в полной мере выразить свои мысли и стать полноценным участником иноязычного общения.

Учет коммуникативных потребностей обучающихся очень важен при составлении учебных программ и учебников. Они являются основой, определяющей эффективность обучения. Программа и учебник должны отразить практические цели, коммуникативные потребности обучающихся. Учебник, написанный без учета, например, будущей специальности обучающихся окажется не только неэффективным, но может даже оттолкнуть от изучения русского языка студентов, которые хотели бы как можно скорее приобщиться к информации по своей специальности получить от изучения русского языка непосредственную практическую пользу.

Существуют несколько способов решения возникающих трудностей:

– разрабатывать программы и учебники, учитывающие материалы и лексику по своей будущей специальности;



– использовать на занятиях по русскому языку материалы, знакомящие с базовыми понятиями специальности, так как часто преподаватели-предметники не уделяют достаточно внимания основам профессии;

– на занятиях по русскому языку создавать ситуации, в которых студенты могли бы использовать полученные теоретические знания по специальности для решения практических проблем;

– использовать материалы, уже известные студентам, но представленные с другой точки зрения;

– быть готовым к тому, что студенты могут исправлять ошибки преподавателя; - использовать помощь преподавателя-предметника, как для подготовки к занятиям, так и во время их проведения («преподавание в команде»).

Какой бы способ не избрал преподаватель русского языка, от него, в любом случае, требуется владение определенными знаниями в данной профессиональной области, желание усовершенствовать процесс преподавания, заинтересованность в практическом применении студентами знаний, как в области русского языка, так и в профессиональной сфере, профессионализм, творческий подход к осуществлению учебного процесса.

Литература:

1. Берман И. М. Методика обучения английскому языку в неязыковых вузах. - М.: Просвещение, 1970. - 187 с.

2. Бреус Е.И., Стойка Г.Л. Русский язык как средство обучения языку специальности. - // Иностраные языки в школе. - 2008. - № 1. - С. 2-8.

3. Нестеренко В.Г. К вопросу о профильно-ориентированном обучении иностранным языкам.-Коцепт.-2014.-Спецвыпуск №21. -С.1-7.

4. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение -М. Просвещение, 1982. С.123.



TALABALARNING KASBIY AUDITIV LAYOQATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI

G.R.SOBIROVA,

TDPU aniq va tabiiy yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi, (PhD)

Jahondagi rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar yetishtirib berish vazifalarini ham hal qilmoqda. Ushbu maqolada, talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribalarini o'rgandik.

Kalit so'zlar: *Kasbiy auditiv layoqat, talabalar, xorijiy tajribalar, shaxsiy rivojlanish, elektron qo'llanmalar.*

The experience of the world's developed nations, based on cutting-edge pedagogical technology, not only satisfies the interest and demands of students in learning, but also addresses the challenges of producing highly competent professionals. In this research, we looked at how students' exposure to different cultures affected their ability to develop professional aural skills.

Key words: *Professional auditory ability, students, foreign experiences, personal development, electronic manuals.*

Опыт развитых стран мира, основанный на передовых педагогических технологиях, не только удовлетворяет интерес и потребности студентов в обучении, но и решает задачи подготовки высококвалифицированных специалистов. В данной статье мы изучили зарубежный опыт по развитию профессиональных слуховых навыков у студентов.

Ключевые слова: *профессиональная слухоспособность, студенты, зарубежный опыт, личностное развитие, электронные пособия.*

Ma'lumki, elektron ta'limiy resurslar mavjudligiga qaramasdan, o'zbekistonlik talabalar uchun milliy mentalitet xususiyatidan kelib chiqib hamda til o'zlashtirish bo'yicha malaka talablarini amalga oshirish uchun muayyan ishlab chiqilgan axborot-kommunikasion ta'limiy resurslariga ehtiyoj mavjud. Garchi, bugungi kunda respublikamiz OTMLarida ingliz tilini o'qitishda ko'plab xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanish holatlari mavjud bo'lsada, ushbu muammo o'z yechimini kutayotgan masalalardan biriga aylangan.

Biz tadqiqot doirasida xorij tajribalarini o'rganar ekanmiz quyidagi metodlarni o'qitish jarayonida qo'llash borasidagi tajribalarni ham tahlil qildik.



«Silent way» (jimlik metodi) XX asrning 60-yillarida vujudga kelgan. Bu metod ingliz tilini oʻrganishda tabiiy omillardan foydalanishni koʻzlaydi Har bir insonda til oʻrganish qobiliyati tabiiy mavjud boʻladi. Shunga koʻra, talaba ingliz tilini mukammal oʻrganmoqchi boʻlsa, unga barcha pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berish zarur boʻladi. Shu bois, mazkur metod tarafdorlari fikri boʻyicha ingliz tili oʻqituvchisi talabaning imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishga shart-sharoit yaratishi zarur. Oʻqituvchi soʻzlarning turli simvollarini koʻrsatish, oʻqish va eshittirish orqali talabaning til boyligini koʻpaytiradi. Simvollar keyinchalik soʻzlar bilan uzviy bogʻliqlikda xotirada saqlanib qoladi.

«Total-physical response» (jismoniy jihatdan axborotga nisbatan taʼsirni koʻrsatish metodi). Mazkur metodning talabiga binoan oʻzidan oʻtkazilmagan har qanday axborot xotirada saqlanib qolmaydi. Shu bois ham xorijiy tilni oʻrganish uchun til axborotini inson oʻzidan oʻtkazishi lozim. Shunga koʻra, avval talaba yetarli hajmdagi xorijiy til boʻyicha axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyin esa qariyb yigirma soat talaba faqat berilgan axborotlar majmuasidan iborat xorijiy til materialini muntazam eshitib boradi. Keyin esa talabadan olingan axborotlarga nisbatan jismoniy javob berish talab etiladi. Javob berish tana harakatlari orqali kechadi. Masalan, «Stand up!» deyilganda talabalar turadi, «Sit down!» deyilganda talabalar oʻtiradi. Binobarin, uzoq vaqt talaba avval eshitib, keyin oʻz harakatlari orqali axborotni oʻzlashtirib olganidan soʻnggina mana shu axborot bilan faol munosabatlar oʻrnatiladi. Mazkur metodda talabalar keyinchalik na faqat oʻqituvchi bilan, balki faol tarzida oʻzaro ham keng muloqotga kirishadilar.

«Sugesto pedia» – talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda (colloquial speech) va yozma («reading») nutqning til materialiga chuqur kirib borish metodi. Mazkur metod oʻtgan asrning 70-yillaridan keng tarqala boshladi. Mazkur metod tarafdorlarining fikriga koʻra, inson har qanday boshqa xorijiy tilni oʻrganishi mumkin. Shu bois, guruhdagi barcha talabalar oʻzlariga yangi, xorijiy til mamlakatiga doir ismlarni qabul qiladilar, oʻzlari uchun yangi biografiyalarni oʻylab chiqaradilar. Yangi til mamlakatida yashashni fantaziya qila boshlaydilar. Shu bois, talabalarda illyuziya, yaʼni yangi mamlakatda yashayotgan yangi inson qiyofasi vujudga keltiriladi. Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda (colloquial speech) va yozma («writing») til oʻrganish imkoniyatlari juda kengayadi, ular erkin muloqotga kirishganidan soʻng esa, ularda oʻz kuchlariga ishonch bir necha barobar ortadi.

Shunday qilib, talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirish boʻyicha xorij tajribalarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:



1. Bugungi kunda barcha pedagoglar innovasion pedagogik faoliyatni pedagogik amaliyotga tatbiq eta olishlari shart. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida, xususan ingliz tili bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning innovasion faoliyatlariga bo'lgan talab juda kuchli ekanligi ayon. Shunga ko'ra, zamonaviy o'qituvchi pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirishi, ta'lim jarayonida intellektual mulkni asrashi va yanada rivojlantirishi, yangi va ilg'or pedagogik ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishi, innovasion loyihalar ko'lamini kengaytirishi talab etiladi. Bunda oliy ta'lim tizimida ingliz tilidagi o'quv materialini innovasion shakl, vosita va usullarni joriy etish orqali o'zlashtirish, buning uchun maxsus tayyorgarligi mavjud bo'lgan pedagogik kadrlarni yetishtirish muhim hisoblanadi.

2. Ko'rgazmali qurollardan effektiv foydalanish – qo'yilgan pedagogik maqsad va tadqiqot mavzusi doirasida juda keng ravishda qo'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ko'rgazmali qurol sifatida filmlar, vaziyatlar, hodisalar, ijtimoiy holat va xalqaro vaziyat, konflikt holatlari ishlatish mumkin.

3. Maqsadli tadbirlar o'tkazish – yetakchilikni namoyon qilishga bag'ishlangan maxsus tanlov, ko'rgazmalar, intervyular, konferensiya, anjumanlar, davra suhbatlarini tashkil qilishdan iborat bo'ladi. OTM da talabalarda bilan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni chet tilida o'tkazish juda katta samara beradi. Agar mazkur jarayonda OTM rahbariyati ham xorijiy til malakalarini namoyon qila olsa, nur ustiga nur bo'ladi. Ya'ni talabada taqlid qilish uchun yorqin namuna shakllantirilgan bo'ladi.

4. Tadqiqot doirasida ingliz tilini o'qitishda kuyidagi pedagogik vositalar samaralidir:

– ta'lim jarayonining texnik qurilmalari (video, magnitofon, audio, kreroks, tablolar, flep-chatlar, multi-media vositalari) va IT texnologiyalari bilan ta'minlanganligi;

– mavzuga oid maxsus ommabop va ilmiy manbalarning mavjudligi va ulardan foydalanishning hammabop ekanligi;

– milliy qadriyatlar va milliy madaniyat omillardan unumli foydalanish imkoniyatining mavjudligi (suhbatlar, uchrashuvlar, muzey, kino, teatrga borish);

– tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda turli xorijiy mehmonlar, xususan xorijiydavlatlar elchilari, ularning namoyondalri bilan uchrashuvlar o'tkazish imkoniyatining mavjudligi;

– chet tillarni o'qitishda amaliy tajribalarni shakllantirish uchun «tilni o'z ona tili deb bilgan» o'qituvchilar sonining mavjudligi va ularning ta'lim jarayoniga tortilganligi";



– hayotiy voqealarni shuhrat qozongan insonlar bilan bo‘lgan muloqotlar orqali muhokama qilish imkoniyatining yaratilishi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tillini o‘qitishda uzviylik va uzluksizlik tamoyilini joriy etadigan eng birinchi shaxs bu o‘qituvchidir. Binobarin, pedagogik faoliyat nufuzini oshirish, uning samaradorligini ta‘minlashning muhim omillaridan biri bu ta‘lim jarayonida o‘qituvchining pedagogik innovasion faoliyatini tashkil etishdir. Zamonaviy pedagogik innovasiyalarsiz pedagogik jarayon samaradorligi oqsaydi. Innovasion pedagog faoliyat ta‘lim tizimidagi amalga oshirilishi zarur bo‘lgan «portlash» effektini ta‘minlab beruvchi bosh omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirova G.R. Development of auditory speech in students. Scientific practical research in Uzbekistan. Tashkent 2020
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M.H. Practical foundations of pedagogical technologies / Study manual. - T.: Science, 2006. - 264 p.
3. Tokulov Kha.A., Muqimov M.O. Informatization of the preparation of future junior specialists for professional activity / Study guide. - T.: «Science and technologies», 2014. - 176 p.
4. Kuronov M. Organization of spiritual and educational work in institutions of higher education. - T. 2011. - 88 p.
5. Kuronov M. Organization of spiritual and educational work in institutions of higher education. - T. 2011. - 88 p.



JAHON MAMLAKATLARIDA STRESS MUAMMOSINING UZLUKSIZ O'RGANILISHI

A.A.RADJABOV,

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasida assistenti*

Maqolada sportchi faoliyatiga ta'sir etadigan stresslarning kelib chiqish sabablari, ta'sir doiralari va ularning psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Ctress, affekt, depressiya, frustratsiya, frustratsion tolerantlik, ruhiy inqiroz stressorlar, nerv sistemasi va boshqalar.*

В статье описаны причины стресса, сферы влияния и их психологические особенности, влияющие на результативность спортсменов.

Ключевые слова: *Стресс, аффект, депрессия, фрустрация, толерантность к фрустрации, психические кризисы, стрессоры, нервная система и др.*

The article describes the causes of stress, the spheres of influence and their psychological characteristics that affect the performance of athletes.

Key words: *Stress, affect, depression, frustration, frustration tolerance, mental crises, stressors, nervous system, etc.*

«Stress» tushunchasining qo'llanilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, V.I.Petrushinning ma'lumotiga ko'ra, mazkur atama ilk marotaba 1303 yilda shoir R.Man tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u bu atamani o'z she'rida ishlatgan. She'rdan ushbu atama «Bu uqubat olloh tomonidan qirq yil qishni sahroda o'tagan va katta stressni boshidan kechirayotgan odamlarga yuborilgan» tarzida ifodalangan.

Stressni ilmiy atama sifatida ilk bora o'rganilishi kanadalik olim G.Selega tegishlidir. O'sha vaqtlarda nashr etiladigan «Nature» jurnalining 1936 yil 4 iyuldagi sonida G.Selening «Turli shikastlovchi omillar chaqiruvchi sindrom» deb nomlangan maqolasi chop etilgan va unda organizmning turli xil kasalliklarni qo'zg'atuvchi omillar ta'sirida yuzaga keladigan standart reaksiyalar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar stress haqidagi ta'limotning boshlanishiga asos bo'lganligi tabiiydir. Agar bugun psixologik adabiyotlar tahliliga nazar tashlansa, «stress» tushunchalarining juda ko'p va turli xil izohlari uchraydi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda «stress» so'zi «iskanjaga olish, bosim, zo'riqish» ma'nolarini beradi. Psixologik atamalar lug'atida stressga quyidagicha izoh berilgan: «...kuchli ta'sir ostida paydo bo'luvchi inson yoki hayvondagi zo'riqish holatidir». Shuningdek, o'zbek tilida nashr etilgan, psixologik atamalar ruscha o'zbekcha lug'atida: «Stress – (ingl. stress – zo'riqish, kuchlanish, lot. stress – zo'riqish); 1. Organizmning jismoniy va psixik shikast yetkazishi mumkin bo'lgan ta'sirlarga nisbatan bildiradigan adaptatsion – himoya munosabatlari



majmui; 2. Zo'riqish holati – odam organizmiga ta'sir etayotgan turli noxush omillar ta'siriga javoban yuzaga keladigan fiziologik himoya munosabatlari majmui. Kuchli ta'sir ostida yuzaga keluvchi zo'riqish holati» – deb izohlangan.

Stressni fiziologik va psixologik tushunchalar sifatida turlarga ajratishga birinchi bor uringan olim R.Lazarusdir. U ilgari surgan konsepsiyadagi g'oyaga ko'ra, «Fiziologik stress real qo'zg'atuvchilar ta'sirida yuzaga keladi, psixologik stress esa mavjud vaziyatni inson o'z individual bilim va tajribalaridan kelib chiqqan holda xavfli va qiyin deb baholashi natijasida kelib chiqadi». R.Lazarusning mazkur g'oyasiga asoslangan holda keyingi yillarda stressni ikki turga – fiziologik stress va psixologik stressga bo'lish urf bo'lgan. Qayd etish lozimki, fiziologik stressda hamisha psixik elementlar, psixologik stressda esa fiziologik elementlar mavjud bo'ladi.

Stress muammosiga oid ilmiy tadqiqotlar garchi yurtimizda aytarli amalga oshirilmagan bo'lsada, mazkur muammo doirasida xorij va rus psixologiyasida amalga oshirilgan, yuqorida sanalgan bir qancha tadqiqot ishlari mazkur atamani yetarlicha tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotchi B.B.Velichkovskiyning e'tirof etishicha, «fanga stressga nisbatan individual barqarorlik» atamasini kiritish lozim. Uning o'zi bu atamani quyidagicha izohlaydi: «...stressga nisbatan individual barqarorlik tizimli xususiyat bo'lib, ushbu xususiyat insonning turli xil psixoiqtimoiy zo'riqishlar, atrof-muhitning qisqa yoki uzoq muddatli salbiy ta'sirlariga nisbatan o'z ruhiy va jismoniy salomatligiga putur yetkazmasdan muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi».

P.B.Zilberman stress tushunchasiga quyidagicha ta'rifni keltiradi: stressli kechinmalar – bu «shaxsning integrativ xususiyati bo'lib, u shaxs psixik faoliyatining emotsional, irodaviy, intellektual va motivatsion komponentlarining o'zaro munosabatini xarakterlaydi hamda murakkab emotiv vaziyatlarda faoliyat maqsadiga yetish uchun muvaffaqiyatga erishishning optimal yo'lini tanlashga imkon beradi».

Stress masalasini o'rgangan yana bir psixolog olim, V.A.Ponomarenko o'z mulohazalarida, stress favqulodda vaziyatlarda orientirovka reaksiyasining fiziologik mexanizmlari, dominantalar, stereotiplar, operativ xotira kabilar muammoni yechishda to'siq bo'lishi, biroq «xulq-atvor harakatlarining intellektual darajasi esa axloqiy xazinalar bilan qo'shilib o'z kasbiga, o'ziga nisbatan burch va or-nomus hissi asosida yangi anglangan maqsad – muammoni yengib o'tish va muvaffaqiyatga erishish maqsadini paydo qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, muallif, inson xulq-atvorini boshqarishning bir darajasidan ikkinchi darajasiga o'tishga tayyorlik va tezlik holatlari – psixologik barqarorlikning poydevori hisoblanishini ham ta'kidlab o'tadi.

L.I.Ansiferova va L.G.Dikaya asarlarida stress barqarorlik, shaxsning yetukligi, insonning muayyan maqsadlarga yo'naltirish qobiliyati, vaqt istiqbolining tabiati, ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liqlik imkoniyati sifatida izohlangan.

Stressni yengishda shaxs omilining ta'siri muammosiga V.I. Medvedev,



V.E.Milman, V.D.Nebilitsin, G.S.Nikiforov va boshqalarning ishlari bag'ishlanganligini e'tirof etish mumkin. Ularning ishlarida alohida qiziqish xatti-harakatlarining yengish strategiyalari deb ataladigan, kurashish jarayonida yuzaga keladigan qiyin hayotiy sharoitlarga nisbatan shaxsning o'zini tutishi muammosi yoritilgan.

Stressga bardoshlilikning fenomenologik jihati sifatida ham qarash mumkin. Hozirgi vaqtda psixologiya fanida «stressga chidamlilik» tushunchasining turli xil ta'riflari ishlab chiqilgan. Jumladan, «stressga chidamlilik» atamasi ostida S.V.Subbotin hissiy barqarorlik, stressga psixologik qarshilik, stressga chidamlilik, umidsizlikka bardoshlik kabi o'ziga xos tarkibiy qismlarni tushunadi. Stressga chidamlilik fenomenining bunday ko'rinishi juda keng tarqalgan. Muhandislik psixologiyasida stressga chidamlilik muammosi ekstremal (maxsus) sharoitlarda operator insonning barqarorligi sifatida qaraladi, bu yerda uning uchta jihati ya'ni obyektiv, fiziologik va psixologik jihatidan birlashtirilgan holda tahlil qilinadi: V.A.Bodrov ta'kidlashicha, barqarorlikni subyektiv samarali tahlil qilish, mehnat mavzusidagi o'zgarishlarni, uning samaradorligi va sifatini tavsiflovchi faoliyatning natijaviy parametrlarini aks ettirsa, u holda fiziologik va psixologik yondashuvlar barqaror faoliyatni qo'llab quvvatlash va ta'minlash jarayonini izohlaydi. B.X.Vardanyan stressga chidamlilikni aqliy faoliyatning barcha tarkibiy qismlari, shu jumladan hissiy faoliyatning maxsus o'zaro ta'siri sifatida belgilaydi. «Stressga qarshi kurashish emotsional holatdagi aqliy faoliyatning barcha tarkibiy qismlari o'rtasida uyg'un munosabatni ta'minlaydigan shaxsiy xususiyat sifatida aniqlanishi mumkin va shu bilan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga hissa qo'shadi». Stressga chidamlilikning muhim jihatlaridan biri to'g'risida P.B.Zilberman ta'kidlaganidek, barqarorlik o'zgaruvchan vaziyatga mos aks ettirishning yetishmasligi, moslashuvchanlik yetishmasligidan dalolat beruvchi tushunarsiz hodisa bo'lishi mumkin. U stressga bardoshlilikni o'z izohida quyidagicha ta'riflaydi. Shaxsning aqliy faoliyatidagi hissiy, ixtiyoriy, intellektual va motivatsion tarkibiy qismlarining bunday o'zaro ta'siri bilan tavsiflanganda, murakkab hissiy muhitda shaxsning o'z maqsadiga optimal tarzda muvaffaqiyatli erishishidir.

Stressga chidamlilikning yuqoridagi barcha ta'riflaridan kelib chiqib, ushbu hodisa (sifat, xususiyat, mulk), asosan, faoliyatning samaradorligiga (muvaffaqiyatiga) ta'sir etuvchi xususiyat sifatida funksional nuqtai nazardan ko'rib chiqilganligini e'tirof etish mumkin. Faqatgina B.X.Vardanyan va S.V.Subbotin ta'riflarida stressga chidamlilikning ikkilamchi tabiati g'oyasini kuzatish mumkin. Bu xususiyat stressga chidamlilikni faoliyat natijasiga ta'sir etuvchi xususiyat sifatida (muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik) yoki tizim sifatida, insonning gomeostazini ta'minlovchi xususiyat sifatida ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi. Ushbu pozitsiyalardan stressga qarshilik, faoliyatli (tashqi) va shaxsiy (ichki) ko'rsatkichlar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Aytilish mumkinki, kutilmagan, o'ta murakkab, kam stereotipik vazifalar bilan



to‘yingan ekstremal ishlarda yuqori shovqin immuniteti va stressga qarshi turishni ta‘minlaydigan kuchli, harakatchan va muvozanatli asab tizimiga ega bo‘lgan odamlar uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ammo bu holat stressning genlariga ega bo‘lgan kasbiy faoliyatning barcha turlari uchun toqat qilib bo‘lmaydi, bunda faoliyatning samaradorligi va kasbiy stress omillariga qarshi kurashish faoliyat subyektning shaxsiy va operatsion xususiyatlari vositasida amalga oshiriladi.

Koping shartli stress – inson holati, noma‘qul ta‘sirotlarga javob sifatida yuzaga keladigan fiziologik, psixologik va xulq-atvor darajasidagi noan‘anaviy javob reaksiyasidir. Binobarin, yengish kasusli vaziyat bilan o‘zaro ta‘sirga kirishishning individual usuli bo‘lib, o‘zgaruvchan va uch omilga, ya‘ni subyekt shaxsi, real vaziyat va qo‘llab quvvatlash bilan bog‘liq yengishga yo‘nalgan kuchdir.

Mazkur kuch asosan har bir insonga xos motivatsiya bloki doirasida namayon bo‘ladi. Masalan sportchilar motivatsiya blokini sport faoliyati ehtiyojlari, maqsadlari, motivlari tashkil qiladi. Ehtiyoj yoki insonning biror nimaga muhtojligi atrof muhit bilan mutanosiblikning buzilganligini bildiradi. Psixologik jihatdan bu doim ichki zo‘riqishning, u yoki bu darajadagi diskomfortning yuzaga kelishi va ulardan qutulish uchun kerakli ehtiyojni qondirish zarurligi bilan bog‘liq. Aynan shuning uchun bunday ehtiyoj izlash faolligini oshiradi, bu faollik uni qondirish usulini topishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu soxada olib borilgan tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, har qanday ehtiyoj turli usullar bilan qondirilishi mumkin. Inson o‘zi bilgan usullardan har qandayini tanlashi mumkin, lekin reallikda uning tanlovi hayotning konkret sharoitlari bilan chegaralangan bo‘lishi mumkin. Kopingning psixologik ahamiyati shundaki, insonning vaziyat talablariga samarali moslashishi va uni egallashi uchun, bu talablarni zaiflashtirishi yoki yumshatishi, ulardan qochishi yoki ularga ko‘nikishga harakat qilishi va shu tariqa vaziyatning stressli ta‘sirini asta-sekin yo‘qotishi lozim. Koping-xulq ikkita funksiyani bajaradi: muammoli vaziyatda, shaxs va muhit o‘rtasidagi stressli buzilishda diqqatni to‘plash hamda emotsional distressni boshqarishga yo‘naltirilgan emotsiyalarda e‘tiborni jamlash hisoblanadi. Shunday qilib, kopingning asosiy vazifasi – inson muvaffaqiyatini, jismoniy va ruhiy salomatligi hamda ijtimoiy munosabatlarini ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlashdir.

Psixologiya fanida yengish strategiyasini tekshirishga yo‘nalgan bir nechta yondashuvlar mavjud. Jumladan, I.M.Nikolskaya va R.M.Granovskaya yengish strategiyasini uchta muhim tarkibdan tashkil topganligini izohlaydilar:

- xulq-atvor;
- emotsional;
- bilish.

Birinchi tarkib (komponent) ichki va tashqi omillar bilan taqozo etilgan zo‘riqish o‘chog‘ini yengishning turli xil xulq-atvor strategiyalarini o‘z ichiga oladi.



Ikkinchi tarkibga zo‘riqish o‘chog‘ini yengish yoki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash maqsadidagi emotsional bo‘shashish kiradi.

Uchinchi tarkibga stress zo‘riqish holatini vaziyatni subyektiv baholashni o‘zgartirish bilan neytrallashtirish va nazorat darajasini mos ravishda o‘zgartirish imkonini beruvchi strategiyalar kiradi.

L.I.Ansiferova tadqiqotlarida sifatiy konstruktivlikka asoslangan quyidagi strategiyalarni ajratib ko‘rsatadi:

Yengishning o‘zgartiruvchi strategiyasiga vaziyatni pozitiv o‘zgartirish imkoniyati haqidagi qarorni qabul qilib, subyekt uni muammo sifatida shakllantiradi: u tugal va oraliq maqsadlarni belgilab oladi, maqsadga erishish usullarini aniqlaydi, hal qilish rejasini tuzadi, ba’zida «kognitiv repetitsiya»ni ham qo‘llaydi. Konstruktiv o‘zgartiruvchi strategiya amaliy harakatlarni qo‘llashni shart emas, deb hisoblaydi, ularning o‘rnini verbal reaksiya formalari egallashi mumkin. Resurs va zahiralarni deyarli yo‘qotilgan vaziyatlarda ongning mazmuniy-ma’naviy va energetik-dinamik sohalarida qayta qurish yuz beradi. Inson psixik o‘zini boshqarishning yangi tizimini shakllantirishga harakat qiladi. O‘zgartiruvchi strategiyalar sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: «pastga qarab taqqoslash», bunda odam o‘zini undan ham battarroq holatdagi odamlar bilan solishtiradi; «yuqoriga qaratilgan taqqoslash», bunda odam o‘zining boshqa soxalardagi muvaffaqiyatlarini esga oladi, «antitsipatsiyalovchi yengish» yengish ehtimoli qiyin sinovlarga psixologik tayyor turish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. -Т.: 2017. -№6 (766)-сон. -229 б.

2. 2019-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш Концепцияси. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги 118-сонли қарор. / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 14.02.2019 й.09/19/118/2612-сонли. -Т.: 2019. -Б-1-3.

3. Алёшков И., Джанузакоев К. Индивидуальная подготовка-проблема № 1. //Футбол-хоккей. -М.:1994. -№ 32. -С.12-13.

4. Баротов Ш. Р. Психологик хизмат. -Т. 2018. -346 б.

5. Гозман Л.Я. Психология эмоциональных отношений. -М.: 1997.-272 с.

6. Е.Миронов. Стресс. -Москва.: Санкт-Петербург. 2003. 10-бет

7. Селье Г. Стресс без дистресса. -М.: Прогресс. 1999. -134с.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta‘lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.02.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**